

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ORIENTAL UNIVERSITETI

M.A. RASULOVA

INGLIZ TILIDA DRAMATIK DISKURSDAGI
METAFORANING LINGVOKULTUROLOGIK
ASPEKTI VA ULARNING O‘ZBEK TILIGA
TARJIMASI

Monografiya

TOSHKENT -2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.432.1

R 24

Rasulova.M.A.

Ingliz tilida dramatik diskursdagi metaforaning lingvokulturologik aspekti va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi [Matn]: Monografiya / M.A.Rasulova.

– Toshkent: “LAVITA PRINT” print, 2025. –148 b.

Ushbu monografiya ingliz tilida dramatik diskursdagi metaforaning lingvokulturologik aspekti va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi xususiyatlariga bag‘ishlangan. dramatik diskursdagi metaforalarning ikki tildagi o‘zaro munosabati hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi dramalarda kommunikativ-pragmatik xoslangan metaforalarning gender xoslik belgilarini hisobga olgan holda feminin va milliy-mental, diskursiv, sotsial xoslangan kabi lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan.

Monografiya qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar, professor o‘qituvchilari, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida tahsil olayotgan talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir :

D.Nasirov – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

F.Muratxodjayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.Akromov – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD),dotsent

A.Tursunov – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Oriental universiteti kengashining 2025 yil (2025 yil 3- mart № 2 sonli yig‘ilishida) muhokama qilindi va ochiq nashr etishga tavsiya etildi.

ISBN: 978-9910-8062-9-2

© Rasulova M.A., 2025

© “LAVITA PRINT” nashriyoti,

SO‘Z BOSHI

Jahon tilshunosligining taraqqiyoti natijasida ilm-fanga yangicha yondashuvlarni joriy etish zarurati paydo bo‘ladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri tilning muayyan qatlamida uchraydigan diskurslarning lisoniy, ijtimoiy, madaniy, antropologik, semiotik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, adabiyot hamda ijtimoiy-maishiy sohalarda uchraydigan diskursning qo‘llanish doirasini tadqiq qilish keng o‘rganilayotgan muammolardandir. Dramatik diskurs muayyan xalq mentaliteti, etnik xususiyatini til orqali ifodalab beruvchi murakkab jarayon. Unda shaxsning fikriy mundariyasi, uning nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligi, pragmatik va sotsiopragmatik xoslanishi real ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Dunyo tilshunosligida metaforalogiyaning paydo bo‘lishi va alohida soha sifatida shakllanishini antropotsentrik aspektda tadqiq etish, antik va o‘rta asr tilshunosligidan farqli ravishda metaforalarning lison va tafakkurga qaratilgan lingvokognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik tabiatini tushuntirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Metaforadagi nominativ vazifani antropotsentrik yondashuv tamoyillari asosida tekshirish muammosi esa hanuz o‘z yechimini topganicha yo‘q. Sohaning rivoji bilan metaforaning inson kognitiv strukturasi hamda til sistemasiga daxldorligini neyrolingvistik kesimda asoslash, kognitiv va konseptual metaforalarni o‘zaro farqlash, metaforik nominatsiya nazariyasining taraqqiyotini belgilash yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Monografiyada dramatik diskursning talqini, uning o‘rganilayotgan muammoga tegishli qirralarini oydinlashtirish va uning

tilshunoslikdagi mohiyatini asoslash, antropotsentrik paradigmada diskurs va uning semantik-struktur xususiyatlarini tadqiq qilingan. Ingliz va o‘zbek tillarida metaforalarning leksik-semantik va ijtimoiy xoslanish omillari mohiyatini dramatik diskursdagi matnlar misolida qiyoslangan va ingliz va o‘zbek dramatik diskursda gender xoslangan metaforalarning lingvokulturologik tafovutlarini aniqlangan.

Tadqiqotning obyektini o‘zbek va ingliz tilidagi metafora, dramatik diskursiv jarayon hamda diskursiv sistema tadqiqotning o‘rganish manbayidir. Tadqiqotning predmeti dramatik diskursda metaforizatsiyaning sotsial xoslanish xususiyatlari, uning voqelanishiga pragmatik, lingvokulturologik omillarning ta’siri va diskursiv talqinini tashkil etadi.

Monografiyaning ilmiy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning xulosa va natijalari leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturologiya, o‘zbek tili, tarjimashunoslik kabi fanlar dramatik diskursining lingvokulturologik tasnifi, qiyosi, ularning tarjimasini bilan bog‘liq mavzular talqini va ta’limini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta’lim tizimida lingvokulturologiya, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya nazariyasi fanlaridan maxsus kurs o‘tishda, shuningdek, ushbu fanlar bo‘yicha darslik, qo‘llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning xulosa va materiallaridan ingliz, rus va o‘zbek tillarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda, kurs va bitiruv malakaviy ishi hamda turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA DRAMATIK DISKURS

ILMIY TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA O'RGANILISHI

§ 1.1. Antropotsentrik tilshunoslikda diskursning o'ziga xos xususiyatlari.

Tilshunoslikdagi antropotsentrik tadqiqotlar diskurs kabi murakkab va ko'p qirrali hodisani tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq. Buning sababi shundaki, inson antropotsentrik tadqiqot obyekti sifatida, birinchi navbatda, umumlashtirishning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy vaziyati doirasida qo'llanilayotgan tilda namoyon bo'ladi.

Bugungi kungacha antropotsentrizm tizimli markazlashuv bilan dialektik qarama-qarshilikda bo'lib, u "til – odam" muammosining ikkinchi vektori – mavhum obyektivizmga qaytadi. Til, eng yuqori mavhumlik sifatida, bu nuqtayi nazarga ko'ra, faqat uning immanent holatida o'rganilishi kerak, ya'ni. yopiq tuzilma sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq deb qaraladi. O. Aleksandrova o'z tadqiqotida "Til o'zining kommunikativ funksiyasiga ko'ra, insonga nafaqat fikrni ifodalash, balki ifodalanayotgan narsaga, his-tuyg'ularga, irodaga, baholarga va hokazolarga subyektiv munosabatini bildirishga ham xizmat qiladi, chunki hissiyot, iroda, baholashlar, istaklar insonning voqelikni idrok etishida ajralmas omillardir"¹.

Tilshunoslik sohasidagi antropotsentrizm olimlar tomonidan tadqiqot nuqtayi nazarini o'zgartirish, ya'ni yangi tadqiqot obyekti - lingvistik shaxsni shakllantirish bilan izohlanadi. Bu esa ayrim hollarda lingvopersonologiya terminining paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi.

¹ Александрова О.В. Соотношение устной и письменной речи и язык СМИ/О.В. Александрова // Язык средств массовой информации / под ред. М.Н. Володиной. – М.: Академический проект; Альма-Матер, 2008. – С. 5, 330 – 345.

Voqelikni bilishning faol shakllaridan biri boʻlgan til bizga dunyoning koʻp asrlar davomida idrok etishga intilib kelayotgan real tasvirini beradi. Boshqa bir manbada aytilishicha, koʻplab tilshunoslik anʼanalarida taqdim etilgan tilga antropotsentrik yondashuv tarixiy jihatdan birlamchi boʻlib, vaqt oʻtishi bilan u oʻzining universalligini yoʻqotgan va faqat soʻnggi oʻn yilliklarda jahon tilshunosligida yetakchi oʻrinni egalladi. Antropotsentrik ilmiy paradigma tilni oʻrganishda yangi vazifalarni qoʻydi, bu esa uni tasvirlashning yangi usullarini, uning birliklari, kategoriyalari, qoidalarini tahlil qilishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Maslova V.A. antropotsentrizm gʻoyasi xususida quyidagi mulohazalarini bildiradi: “Tilning antropotsentrikligi gʻoyasi zamonaviy tilshunoslikning asosiy gʻoyasidir.

Bizning davrimizda lingvistik tahlilning maqsadini endi til tizimining turli xususiyatlarini aniqlash deb hisoblash mumkin emas. Endi tilni oʻrganish uning mavjudlik usuli - shaxssiz mumkin emas. Bu esa antropotsentrizmdir”². Maslova V.A. antropotsentrizmning asosiy mohiyatida inson omilining mavjudligiga urgʻu beradi. Boshqa taʼriflardan farqli oʻlaroq, Maslova taʼkidlagan jihat antropotsentrizm mohiyatini aniqroq ifodalaydi. Y.S.Stepanovning taʼkidlashicha, “Soʻnggi oʻn yillikning bironta ham yirik tilshunosi tilda antropotsentrizm masalasi yechimini toʻlaligicha ochib berolmagan”³. Stepanovning fikrini toʻla inkor etib boʻlmaydi, biroq masalaga boshqacha nuqtayi nazardan yondashish zarurati koʻrinadi. Yaʼni

² Maslova V.A. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2007. – С. 208. [Электронный ресурс] – Режим доступа: www.lib.ru.

³ Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М.: Наука, 1975. – С. 311.

antropotsentrik paradigma, antropotsentrizm, lingvopersonologiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmog‘i kundan kunga oshib bormoqda, har bir tadqiqotda ularning muayyan o‘ziga xos qirralari namoyon bo‘ladi. Demak, ushbu sohaning yangi qirralarni kashf etish mumkin, biroq mutlaqo bir xil yagona modelni ishlab chiqish uchun vaqt va uzoq izlanishlar zarur.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning ustuvor tamoyillaridan biri bo‘lgan antropotsentrizmni tilshunos E.S. Kubryakova quyidagicha takidlaydi, “Ilmiy tadqiqotning barcha nazariy asoslarida odamni birinchi o‘ringa qo‘yish tendensiyasi va uning o‘ziga xos istiqbolini belgilaydi” deb hisoblaydi, ya’ni inson faqat ma’lum hodisalarni tahlil qilishda ishtirok etmaydi, balki “ushbu tahlilning istiqbollari va uning yakuniy maqsadlarini belgilaydi⁴. Zamonaviy tilshunoslikda inson omilini ijtimoiy faoliyatni lingvistik tahlil qilish markaziga qo‘yadigan antropotsentrik paradigma ko‘pchilik tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Antropotsentrik gipotezaga muvofiq, tadqiqot kommunikativ lingvistika, lingvopragmatika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya va etnolingvistika yuzasidan yana bir qancha savollarni ko‘rib chiqadi. Har qanday muammoni tahlil qilishni terminologiyadan boshlash odatiy holdir. Antropotsentrik paradigmada diskurs muhim tarkibiy qismlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, avvalo, an’anaviy tilshunoslikda diskurs terminiga berilgan ta’riflarga diqqat qaratish lozim.

Diskurs inson nutqi, nutqigacha va undan keyingi vaziyat, kommunikativ maqsad va uni yuzaga chiqaruvchi omillarni tahlil etar

⁴ Кубрякова Е. С. Понятие «парадигма» в лингвистике: Введение // Парадигмы научного знания в современной лингвистике. Сб. н. тр. – М.: ИНИОН РАН, 2006. – С. 4 – 14

ekan, bunda inson omili birlamchi rol o‘ynaydi. Bu esa antropotsentrik yondashuv asosida inson kognitiv faoliyatini tadqiq qilish zarurati borligini ko‘rsatadi. Xalqaro diskurs so‘zi fransuz tilidan olingan. V.G.Gak va K.A.Ganshinalarning fransuzcha-ruscha lug‘atida diskurs atamasining quyidagi ma’nolari alohida ta’kidlab o‘tilgan:

- 1) nutq, so‘zlarning qo‘llanilishi;
- 2) nutq (lingu), masalan, bevosita nutq;
- 3) risola, mulohaza; masalan, R.Dekart metodi bo‘yicha diskurs;
- 4) fikrlash uslubi, tushunchalar tizimi.

Zamonaviy tilshunoslikda diskursning quyidagicha izohlari mavjud:

- 1) matn;
- 2) matn, dialog yoki muloqot mavzusi;
- 3) dialog yoki polilog;
- 4) nutqiy harakatlar majmui, nutqiy vaziyat⁵.

Bunday xilma-xil talqinlar bilan diskurs nazariyasini matnning butun nazariyasining ajralmas qismi sifatida kiritish mumkin. Odatda, "diskurs" va "matn" tushunchalari kesishgan deb hisoblanadi. Jukovskiy diskurs haqida to‘xtalar ekan, uning quyidagi turlarini sanab o‘tadi:

- mavzusiga ko‘ra – ta’lim, tibbiy, diniy, musiqiy va boshqalar;
- tarqatish manbasi yoki sohasi – hokimiyat diskursi, yoshlar diskursi, internet diskursi, va boshqalar;
- maqsadlar – ta’lim, tadqiqot, manipulyativ, fatik va boshqalar;
- uslub – istehzoli, yuksak, poetik, dramatik va boshqalar;

⁵ Декарт Р. Сочинения: В 2-х т. Т. 1. – М.: Мысль, 1989. С. 82 – 83

- daraja – professional va o‘rta darajadagi⁶.

M. Stubbs diskursning uchta asosiy xususiyatiga e‘tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi:

- gap va gapdan yuqori birlik;

- nutqning semantik mazmuniga ko‘ra, ijtimoiy-madaniy kontekstni tahlil qilish;

- interfaol dialogik tuzilish nutqning eng muhim belgisidir⁷.

Kommunikativ nuqtayi nazardan diskursni tahlil qilish muammosi muloqotning lingvistik va tildan tashqari omillarini o‘rganishni talab qiladi. Til omillariga til va nutq xususiyatlari, grammatik paradigmlar, matndagi semantik va sintaktik munosabatlarga nisbatan til iyerarxiyasining barcha darajalariga tegishli til birliklarining tanlanishi va joylashishi kiradi. Xuddi shu tarzda, tildan tashqari omillar murojaat qiluvchi va qabul qiluvchining shaxsiyatini, muloqotning maqsad va vazifalarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy vaziyatni oldindan taxmin qilish, mavzuga doir asosiy bilimlar va madaniy kontekstning roli ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. diskursga kommunikativ yondashuv masalasi doirasida quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim deb hisoblanadi:

➤ Diskurs o‘zaro kommunikativ harakatning dinamik modeli sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

➤ Ijtimoiy-madaniy kontekstga muvofiq real kommunikativ vaziyatga bog‘liq holarni ta‘riflashi zarur.

⁶ Жукова Г.К. Репрезентация национального в европейском музыкальном дискурсе: Автореф. дисс. ...канд. филос. наук. СПб., 2011. 16 с.

⁷ Stubbs, M. (1983). Discourse analysis: The sociolinguistic analysis of natural language. V. 4. University of Chicago Press.

➤ Diskursni ham matn ishlab chiqarish jarayoni, ham matnni idrok etish jarayoniga murojaat qiluvchi va qabul qiluvchi omillari bilan bogʻliq holda oʻrganish kerak.

➤ Diskursni tahlil qilish kommunikativ akt ishtirokchilari oʻrtasidagi kommunikativ postulatlar va tamoyillarga bogʻliq munosabatlarni hisobga olgan holda oʻtkazilishi kerak.

Nutqni jarayon sifatida oʻrganish faqat muloqot soʻzlovchi va tinglovchi orasida oʻzaro diskurs (fikir almashish), savolga yarasha javob berish - holatidagina tadqiq etilishi mumkin. Shu bois XX asrning oxirlarida tilshunoslikning yangi bir tarmogʻi - diskursologiya nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida shakllandi. Tadqiqotchilar nutq sathining maksimal birligi masalasida abzatsni alohida birlik sifatida ajratishga shubha bildirishadi. Chunki abzatsning shakllanishi, koʻpincha, subʻektiv, muallifning uslubi, grafik qoidalar bilan bogʻliqdir. Bizningcha, bunday birlik darajasiga faqatgina diskurs koʻtarilishi mumkin.

Diskurs bajarayotgan kommunikativ vazifasi jihatdan tizimlashgan va muloqot vaziyatiga moslashgan nutqiy qurilmadir. Shakl va vazifa jihatidan muvofiqlashuv diskursni boshqa birliklardan farqlash imkonini beradi. Shuni yodda tutish zarurki, diskurs nazariyasi endigina rivojlanib va taraqqiy etib kelayotgan tilshunoslikning bir tarmogʻi boʻlib, tahlil yoʻnalishida umumlingvistik metodlarni qoʻllash imkoniyatlarini izlab topish ehtiyoji mevjudligini koʻrsatadi. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan tilshunoslarning mulohazalari oʻrinlidir. Diskurs orqali matn hosil qilish muallifning niyati taʼsiri ostida sodir boʻladi. Birinchisi diskursning oʻziga, uning

turiga, janriga, bajaradigan vazifalariga qaratilgan. Ikkinchisi butunlay muallifning modalligi bilan bog‘liq, chunki har qanday xabar yoki ma’lumotni, balki muallifning xabar qilinayotgan ma’lumotlarga munosabatini ham o‘z ichiga oladi⁸. Adabiy diskursdagi kommunikativ-pragmatik vaziyatni quyidagi mezonlar asosida tahlil qilish mumkin:

- ✓ kommunikativ harakatning holatlari va joylari;
- ✓ muloqot mavzusi va maqsadi;
- ✓ muloqot qiluvchilarning ijtimoiy, etnik, individual xususiyatlari;
- ✓ muloqotchilar o‘rtasidagi rol va shaxsiy munosabatlar.

Adabiy nutqqa pragmatik yondashuvda muloqotning ikki komponenti - ta'sir va idrok muhim rol o‘ynaydi, chunki ular aloqaning yaxlit jarayonini tashkil qiladi. Muammolarning ta'siri va idrokini tahlil qilish pragmatik maqsad tushunchasi bilan bog‘liq. D.U.Ashurovaning fikricha, pragmatik niyatlarning olti turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- “diqqatni jalb qilish” pragmatik niyati;
 - “o‘quvchini qiziqtirish” pragmatik niyati;
 - “hissiy ta’sir ko‘rsatish” pragmatik niyati;
 - “bilim tuzilmalarini faollashtirish” pragmatik niyati
- (konseptual ma’lumotlar bilan bog‘liq);
- pragmatik niyat “adresatning ijodini rag‘batlantirish”;
 - “dunyoning konseptual rasmini aks ettirish” pragmatik niyati⁹.

⁸ Usmonova D. Anthropocentric model of discourse // Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice. Т. 5. №8. 2019 DOI: 10.33619/2414-2948/45.

⁹ Ashurova, D. U. Text linguistics. Tashkent, Tafakkur qanoti – 2012.

Ilmiy adabiyotlarga tayanib, shuni ta'kidlash joizki, diskurs (va matn)ni ifoda xususiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratib, tasniflash mumkin:

1) **axborot uzatish kanali orqali:** og'zaki va yozma, aqliy, internet diskurs;¹⁰

2) **axborot tashuvchining turlari bo'yicha:** radioeshittirish, bosma diskurs, telefon suhbat, peyjer va avtomatik javob berish mashinasi yordamida muloqot, elektron pochta yozishmalari, suhbat (yoki chat) rejimida aloqa;¹¹

3) **janr xususiyatlariga ko'ra**¹²

4) **semantik mazmuniga ko'ra:** tavsiflovchi, bayon (rivoyat), ifloslangan, mulohaza yurituvchi;¹³

5) **aloqa sohasi va muhiti bo'yicha:** maishiy, ilmiy, siyosiy, biznes, kitobiy, so'zlashuv, ommaviy-kommunikativ¹⁴;

6) **ifodalash usuliga ko'ra:** og'zaki, paralingvistik vositalar qo'llanilmagan holda ifodalangan; shu jumladan, lingvistik, paralingvistik vositalardan tashqari, kreollashtirilgan matnlar (semiotik jihatdan murakkab, ikonik komponent bilan)¹⁵;

7) **sotsiolingvistik yondashuvga ko'ra** (kim gapiradi) (yoki muayyan faoliyat bilan bog'liqlik asosida): siyosiy nutq, ishbilarmonlik

¹⁰ Кибрик А.А. Анализ дискурса в когнитивной перспективе: Дисс. ...д-ра филол. наук. М., 2003. 90 с.

¹¹Тюрин С.Ю. Дискурс как объект лингвистического исследования. URL: http://vfnglu.wladimir.ru/Rus/NetMag/v3_v3ar11.html.

¹² Карасик В.И. Языковые ключи. М.: Гнозис, 2009. 406 с.

¹³ Григорьева В.С. Проблемы теории и интерпретации текста. Тамбов: ТГПИ, 1987. 120 с.

¹⁴ Валгина Н.С. Теория текста. М.: Логос, 2003. 173 с.

¹⁵ Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация (на материале креолизованных текстов). – М.: Академия, 2003. 128 с.

nutqi, ommaviy axborot nutqi, reklama, diniy, sud, ilmiy, pedagogik (didaktik, ta'lim), diplomatik, tibbiy, kompyuter (elektron, virtual)¹⁶;

8) **pragmatik yondashuvga ko'ra** (ular aytganidek): hajviy (hazil), marosim, izoterik; nafrat nutqi, "pastga tushirish" nutqi¹⁷;

9) **tematik mezon bo'yicha**: iqtisodiy, axloqiy, ekologik, ertak, bashoratli, avtobiografik, terroristik, irqchilik, ksenofobik¹⁸;

10) **mavzu uslubiga (nutq portretiga) ko'ra**: boshqaruvchi, siyosiy lider, intellektual uslubi¹⁹;

11) **milliy-lingvomadaniy parametrغا ko'ra**: o'zbek milliy diskursi, ingliz n diskurs, ispan diskursi va boshqalar²⁰;

12) **dunyoni ko'rish va voqelikni tartibga solish uslubiga ko'ra**: subyekt nutqi (masalan, G. Yavlinskiy nutqi) va obyekt nutqi (masalan, siyosiy nutq)²¹;

13) **yaratilish xususiyatiga ko'ra**: birlamchi – "tadqiqot jarayoni bilan bog'liq; ularning ma'nolari individual va yopiq, tasvirlarning aloqalari assotsiativ, uslubi individual, masalan, Masih aforizmlari, rus xalq qo'shiqlari, sayohat hisobotlari; ikkilamchi – taqdim etish, nashr etish vazifalari bilan belgilanadi, ularning ma'nolari ahamiyati, aniq tushunchani ifodalaydigan, mantiqiy bog'lanishlar, uslubiy betaraf so'zlardan tuzilgan²²;

¹⁶ Карасик В.И. Языковые ключи. – М.: Гнозис, 2009. 406 с

¹⁷ Касавин И.Т. Миграция. Креативность. Текст. Проблемы неклассической теории познания. – СПб.: РХТИ, 1998. 408 с.

¹⁸ Карасик В.И. Языковые ключи. – М.: Гнозис, 2009. 406 с.

¹⁹ Крысин Л.П. Современный русский интеллигент: попытка речевого портрета // Русский язык в научном освещении. 2001. № 1. С. 90-106.

²⁰ Ревзина О.Г. Дискурс и дискурсивные формации // Критика семиотики. Вып. 8. – Новосибирск, 2005. – С. 66-78

²¹ Михалёва О.Л. Дискурс объекта vs дискурс субъекта: системообразующие признаки // Системное и асистемное в языке и речи. – Иркутск: Иркутский гос. ун-т, 2007. – С. 17-33.

²² Касавин И.Т. Миграция. Креативность. Текст. Проблемы неклассической теории познания. – СПб.: РХТИ, 1998. 408 с

14) **nutq aktining tuzilishiga ko‘ra:** dialogik, monolog²³;

15) **ifodalangan niyat nuqtayi nazaridan:** ma’lumot (dialog-intervyu, e’lon qilish), sharhlovchi (o‘z-o‘zini taqdim etish nutqi), instrumental (direktiv, bahslashuvchi, ishontirish), affiliativ (muloqotchilarning o‘zaro ta’sirining hissiy-affektiv tabiati), bir-birini to‘ldiruvchi (muloqotchilardan birida ma’lumot yetishmasligi bilan tavsiflanadi), kompetensiya (muloqot sheriklarining fikrlari, bilimlari, intilishlari raqobati bilan bog‘liq), muvofiqlashtiruvchi (aloqachilarning perlokatsion effektga erishish uchun harakatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq);

16) **sotsiolingvistik prinsipga ko‘ra:** shaxsiyatga yo‘naltirilgan (muloqot ishtirokchilari bir-birlariga o‘z ichki dunyosini ochib berishi va bir-birlarini shaxs sifatida qabul qilishi), kundalik va ekzistensial (badiiy va falsafiy nutq), aloqa va maqom -yo‘naltirilgan (bir-birini jamiyatning ma’lum bir guruhi vakillari sifatida bir sifatda idrok etuvchi odamlar o‘rtasida sodir bo‘ladi), institutsional nutq (siyosiy, pedagogik, diniy va boshqalar);

17) **kommunikativ ohang jihatidan:** jiddiy va kulgili, tantanali marosim va odatiy, ma’lumotli va maftunkor, ma’lumotli va fatik²⁴;

18) **davomiyligi jihatidan:** kundan kunga “so‘zlanadigan” va almashinadigan diskurslar, ular ifodalangan akt bilan yo‘qolib ketadigan nutqlar” va “ma’lum miqdordagi yangi nutq harakatlarining asosidagi diskurslar”²⁵;

²³ Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий: Синхронно-сопоставительный очерк. – Свердловск: Уральский ун-т, 1990. 172 с.

²⁴ Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 279 с.

²⁵ Фуко М. Воля к истине: по ту сторону знания, власти и сексуальности. – М.: Касталь, 1996. 448 с.

19) **ogʻzaki muloqotning aspektlari boʻyicha:** muqaddas, utilitar, badiiy, ovozli ommaviy aloqadagi matnlar;

20) **vazifasiga koʻra:** meʼyoriy, kontaktli, guruhli, sheʼriy, oʻz-oʻzini ifodalash dominantlari bilan, motivatsiya ustunligi bilan, maxsus maʼlumotlar ustunligi bilan.

21) **psixologik mezonlarga koʻra:** yorqin, faol, oddiy (shafqatsiz), quvnoq, chiroyli, charchagan, gʻamgin, murakkab, aralash.

b) **axborot uzatish shakliga koʻra:** yozma, ogʻzaki janrlar;

v) tashqi shaklda: monolog, dialogik janrlar;

d) maydon tuzilmasidagi oʻrni boʻyicha: prototip, marginal janrlar;

e) ifoda yoʻli bilan: ogʻzaki, paralingvistik jihatdan murakkab janrlar.

Tildagi antropotsentrizm inson idrokining til orqali ifodalanishi, olamni idrok etishning hissiy, aqliy, pragmatik va boshqa usullarini aks ettirishi mumkin. Muayyan diskursning birinchi tahlillaridan biri fransuz-shveytsariyalik tilshunos Patrik Serio tomonidan amalga oshirilgan. U bu konsepsiyaga xuddi shunday taʼrif bergan: “Muloqot soʻzlashuvning ijtimoiy yoki mafkuraviy jihatdan cheklangan turidir”. Serio nutqning sakkizta xususiyatini sanab oʻtadi:

1) har qanday aniq bayonot;

2) soʻz birikmasidan kengroq tushunchani ifodalaydigan nutq birligi;

3) kontekstni hisobga olgan holda murojaatning adresatga taʼsiri;

4) gapning bir turi sifatidagi suhbat;

- 5) soʻzlovchi nuqtayi nazarini ifodalaydigan nutq;
- 6) nutq birliklaridan foydalanish va nutq aktualizatsiyasi;
- 7) mafkuraviy jihatdan cheklangan bayon turi²⁶.

Yuqorida T. I. Krasnova tomonidan ilmiy ishlarda qoʻllanish chastotasi asosida aniqlangan umumiy belgilarga koʻra guruhlangan nutq turlari keltirilgan. Muallif taʼkidlaganidek, bu terminologik birikmalarda “diskurs” soʻzi toʻlaqonli sinonim sifatida ilgari qoʻllanilgan “uslub”, “diskurs” yoki “til” tushunchalari bilan maʼnodoshlik hosil qiladi. Olimning taʼkidlashicha, diskurs quyidagi xususiyatlarga koʻra guruhlanadi:

✓ foydalanish sohasi yoki joyi boʻyicha: rasmiy diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, media diskurs, internet diskurs, iqtisodiy diskurs, diniy diskurs, reklama diskursi va boshqalar;

✓ subyektiv: publitsistik diskurs, oʻquvchi diskursi, koʻngilli diskurs, sportchilar diskursi, muxlislar diskursi va boshqalar;

✓ obyektiv asosda: urush diskursi, qishloq diskursi, shahar diskursi va boshqalar;

✓ teleologik asosda (maqsadga qarab): tashviqot diskursi, mafkuraviy diskurs, oʻqitish diskursi, nutqni aniqlash va boshqalar;

✓ modal-baholash asosida: ijobiy diskurs, radikal diskurs, moʻtadil diskurs, siyosiy neytral diskurs, tanqidiy diskurs va boshqalar.

Shunday qilib, diskurs tipologiyasi muammosi diskurs janrlarini tasniflash muammosidan kam ahamiyatga ega emas, chunki tadqiqotchilar diskurs nimani anglatishini va nutqlarning qaysi turlarini ajratish yoki tasniflash mumkinligi haqida umumiy fikrga ega emaslar.

²⁶ Серно, Патрик 2001. Структура и целостность: об интеллектуальных истоках структурализма в Центральной и Восточной Европе: 1920-30-е гг. – Москва: Языки славянской культуры.

Yuqorida keltirilgan tasniflardan ham ko‘rish mumkinki, antropotsentrik paradigmadagi diskurs murakkab va serqirra ma‘no munosabatni ifodalab keladi. Ushbu tasnifni mutlaqo to‘liq deb bo‘lmaydi. Tadqiqotlarda o‘rganilgan ilmiy manbalarga tayanib diskurs tushunchasini ifodalovchi quyidagi ko‘rinishlarni qayd etishimiz mumkin:

- 1) sub‘ektiv;
- 2) ijtimoiy-madaniy;
- 3) stereotip;
- 4) preedent (namunali) fikrlar;
- 5) monolog;
- 6) dialog.

Jamiyat rivojlanib borar ekan, turli muloqot maydonlari yuzaga kelishi tabiiy va bu diskursning yangi tasniflarini ajratish va ularni tahlil qilish zaruratini paydo qiladi. Demak, antropotsentrik tilshunoslikda diskurs nutqiy vaziyatda inson omili masalasini tadqiq qilishga yo‘naltiradi. Insonning nutqiy vaziyatda qay darajada ishtirok etishi, nutqining o‘zgarishi va bunga ta‘sir etuvchi omillar xilma-xilligi diskursning janriy bo‘linishlarida muayyan o‘zgarishlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

§ 1.2. Dramatik diskurs va uning lingvopragmatik xususiyatlari

Ma‘lumki, har qanday nutqiy ifoda milliy an‘analar, til, tarix, adabiyotni o‘z ichiga olgan holda shakllangan bo‘ladi va o‘ziga xos pragmatikaga ega. Xalqaro iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar tilni pragmatikaning aks ettirish vositasi sifatida talqin qilinishiga olib keldi.

Til va pragmatika o‘rtasidagi determinizm, ya’ni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligi muhim masaladir. Shuning uchun turli mamlakatlar olimlari til va pragmatika masalasini turli yo‘nalishlarda o‘rganishlari tabiiy. Bu muammoni taniqli tilshunos olimlar (Yu.Sorokin, V.Teliya, A.Veybitskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Cheyms va boshqalar)²⁷ va faylasuflar (G.Brutyayn, E.Markaryan va boshqalar), psixologlar (L.Vygotskiy, A.Leontyev, V.Petrenko, P.Gulviste) o‘z tadqiqotlarida atroflicha o‘rganishgan. Bu masala nutq pragmatikasiga oid tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. (Yu.Skvortsov, E.Begmatov, A.Mamatov, B.O‘rinboev va boshqalar). Keyingi yillarda tilshunoslikning alohida tadqiqot sohasi sifatida rivojlanishi (A.Krasnix, V.Maslova, D.Gudkov, D.Ashurova) bu masalaning dolzarbligini ko‘rsatib berdi²⁸.

Globalashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi pragmatikalararo aloqalar sonining doimiy o‘shishiga olib keladi. Turli pragmatika vakillarining muvaffaqiyatli hamkorligiga hissa qo‘shish, tushunmovchilik sabablarini aniqlash va bartaraf etish va pragmatikalararo muloqot paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bunday takliflar ilmiy bilimlarni gumanistik nuqtayi nazardan umumiy tendensiyasi, fanning “antropotsentrik” xususiyatga ega

²⁷ Сорокин Ю. С. Общие принципы словаря. Хронологические границы описания. Источники словаря. Состав словника. (Гл. 1). Характеристика речевой употребительности слова и ее изменений. (Гл. VII) // Словарь русского языка XVIII в. Проект. – Л.: Наука, 1977. – С. 5–27, 107–122 Телия А. «Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты» (1996).

²⁸ Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: Академия, 1987. – 284 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс/ В.И. Карасик. – Волгоград, 2002. – 477 с. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации/ Д.Б. Гудков. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – 288 с.п.л Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. Хорижий филология. – №3. – Самарканд, 2011. – 32 б.

bo‘lish istagi bilan qo‘llab-quvvatlandi²⁹. Tabiiyki, antropotsentrik paradigmadagi olib borilgan tadqiqotlar ham, ularni tanqidiy baholaydigan asarlar ham paydo bo‘lishi tabiiy bir hol edi. Pragmalingvistik tadqiqotlarning kengayishi sohaning tadqiq obyekti va chegralarining kengayishiga sabab bo‘ldi. Endilikda aytish mumkinki, pragmalingvistika tom ma’nodagi tilshunoslikning eng zarur va dolzarb tarmoqlaridan biridir. Soha rivoji, o‘z navbatida, yangi tadqiq qirralarining yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi.

Tilshunoslarning e’tirof etishicha, pragmalingvistikaga doir tadqiqotlarning lingvokulturologik aspektida o‘rganilishi bo‘yicha eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham oxirgi o‘n yilliklarda pragmalingvistik yondashuvdagi tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va pragmatika haqida quyidagilarni yozadi: “Til va pragmatika deganda, ko‘pincha, “nutq pragmatikasi” muammosi assotsiativ holda nazarda tutilsa-da, bu ikki o‘rindagi pragmatikaning aynan bir xil tushunchani ifodalashini bildirmaydi. Til va pragmatika deganda, odatda til orqali u yoki bu pragmatikani yoki aksincha, pragmatikani o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi pragmatikaning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki

²⁹ Караулов Ю. Н. Понятие языковой личности в трудах В.В. Виноградова // Русский язык: Языковое значение в функциональном и эстетическом аспектах: Виноградовские чтения. – М.: Наука, 1987. С. 91–101.

xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi demakdir. Ma’lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini milliy tilda yorqin ifodasini o‘zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunalar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miqlashgan ko‘rinishlari: arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o‘z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o‘xshatish va metaforalar hamda o‘zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi”³⁰.

Dunyoning pragmatik qiyofasini o‘rganishda lingvopragmatikashunoslar (N.M.Terebixin, V.N.Toporova, G.D.Gachev) bir qancha tasniflarni keltirib o‘tadilar: til umuminsoniy va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan, dunyoning madaniy qiyofasini o‘z ichiga oladi; dunyoning madaniy qiyofasida pragmatikaga xos ma’nolar, madaniy qimmatli dominantlar, pragmatikaning ma’lum turlarini tashkil etuvchi, tilda saqlanib qolgan va qo‘llaniladigan tushunchalar bo‘ladi dunyoning madaniy qiyofasi yagona til pragmatikasi qolipidagi yagona obrazni ifodalamaydi, chunki turli millat vakillari turli qadriyatlarga ega bo‘lishi mumkin; dunyoning madaniy qiyofasi nafaqat individual, balki jamoaviy ongda ham mavjuddir³¹.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga

³⁰Mamadjonova N.M. Lingvokulturologik birliklarning nutqdagi o‘rni. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli 10-sonilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6323272>

³¹ Karasik V.I. Language matrix of culture. – Volgograd, 2012.

ega emas. Uning tarkibiga soʻzlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi oʻzaro munosabatiga bogʻliq masalalar majmuyi kiradi. Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-eʻtiborini tortish, ularga kommunikativ taʻsir qilish, qiziqtirib qoʻyish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalgʻitish, hayajonga solish, toʻlqinlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida soʻzning, soʻz birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ maʼnosini, yaʼni pragmatik maʼnosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi.

Inson tafakkurining oʻzgaruvchanligi va uning aksi sifatida tilning oʻzgaruvchanligi haqida ishonchli dalillar keltirgan rossiyalik olim Xudyakov Platonik-Aristotel modelidan voz kechish va muqobil prototip til modellarini yaratish fikrini keng qoʻllab-quvvatlaydi. Uning fikricha, tilni tahlil qilish, maʼlumotlarni toʻplash va algortmlarni ishlab chiqish kelgusida lingvistik modellarni keng yaratilishiga zamin hozirlaydi³².

Zamonaviy tilshunoslik nutqning turli tomonlarini oʻrganadi. Generativ tilshunoslik matnni modellashtirish jarayonlarini sintaktik va semantik nuqtayi nazardan tavsiflaydi. Semiotika nutqni har qanday turdagi belgilar ketma-ketligi deb hisoblaydi. Kommunikativ tilshunoslik matn ichidagi dialogik tuzilmalarni tahlil qilish bilan shugʻullanadi. Pragmatika nutqni tahlil qilishda nutq nazariyasini qoʻllashning kommunikativ strategiyalari va xususiyatlarini oʻrganadi. Rasmiy lingvistik maktab grammatik vositalarni matndagi jummalarni bogʻlash va maʼlum maʼnolarni ifodalash usullari sifatida oʻrganishni davom ettiradi. Matnlarning tuzilishi va talqini masalalarini chuqur

³² Худяков А.А. Логическое и сублогическое в языке и познании // Филология и культура: Мат-лы IV междунар. науч. конф. 16-18 апреля 2003 года. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2003.

nazariy tadqiq etish tilshunoslarni turli janrdagi matnlarni tahlil qilishga jiddiy e'tibor qaratishlariga sabab bo'ldi. Janr tahlili matnlarning umumiy va individual xususiyatlarini aniqlashga, matnning janrga mansubligiga muvofiq pragmatik funksiyalarini oydinlashtirishga, matnlar tuzilishidagi ichki rasmiy qonuniyatlarni aniqlashga yordam beradi. So'roq gaplar tilshunoslik tadqiqoti obyekt sifatida turli yo'nalishlarda o'rganilib, u fonetik, morfologik, semantik, stilistik, sintaktik xususiyatlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Xususan, dramatik diskursda sotsiopragmatik xususiyatlar til, mentalitet bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. Boshqa janrdagi asarlardan farqli o'laroq, dramalarda kontekst, nutqning unga muvofiq xoslanganligi nafaqat qahramonlar nutqi orqali, balki muallif tomonidan berilgan izohlar (remarkalar) orqali ham namoyon bo'ladi. Dramatik diskursda sotsiopragmatik xususiyatlarni aniqlash imkoni kengroq. O'zbek tilidagi dramalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, personajlar nutqining pragmatik va ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari quyidagi vositalar orqali namoyon bo'ladi.

1. Noverbal komponentlarning faol qo'llanilishi;
2. Maqollar qahramonlar nutqining pragmatik dasturini ifodalashi;
3. Implikatsiya;
4. Ironiya.

Pragmatika nutqni tahlil qilishda nutq aktlari nazariyasini qo'llashning kommunikativ strategiyalari va xususiyatlarini o'rganadi. Rasmiy lingvistik maktab grammatik vositalarni matndagi jummalarni

bog‘lash va ma‘lum ma‘nolarni ifodalash usullari sifatida o‘rganishni davom ettiradi.

Matnlarning tuzilishi va talqini masalalarini chuqur nazariy tadqiq etish tilshunoslarni turli janrdagi matnlarni tahlil qilishga jiddiy e‘tibor qaratishlariga sabab bo‘ldi. Janr tahlili matnlarning umumiy va individual xususiyatlarini aniqlashga, matnning janrga mansubligiga muvofiq pragmatik funksiyalarini oydinlashtirishga, matnlar tuzilishidagi ichki rasmiy qonuniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Ta‘kidlash mumkinki, sotsiolingvistika sotsiologiya bilan uzviy bog‘liq va sotsiolingvistika asosan muloqotga kirishuvchining qat‘iy va barqaror ijtimoiy lisoniy tizimli so‘zlashish usuli bilan bog‘liqdir (masalan, kelib chiqish mintaqasi, ijtimoiy sinf, etnik kelib chiqishi, jinsi, yoshi va h.). Boshqa tomondan, pragmatika asosan nisbatan lingvistik korrelyatsiyalarni tavsiflash bilan bog‘liq. Xuddi shu shaxsning o‘zgaruvchan xususiyatlari (masalan, nisbiy maqom, ijtimoiy roli) va so‘zlovchining o‘z (ijtimoiy) lingvistikasidan qanday foydalanishi muayyan maqsadga erishish uchun nutqiy repertuaridan foydalanishi mumkin. Bugungi kunda yaratilayotgan so‘roq gaplar tadqiqiga oid tadqiqotlar tobora takomillashayotgan texnika asrida, tilning ijtimoiy va amaliy funksiyasidan unumli foydalanish, uni sohalarga keng tatbiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmatika – bu dinamik, o‘sha jamiyatdagi ma‘ruzachi nima bilan shug‘ullanayotganini o‘sha resurslar, u yoki bu narsalar yo‘lini o‘zgartirish yoki ijtimoiy mavqeni saqlab qolish uchun ulardan qanday foydalanayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy lingvistikaning ba‘zi tarmoqlari va pragmatik yondashuvlari mavjud ijtimoiy konstruktsiyaning

rivojlanishiga javoban o'zgardi (ayniqsa, gender xoslanishiga ko'ra). Lingvistikaning doirasi pragmatika, bu lingvistik aloqani ostensiv xulosaviy aloqa holati sifatida ko'rib chiqadi va so'zlarni ostensiv ogohlantiruvchi sifatida ko'radi

Pragmatika inson kognitiv faoliyatining asosini tashkil etadi. Odatda, J.Serl nutqiy harakatlarni guruhlarga ajratishda yettidan ortiq ko'rsatkichlarga amal qilishni tavsiya qiladi, lekin ulardan eng asosiylari illokutiv maqsad, unga erishish uslubi, mazmunning haqqoniylik sharti kabilardir. J.Serl ham nutqiy aktlarni 5 guruhga ajratadi, ammo u taklif qilgan guruhlar O.Ostin tasnifidan mazmun jihatidan farq qiladi:

1. Assertivlar (axborotning rostligini tasdiqlovchi nutqiy harakatlar): *Maqolani yozib tugatdim. Poezd soat 10 da jo'naydi. Jamshid - talaba.*

2. Direktivlar (buyruq, savol, iltimos, ogohlantirish kabi tinglovchini faoliyatga undovchi nutqiy aktlar). *Ertaroq harakat qilmaysizmi? Qaytib kelarmisan yana, yoshligim?*

3. Kommissivlar: ushbu guruhda asosan va'da berish, tahdid qilish singari mazmun ifodalanadi. Searl o'zining tadqiqotida ushbu holatlarni (va'da berish, isbotlash, rad etish, taklif) alohida izohlab o'tadi. Masalan: *Sen aytayotgan hamma gaplar safsata! Men o'zim seni himoyamga olaman.*

4. Deklarativlar: Ushbu turda rasmiy e'lon qilish, ma'lumot berish, bayonot berish mazmunida ifoda etiladi. *Yig'ilishni yopiq deb e'lon qilaman; Sizlarni er va xotin deb e'lon qilaman* kabi voqelikdagi holatning o'zgartirilishi haqidagi nutqiy aktlar.

5. Espressivlar (tabrik, ta'ziya bildirish kabi nutqiy harakatlar).
Men seni qutlayman, aziz birodar.

Ushbu tasnif ham, albatta, ayrim nuqsonlardan xoli emas, lekin J.Serl ajratgan guruhlar nutqiy harakatlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish va istiqbolda tasnif me'yorlarini yanada kengaytirish yo'li bilan guruhlarini aniqlashtirish va tizimlashtirish imkonini beradi. Xuddi shunday kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tasniflardan birini Keyt Allanning «Lisoniy ma'no kitobida uchratish mumkin. Muallif o'z paytida K.Bax va R.Harneshlar taklif qilgan tasnifga tayanib, ikki asosiy sinfni, ya'ni “shaxslararo harakatlar va deklarativ harakatlar sinflarini farqlash lozimligini uqtiradi”³³. Tahlilning keyingi bosqichlarida esa bu sinflar tarkibida guruhlar ajratiladi. Natijada birinchi sinfda (shaxslararo faoliyat aktlari) koistativ (tasdiq, darak berish), prediktiv (taxmin, bashorat qilish), komissiv (va'da, taklif qilmoq), akiolejmeyt (tabrik qilmoq, takalluf, ehtirom kabilar), direktiv (iltimos, savol, buyruq, ta'qib kabilar), avtoritativlar (ijozat bermoq, maslahat bermoq) guruhlarini farqlanadi. Deklarativlar sinfida esa effektiv (uylantirish, lavozimga tayinlash faoliyatlariga oid nutqiy harakatlar) va verdiktiv (hukm chiqarish faoliyatiga oid nutqiy harakatlar) aktlar guruhlarini ajratiladi. Barchaga tanish bo'lgan «Pragmalingvistika» risolasining muallifi J.Lich nutqiy aktlar guruhlarini ajratishda sotsiolingvistik ko'rsatkichlarga tayanib, ularni muloqot jarayonida «xushmuomalalikni ta'minlovchi va shu muhitni

³³ Allan, Keith (1986). Linguistic meaning. London: Routledge & Kegan Paul. ISBN 0-7102-0699-2.

oʻrnatish maqsadi bilan qay yoʻsinda ifodalanishi»ga nisbatan guruhlaydi³⁴. Bu guruhlar quyidagilar:

1) kompitiv (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga mos kelmaydi, masalan, buyruq, savol, talab, iltimos kabi nutqiy harakatlar);

2) konvivial (illokutiv va ijtimoiy maqsad oʻzaro mos, masalan, taklif, qutlov, tabrik, tashakkur izhor qilinishi);

3) kollaborativ (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga befarq; masalan, tasdiq, xabar berish, eʼlon qilish, maʼlumot berish kabi harakatlar);

4) konfliktiv (illokutiv va ijtimoiy maqsadlar, tahdid, ayblov, soʻkish, qargʻish harakatlari).

Rus tilshunosligida I.Susov tomonidan ham nutqiy akt maʼlum guruhlariga boʻlib, tasnif qilingan. Xususan, Susov konstativlar (buyruqlar), komissiyalar (vaʼdalar), ekspressivlar (taʼsir etish faktori), soʻroq mazmunli, bayonot-istak mazmunli nutqiy akt singari guruhlarini ajratib koʻrsatadi³⁵. Koʻrinadiki, Susov talqinida soʻroq gaplar ham nutqiy aktning alohida gururhi sifatida koʻrsatiladi³⁶. Biroq, markaziy va asosiy tushunchalardan biri sifatida soʻroq xususiyatlariga ega boʻlgan jumlaning oʻz ichiga olgan boshqa tasniflar mavjud. V.G. Gak til anʼanalariga koʻra gaplarni kommunikativ holatiga koʻra (qoʻllashdan maqsad) bayon, soʻroq va ragʻbatga ajratadi. G.Gak tomonidan ajratilgan guruhlar gapning ifoda maqsadiga koʻra turlariga yaqin turadi³⁷. Pochepsov gaplarning pragmatik mazmuni xususida oʻz mulohazalarini bildirib, har qanday gap kommunikativ maqsad bilan

³⁴ Г. Лич, (1983), Принципы прагматики, Лондон: Longman, стр.xiv + 250.

³⁵ Сусов И. П. История языкознания. – М.: Восток-Запад, 2006. – 295 с.

³⁶ Сусов П.И.Лингвистическая прагматика. – Винница, 2009. – 25 с.

³⁷ Гак.Г.М. Теоретическая грамматика французского языка. (тт. 1-2, М., 1979 – 1981; 2-е изд. 2004).

bogʻliqligini taʼkidlaydi hamda bunda soʻroq gaplar orqali kommunikativ maqsad yorqin ifodalanishiga urgʻu berib, soʻroq gaplarni tahdid-soʻroq, bayonot-soʻroq, daʼvat-soʻroq, buyruq-soʻroq singari guruhlarni taklif etadi. Dramatik diskursda pragmatikaning implikasiya, propozitsiya, presupozitsiya singari elementlari faol uchraydi. Bundan tashqari konnotatsiyaning ifodalanishida metaforalarning roli yuqori.

Dramatik diskursda esa pragmatikaga xos bir necha hodisalar yaqqol ifodalanadi. Diskursning boshqa janrlaridan farqli oʻlaroq, dramatik diskurs muallif, qahramon va rol ijrochisi uchligida pragmatik mazmuni ifodalaydi. Ana shu uchlikda asosiy muammo va yechimning umumlashmasi masalaning nozik va jiddiylikni koʻrsatadi. Shu boisdan dramatik diskursning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim. Ayniqsa, suppozitsiya, presupozitsiya, implikasiya singari hodisalar muallifdan ssenariy muallifi, rejissyor va aktyorgacha yetib kelgan orqaliqda asosiy mazmuni saqlab qolish yoki qolmasligi tahlillar orqali aniqlanadi.

“Presupozitsiya” atamasi lotin tiliga borib taqaladi, unga koʻra, propositio, dastlabki bosqichda, hukmni, fikr ifodalanadigan maʼlum bir shaklni bildirgan. Hukm sifatida tushuniladigan taklif haqiqat yoki yolgʻonni ifodalash, voqelik obyektlarida nimanidir tasdiqlash yoki inkor etish xususiyatiga ega. Tilshunoslikda bu atama jumla sifatida (inglizcha, fransuzcha taklif, italyancha proposione), yaʼni bir butun sifatida qabul qilingan tilning qandaydir birligi sifatida ishlatila boshlandi. “ Presupozitsiya” atamasining yangi maʼnosi fan tilini mantiqiy tahlil qilishga doir ishlarda mantiqiy semantika asoschilaridan

biri, fikrni tasdiqlash aktini bir-biridan ajratgan Gottlob Fregening gʻoyalari tufayli shakllana boshladi. Ushbu gʻoyalarni amalga oshirish natijasida zamonaviy taklif tushunchasi fikrning obyektivlashtirilgan mazmuni (diktum, vakillik yoki tasvir, niyat) sifatida shakllangan boʻlib, u bayonotning subyektiv kommunikativ maqsadi bilan birgalikda haqiqat qiymatini ifodalashga qodir. Modus, taklif munosabati yoki munosabat jumlasini maʼnosining haqiqatga (modallikka) bogʻliqligi, soʻzlovchi tomonidan aytilgan fikrning ishonchliligini baholash, nutqning kommunikativ vazifasi va hissiy munosabatni ifodalashi mumkin.

Dramatik diskursda presuppozitsiya soʻroq gaplarda aniqroq koʻrinadi:

Oʻrinboy: *Joyni yana chorpoyaga (supaga) qildinglarmi? Yangi dazmollangan shim bilan qandoq oʻtiramiz?* (Said Ahmad. Kelinlar qoʻzgʻoloni.

1-parda).

Ushbu misolda muallifning maqsadi boʻyicha voqelik presuppozitsiya orqali bayon etilgan. Muallif har doim joyning chorpoyaga solinishi odat ekanligiga “yana” soʻzini kiritish orqali ishora qiladi. Qahramon nutqida esa bu aniq yuzaga chiqadi.

Presuppozitsiyaga bagʻishlangan tadqiqotlarda uni turli guruhlariga ajratish koʻzga tashlanadi:

V.Z.Demyankov xorijiy mualliflarning tadqiqotlariga asoslanib, quyidagi presuppozitsiya tipologiyasini taklif qildi:

- mantiqiy presuppozitsiyalar;
- pragmatik presuppozitsiyalar;

- semantik presuppozitsiyalar³⁸.

Kognitiv-pragmatik nuqtai nazardan, presuppozitsiyalarni situatsion va lingvistik presuppozitsiyalarga bo‘lish mumkin:

Keng (umumiy) ma’noda presuppozitsiya – odamlarning atrofdagi dunyo haqidagi umumiy bilimlari yig‘indisini ifodalaydi. Matnda yetishmayotgan ma’lumotlar hammaga ma’lum bo‘lgan barqaror mavzu munosabatlari asosida osongina tiklanadi. Masalan, “O‘rinboy: Hukumatniki yedirilmaydimi?” jumlasini hech qanday zararsiz “Hukumatniki ham yediriladi” bilan almashtirish mumkin, chunki umumiy pragmatik mazmun bitta maqsadga borib taqaladi.

Tor (xususiy) ma’nodagi presuppozitsiya – so‘zlovchigagina xos bo‘lgan muayyan vaziyat bilan bog‘liq holat. Bunda voqelik faqat so‘zlovchigagina ayon bo‘ladi, asosan monolglar tarzida ifodalanadi.

Lingvistik presuppozitsiya – tilning o‘zida mavjud bo‘lgan bilimlar majmiyidir. V.V. Krasnix lingvistik presuppozitsiyani quyidagi turlari mavjudligini ta’kidlaydi:

1) mikropresuppozitsiya (individual kognitiv makonga mos keladi);

2) ijtimoiy, doimiy presuppozitsiya (kollektiv kognitiv makonga to‘g‘ri keladi);

3) makropresuppozitsiya (kognitiv asosga to‘g‘ri keladi).

Dramatik diskursda mikro va ijtimoiy presuppozitsiya faol ishtirok etadi. Presuppozitsiya, asosan, qahramonlar nutqida faol qo‘llaniladi. Presuppozitsiyaning mohiyatini izohlash maqsadida ayrim o‘rinlarda remarkalar orqali muallif aralashuvini kuzatish mumkin:

³⁸Демьянков В.З. Общая теория интерпретации и её приложение к критическому анализу метаязыка американской лингвистики 1970 – 80-х гг.: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – М., 1985. – 32 с.

***Rahima.** Haliyam chiroyli. Qosh-ko‘zlari yonib turadi. Bu suratning olinganiga kamida ellik yil bo‘lgan chiqar. (Said Ahmad. Kuyov. 2-sahna).*

Ajratib ko‘rsatilgan so‘z orqali presuppozitsiya yuzaga chiqqanini kuzatish mumkin. Ya’ni, avval ham chiroyli bo‘lgan mazmuniga ishora mavjud.

***Rumour:** Rumour is a pipe / blown by surmises, jealousies, conjectures, / And of so easy and so plain a stop / that the still – discordant wavering multitude. (William Shakespeare, The Second Part of King Henry IV).*

Ushbu misolda esa “still-discordant” birikmasi orqali presuppozitsiya hodisasi yuzaga chiqmoqda. Muallif shu orqali oldingi voqelikka ham bevosita ishora qiladi.

Demak, dramatik diskurs muallif, rejissyor, rol ijrochisi uchligida voqelanadigan murakkab hodisa. Dramatik diskursning pragmatik xususiyatlari tahlilida har uchala omil e’tiborga olinishi va asosiy kommunikativ maqsadni aniqlash zarur. Tahlilga tortilgan dramalarda, asosan, presuppozitsiyaning bir necha ko‘rinishlari va metaforik mazmunda konnotatsiyaning salmog‘i yuqori ekanligini kuzatish mumkin.

§.1.3. Dramatik diskursning semantik va sintaktik qurilishi

Dramatik diskursning asosiy ishtirokchisi voqea (epik asarlardagidek) yoki lirik qahramon ham emas (lirikadagidek), balki shaxsdir. Dramatik diskursdagi har bir voqea-hodisada, fabulada, syujetda inson shaxsining hukmronligi sezilib turmog‘i lozim. Shu

boisdan keyingi vaqtlarda antropotsentrik tadqiqotlarda dramatik diskursga tez-tez murojaat qilish hollarini kuzatish mumkin.

Davrlar o'tishi bilan dramaga, uning yetakchi tamoyillariga, ilmiy-nazariy muammolariga munosabatlar yangilana bordi, mazmun va shakldagi, ifoda va izhordagi o'zgarishlar muqarrarlashdi. Aristoteldan so'ng dramaga oid nazariy qarashlarni yangi bosqichga ko'targan Goratsiy badiiy tasvirning real haqiqatga to'la muvofiq kelishiga alohida e'tibor qaratdi. Chunonchi, har bir xarakterning yoshiga munosib xatti-harakati mavjudligini ta'kidlar ekan, fe'l-atvorda, yurish-turishda yosh bola bilan o'smirning, o'smir bilan yigit kishining, yigit bilan keksa kishining bir-biridan ajratib turuvchi tabiiy mayllarini asoslab beradi. Goratsiy tasvirda voqelikni ichki sabablar bilan rivojlantirish, konflikt rivojiga tashqi kuchlarni aralashtirmaslik zarurligini ta'kidlaydi.

Yevropa uyg'onish davri adabiyotshunosligida drama san'ati nazariyasiga doir izlanishlar yangi davrga qadam qo'ydi. Bu sohada Lope de Vega, Kornel, Didro, Shiller, Gyote, Lessing kabi faylasuf ijodkorlarning xizmatlari beqiyos. Tadqiqot davomida bu ijodkorlarning asarlarining barchasiga sharh berish yo drama nazariyasi tarixini yoritish da'vosini qila olmaymiz. Maqsadimiz: o'zbek dramaturgiyasida inson talqini muammosini yoritish uchun mazkur janr tarixi, nazariyasiga qisqa sayohat uyushtirishdan iborat.

XVIII asrgacha insonni talqin etishda fojaviylik (tragediya) va kulgili (komediya) holatlar asosiy o'rin tutgan bo'lsa, keyinchalik dramaturglar, teatr nazariyotchilari "oraliq" janr, ya'ni drama haqida o'z g'oyalarini ilgari sura boshladilar. "Har bir axloqiy voqeada oraliq

holat va bir-biriga zid ikki qutb ajralib turadi. “Komediya va tragediya bizda bor, – deb yozadi D.Didro, – lekin inson hamma vaqt ham xursand va g‘amgin bo‘lavermaydi. Binobarin, komik va tragik janrlarni ajratib turuvchi qandaydir oraliq masofa mavjuddir”³⁹. Mana shu masofa Didro konsepsiyasi bo‘yicha to‘ldirilishi lozim.

Aytish joizki, avvalgi tadqiqotlarda, asosan, bir davr bir ijtimoiy yo‘nalish va bir janrga mansub asarlar tahlilga tortilgan. Tragik va komdik asarlar ularning semantikasi, pragmatikasidagi farqlar va o‘ziga xosliklar qiyosiy aspektda tahlil qilinmagan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, muayyan o‘xshatish, maqol, matal yoki biror mavzu doirasidagi mulohaza dramaturgiyaning ikki yo‘nalishida qanday voqelanishini prizmadan o‘tkazish yangi ilmiy xulosalar chiqarishga, diskurs tahlilida yangicha yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Dramaning yaratilish sabablari va uning spetsifikasini anglashga bo‘lgan intilish XVIII asrdayoq sezilgan edi va bu boradagi dastlabki mushohadalar Didro, Shiller nomlari bilan bog‘liq. Ayni shu harakatlardan so‘ng dramaturgiyada real insonni butun murakkabligi bilan talqin etish, uni muayyan bir ideyaning yalovbardori sifatida tasvirlash tamoyili kuchaydi. Dramaturgiyada mifologik kuchlar, ilohiy obrazlar – xudo, yarim xudo, ma’budlar, afsonaviy qahramonlar, aql bovar qilmas qahramonliklar qiluvchi pahlavonlar obrazi o‘rnini asta-sekinlik bilan inson obrazi egallay boshladi.

Muayyan bir davrda janrlar o‘zgarar ekan, bu o‘sha davr kishisining voqelikka munosabati o‘zgarganligini bildiradi. Shiller va

³⁹Аникист А. Теория драмы от Аристотеля до Лессинга. – М., Наука, 1967. – С. 316.

Gyotening zamonaviy dramani qayta qurish haqidagi barcha yozishmalari zahirida shu g‘oya yotadi. Shiller Gyotega yozgan xatida shunday degan edi: “Menga go‘yo sizning ta’siringiz orqali yuqqan qandaydir epik kuch yordam berayotgandek tuyuladi. Lekin bu kuch dramatik jarayonga xalaqit bermasa kerak, deb o‘ylayman”⁴⁰.

Albatta, bu nazariy qarashlar o‘zbek dramaturgiyasi shakllanishida, undagi inson talqinida bevosita rol o‘ynadi, deyish fikridan yiroqdamiz. Biroq milliy dramaturgiyamiz va teatr san’atimiz shakllanishida tatar, ozarbayjon, rus teatr san’atining ta’siri bo‘lganligini inobatga oladigan bo‘lsak, ilk dramanaivlarimiz janrning nazariy qonun-qoidalaridan xabardor bo‘lganliklari ayon bo‘ladi.

Garchi drama nazariyasiga oid qarashlar tarixiga ikki ming yildan oshgan bo‘lsa-da, lekin uning yangi namunalari va umuman drama haqidagi bahs-munozaralar bugun ham davom etmoqda. Misol uchun M.Baxtinning dramatik asarlar haqidagi mulohazalari haqiqatga unchalik ham yaqin emas: “Dramatik asarlar tarixiy taraqqiyot davomida o‘ziga xos qat’iy qoidalar va kanonik xususiyatlarini saqlab qoldilar, – deb yozadi u. – Turli davrdagi oqimlar, yo‘nalishlar janrning o‘zak masalasini, ya’ni qonuniylashgan tarkibini o‘zgartirolmadilar. Aristoteldan keyin bugungi kunimizgacha bu shakllanib bo‘lgan janrlar nazariyasiga aniq bir yangilik va o‘zgarish qo‘shilmadi hisobi”⁴¹. Adabiyotshunos V.Frolov “Судьбы жанров драматургии” asarida XX asrning 80-yillarigacha bo‘lgan dramatik janrlarning jadvalini chizib ko‘rsatadi. Uning fikricha, dramaning sof janrlari sifatida tragediya, komediya, drama, melodrama qayd etiladi. Shundan so‘ng bu

⁴⁰ Шиллер Ф. Собр. сочинения, т. 7. «Письма». – М., Гослитиздат, 1957. – С. 482.

⁴¹ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. С. 482.


janrlarning dramatik tur doirasida yuzaga kelgan ichki shakllariga e'tibor qaratadi.

“Dramatik” va “dramatik” atamalarini farqlash bilan bir qatorda yana ikkita o‘zaro bog‘liq tushunchani – dramatik matn va dramatik nutqni ajratish zarurligini ko‘ramiz. An’anaviy ravishda “og‘zaki (og‘zaki) belgilar ketma-ketligi” deb tushuniladigan matndan farqli o‘laroq, diskurs (fransuzcha discours – nutqdan) “ekstralingvistik – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik omillar bilan birgalikda izchil matn” sifatida namoyon bo‘ladi⁴². Shuningdek, diskurs nutqning paralingvistik xususiyatlari (mimika, imo-ishoralar)ni ham o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi tushunchalarning ikkita umume'tirof etilgan ta'riflarini taqqoslash ular o‘rtasida fundamental farq mavjudligini yaqqol ko‘rsatadi, bu bizning tadqiqotimiz uchun muhim rol o‘ynaydi. Dramatik asarlarda qahramon qiyofasi, xarakteri proza yoki poeziyadagidek muallif hikoyasi, xarakteristikasi, portret tasviri orqali ochilmay, balki qahramonning boshqalar bilan munosabati, o‘z nutqi hamda boshqa personajlarning u haqdagi so‘zlari, fikrlari orqali ochila boradi; boshqacha aytganda, pьesada dialog asarning zanjiri, xarakteri, harakatini yuzaga chiqarish vositasi.

“Diskurs” atamasi G‘arb teatr nazariyasiga F. de Sossyur va boshqa mutafakkirlar orqali kirib keldi, ular teatr matnini tekshirish barobarida bir qator qoidalarni ilgari surdilar, unga ko‘ra ibora tilga emas, balki nutqqa tegishli. Shunday qilib, A. Ubersfeld dramatik diskursni “teatr asarida yaratilgan lingvistik belgilar majmuasi (ansambli)” deb ta’riflaydi, lekin ushbu ta’rif uning fikricha,

⁴² Feindt, Peter H.; Oels, Angela (2005). “Does discourse matter? Discourse analysis in environmental policy making”. *Journal of Environmental Policy & Planning*. 7 (3): 161–173.

birmuncha noaniq, chunki tor ma'nodagi nutqdan ko'ra teatrlashtirilgan matnning so'z birikmalariga ko'proq taalluqlidir⁴³. Qadimgi pyesalar an'anaviy ravishda birdamlik va birlik tuyg'usini singdirishga qaratilgan bo'lib, bu maqsadga erishish uchun klassik poetik "qonunlar"dan biri uchta birlik g'oyasi edi: syujet birligi, joy birligi va vaqt birligi. Aristotelning "Poetika" asarida faqat syujet birligi haqida aniq dalillar keltirilgan. Jahon dramaturgiyasida dramatik diskurs strukturasi borasida turli qarashlar mavjud. Ulardan eng mashhuri Fregreyt piramidasi nomi bilan mashhur.



1.3.1-rasm. Dramatik diskursning struktur qurilishi bo'yicha Fregreyt piramidasi

⁴³ Ubersfeld A. Lire le théâtre. Paris: Éditions Sociolates, 1977

Dramatik diskursning struktur xususiyatini ana shu piramida orqali ifodalash mumkin. Biroq Fregreyt 5 pardalik dramalar hisobiga piramidani ayni shu tarzda ifodalaydi. Uch sahnali dramalarda esa piramida shaklan o'zgarib, biroq ta'kidlangan jihatlar uch pardaga sig'diriladi. Shuningdek, dramatik diskursning semantikasidagi o'zgarishlar ham strukturasi bilan bevosita bog'liq. Boshlang'ich nuqtada yuzaga kelgan nutqiy vaziyat voqelar kulminatsiyaga borgunga qadar o'zgarib, murakkablashib boradi. Masalan, "Temir xotin" dramasi voqelik konflikt qismi bilan boshlanadi:

QO'CHQOR (uy tomonga). Ho', tirikmisan?... (Tipirchilay-di.) Yechib qo'y darrov, ho'-o'!... Qumri, deyapman, jahlim chiqsa nima bo'lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo'shat! (Bir oz kutib.) Ie, bir balo bo'lganmi bunga?... Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo'limni bo'shatmasang... Ichkaridan Qumri chiqadi. U o'ttiz-o'ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko'rinadi. QUMRI (arazli). Nima qilasiz?

QO'CHQOR. Qo'yvoraman!

QUMRI (xo'rliqi kelib). Nima?...

QO'CHQOR. Pattangni qo'lingga tutqazaman!

Konfliktning boshlanishida.

Qahramonlarning o'zaro konflikti orqali nutqda ko'tarilish ohangi mavjud. Qumrining ketishi, Olimjonning kjelishi va Alomatni tanishtirishi konfliktning boshlanishini ifodalaydi. Bu Fregreyt uchburchagidagi 2-aktga to'g'ri keladi. Alomatga qizil mikroxeaning o'rnatilishi esa kulminatsiya qismini ifodalaydi. Boisi, ayni shu nuqtaga kelib muallifning kommunikativ maqsadi

yorqin ifodalanadi. Kulminatsiyaga kelib qahramonlar nutqi tempidagi o‘shish, direktiv va assertive (J.Searl ta’rifi bilan aytganda) yo‘nalishdagi nutq aktlari faollashadi:

ALOMAT. O‘zingizga bir tashqaridan qarang, qaysi zamonda yashayapsiz? Kimga o‘xshaysiz? Oyog‘ingizga ilib olgan kalishingiz qayerdan chiqqan? Yangiyo‘ldanmi, Toshkentdanmi?

QO‘CHQOR (oyog‘ini tortib). Kalishmas, patinka...

Direktiv nuqt akti to‘g‘ridan to‘g‘ri fikrni yo‘naltirish, implikatsiyasiz fikrni ochiq ifodalashga asoslanadi. Muallif o‘z kommunikativ maqsadiga erishish uchun direktiv nutq aktidan foydalanadi:

ALOMAT. “Paxtakorman” deb ko‘kragingizga mushtlaysiz-u, ko‘rpangizga paxta topolmaysiz! Manavi nima? Shu issiqda kim neylon ko‘ylak kiyadi? Bu dunyoga kelib nima ko‘rdingiz, Qo‘chqor aka? “Ikki marta Toshkentga borganman” deb maqtanasiz, odamlar “Oq dengiz-u Qora dengiz” qilib yurishibdi! “Ha endi, ular boshqacha odamlar-da” deysiz. Qanaqa, boshqacha? Nimasi boshqacha? Nahotki, oddiygina insoniy g‘urur bo‘lmasa?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo‘ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz! (Sharof Boshbekov. “Temir xotin”).

Ingliz dramatik diskursida ham ayni shunday tuzilishni kuzatish mumkin. Tahlilga tortilgan dramalarning barchasida Fregreyt piramidasi bo‘yicha qurilish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, “Hamlet” tragediyasining I aktida voqealar haqidagi asosiy ma’lumotlar o‘rin olgan, shuning uchun ushbu akt asar uchun

ekspozitsiya bo‘lib xizmat qiladi: bosh qahramonlar tanishtiriladi va ziddiyatni taqdim etish orqali o‘yin tomoshabinlarni keyingi harakatlardagi harakatlarga tayyorlaydi. Buni birgina misol yordamida ochib berish mumkin. Daniya shahzodasi Gamletning birinchi pardasida bosh qahramon Gamlet tanishtiriladi va u o‘lgan otasining sharpasi bilan yuzma-yuz keladi, u otasining o‘limiga qirol Klavdiy aybdor ekanligini aytadi. Natijada, Gamlet qasos olish uchun qasam ichadi va voqealar rivoji shu tarzda davom etadi.

Ikkinchi harakat, odatda, asosiy masala bilan bog‘liq keyingi holatlar yoki muammolarni kiritish orqali syujetni rivojlantiradi, asosiy ziddiyat rivojlana boshlaydi va qahramonlar batafsilroq taqdim etiladi. Shunday qilib, Gamlet harakat qilish va uning ko‘rinishga nisbatan shubhalari o‘rtasida ikkilanib turadi. Tomoshabinlar uni introvert va melankolik qahramon sifatida bilishadi. Bundan tashqari, Gamlet o‘z rejalarini qirol dan yashirish uchun "antik kayfiyat"ga kirishishiga majbur bo‘ladi, ya’ni u o‘zini aqldan ozgandek ko‘rsatadi.

Dramatik diskurs nafaqat og‘zaki nutq, balki shartli o‘lchovda, ya’ni imo-ishoralar, yuz ifodalari, harakatlar, kostyumlar, tana, rekvizitlar, manzara orqali ham qahramonlar ruhiyati, ichki olami va ziddiyatlarini aks ettirishga xizmat qiladi.

Nutq og‘zaki harakat sifatida, ritorika darajasida, nutq harakatidir. Dialogsiz dramatik asarni tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, “dramada ishtirok etuvchi shaxslar faqat ana shu shaxslarning nutqlari vositasida, ya’ni tasvir tili bilan emas, sof jonli til vositasida yaratiladi”. Shuningdek, har qanday dialog ham dramatik asarni vujudga keltira olmaydi, balki pьesa uchun xarakterlarning jonli

qiyofasini gavdalantiruvchi, harakatni, shunda ham har qanday harakatni emas, balki to‘qnashuvlar olamidani iborat hayotiy dramatik harakatni vujudga keltira oladigan dramatik dialog tan olinadi. Shunday dialog asosiga qurilgan asargina yetuk dramatik asar darajasiga kotariladi. Monolog – grekcha monos – yakka, logos – so‘z, nutq, ya’ni yakka nutq degan ma’noni anglatadi. Badiiy asardagi personajning o‘z muddaosini, biror muhim masalaga munosabatini, ichki niyatini ifodalash maqsadida personajga, kitobxonga yoki tomoshobinga, ba’zan o‘ziga qarata so‘zlagan nutqiga monolog deyiladi. Monologning ikki turi – ichki va sirtqi ko‘rinishda bo‘lishi adabiyotshunoslikda tan olingan haqiqat. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotlarda monologni yana ayrim turlarga ajratishga intilish hollari ham mavjud. Shu bilan birga, I.N.Chistyuxin, ta’rifiga ko‘ra dramatik diskurs teatrda “gapirish” “harakat qilish” degan ma’noni anglatadi, shuning uchun qahramonlarning nutqi nafaqat ular bajarayotgan harakatni aks ettirishi, balki o‘z-o‘zidan harakat qilishi kerak, ya’ni dramaning bir qismi bo‘lish lozim⁴⁴. Shu bilan birga, bayon personajning individual darajasida ham, jamoaviy darajada ham amalga oshirilishi mumkin va sahna nutqi teatr belgilarining tili, syujet va harakatni quruvchi o‘ziga xos belgilar to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu davr dramasida timsollashtirishning ahamiyati va tilni soddalashtirish tamoyillari ortib borishi bilan “tilsiz teatr umuman yo‘q”⁴⁵ bo‘lsa-da, noverbal tilning roli kuchayadi. Har qanday

⁴⁴ Чистюхин И.Н. О драме и драматургии. – М., 2002.

⁴⁵ Барбой Ю. К теории театра / Ю.К. Барбой. – СПб: «Санкт Петербургская академия театрального искусства», 2008. – 34–240 с.

elementlarning inkor etilishi ko‘pincha keyingi davrda ularning rolini oshirishga olib keladi. “Teatrning ilg‘or bosqichida tilning ma‘noli farqlanishi va boshqa barcha holatlarda bo‘lgani kabi, turli belgilarga ko‘ra aniq bo‘ladi. Teatr semiologiyasi emas, balki teatrning o‘zi til haqida o‘ylashga majbur qiladi”⁴⁶.

Demak, dramatik diskurs, dramatik harakatdagi so‘z muqarrar ma‘no izlanishi, mazmun va uning ko‘rinishi ustida olib boriladigan muqarrar ishdir. "So‘zning “bosqich” tayyorgarligi bilan doimiy aloqasi bilan belgilanadi. Dramatik diskursda nutq ta'sirli va odatda, mimika-imo-ishora-harakat bilan birga keladigan funksiyalari dramatik kompozitsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini va og‘zaki materialning bunday xususiyatlarini tanlashni yaratib, ulardan muntazam foydalanishga olib keldi⁴⁷. Dramatik diskurs tuzilishi va qo‘llanilishi, bir butun sifatida ifodalash usullarini ko‘rib chiqishda dramatik diskurs tili quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Dramatik diskurs personajlar so‘zlari (dialoglar, monologlar, gaplar) orqali amalga oshiriladigan ijro xarakteriga ega.
2. Dramatik diskursning muhim birliklaridan biri bayon yoki replikadir.

Bayonotni tanlash bahsli bo‘lib, replikalarning dialogga birlashishi lingvistik tahlilni murakkablashtiradi, chunki struktura va semantik tarkib yanada murakkablashadi. Dialogni o‘rganishga bag‘ishlangan lingvistik masalalar juda kam yoritilgan. Shunday qilib, I.P. Zaytseva dialog va dialogik birliklarni tadqiq etadi, ularni

⁴⁶Барбой, Ю.К теории театра / Ю.К. Барбой. – СПб: «СанктПетербургская академия театрального искусства», 2008. – 34–240 с.

⁴⁷ Балухатый, С.Д. Проблемы драматургического анализа. Чехов / С.Д. Балухатый. – Л.: Academia, 1927. – 186 с.

tasniflaydi va evolyutsiyasiga alohida e'tibor qaratadi ⁴⁸. Y.V.Borger dramatik matn tarkibidagi salbiy reaksiyaning semantikasi bilan nutq aktini o'z tadqiqotlarining obyekt sifatida tadqiq etishga harakat qiladi. I.A. Tislenkova ishida turli yoshdagi qahramonlarning nutqini yaratish xususiyatlarini, ularning o'ziga xosligi va farqlarini muhokama qiladi. Dramatik matn uchta komponentning birligida amalga oshiriladi: ta'riflash akti (aytish maqsadini ifodalash), joylashish akti (talaffuz qilish jarayoni) va o'zgartirish akti (adresatga ta'sir). Buzilish akti, eng muhimi, dramatik diskursning quyidagi tarkibiy qismlari: sarlavha, subtitr, epigraf, bag'ishlanish, yordamchi matn, personajlar ro'yxati, turli sahna yo'nalishlari, mulohazalar tizimi orqali amalga oshiriladi⁴⁹.

Drama matnida harakatlantiruvchi dramatik konfliktdan tashqari, sahna yo'nalishlari, monologlar va dialoglarda uchratish mumkin bo'lgan hikoya elementlari ham mavjud. Monologlarda og'zaki tavsiflar (tasvirlar) tez-tez uchraydi, ular o'quvchiga qahramon nuqtayi nazari orqali yetkazishga harakat qilinadi Og'zaki tavsiflardan og'zaki bezaklarni ajratish kerak, ular ham hikoya xarakteriga ega va personajlar nutqida uchraydi. N.D.Tamarchenkoning fikricha, dramatik matnning tuzilishi matn ramkasi va imo-ishoralar orqali ifodalangan kuchli kompozitsiyasi bilan boshqa turda yaratilgan matnlardan ajralib turadi. Shu bilan birga, "qo'shimcha matn" (bilbord, eslatmalar, qahramonlar ismlarini belgilash), bir tomondan, asosiy matndan (dialoglar va monologlar) vizual (grafik) ajratiladi, lekin boshqa

⁴⁸ Зайцева, И.П. Современная драматургическая речь: Структура, семантика, стилистика: Дисс. ...д-ра филол. наук: 10.02.01 / Зайцева Ирина Павловна. – Москва, 2002. – 444 с.

⁴⁹Каримова, Д.Х. Уровни анализа проксемического поведения в межличностном общении / Д.Х. Каримова // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. – 2012. – №1. – Том 1. – С. 229–237.

tomondan, uni semantik jihatdan to'ldiradi. Binobarin, lingvistik bog'lanish vositalarisiz dramatik asar matnini tasavvur qilish mumkin emas. Dramatik matnning taqdim etilgan til xususiyatlari dramatik matnning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ammo shuni ta'kidlash joizki, teatrning rivojlanishi bilan muallifning tuzilishi, lingvistik timsoli va niyatlari o'zgaradi. Avangard teatri va ramziy teatrda "ikkinchi muallif" sifatida qabul qilingan rejissyorning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, spektaklning sahna qurilishida transformatsiyaga qiziqish paydo bo'ladi. 20-asr dramasi nutqlar yig'indisi obyektga aylanadi.

II BOB DRAMATIK DISKURSDA METAFORALARNING O‘ZIGA XOSLIGI

2.1-§. Metaforalarning dramatik diskursdagi xoslanishi

Hozirgi kunga kelib metaforizatsiya tobora kuchayib, jadallik bilan kengayib, bilimning turli sohalarini – falsafa, mantiq, psixologiya, psixoanaliz, germenevtika, adabiy tanqid, lingvistika, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, tasviriy san’at nazariyasi, semiotika, ritorika, lingvistik falsafa, turli maktablarni qamrab oldi. Metaforaga qiziqish ilmiy fikrning ushbu sohalarining o‘zaro ta’siriga, ularning mafkuraviy mustahkamlanishiga yordam berdi, buning natijasida inson ongining turli tomonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan kognitiv fan shakllandi. “Bu insonning kognitiv tuzilmalari (idrok, til, fikrlash, xotira, harakat) bitta umumiy vazifa - bilimlarni o‘zlashtirish, qayta ishlash va o‘zgartirish jarayonlarini amalga oshirish doirasida uzviy bog‘langan degan taxminga asoslanadi. Haqiqatda esa u inson aqlining mohiyatini belgilab beradi”⁵⁰.

Metafora borliqni bilish, tilda aks ettirish, nomlash va tasniflashning, nutqni ta’sirchan bayon etish, unga bo‘yoqdorlik baxsh etishning asosiy usullaridan biridir. Metaforizatsiya esa tilda yangi ifoda vositasi hosil qilmasdan turib ham tejamkorlik qonuniyati asosida, borliqdagi narsa va hodisalarning o‘xshashligi va muvofiqligi asosida mavjud so‘z va iboralarga ularning ontologik imkoniyatlari asosida yangi ko‘p qirrali vazifalar va mas’uliyat yuklash demakdir.

⁵⁰ Петров В.В. Язык и логическая теорий: в поисках новой парадигмы. – «Вопросы языкознания», 1988, № 2, с. 41. См. также сб.: Новое в зарубежной лингвистике, вып. XXIII: Когнитивные аспекты языка. М., 1988.

E.Kassirer bilim nazariyasini til, mifologiya, din va san'atda umumlashgan metaforik tafakkurni o'rganish orqali kengaytirdi. Kassirer aqliy faoliyat turlarini birlashtirgan inson ongining yaxlitligi g'oyasidan va ularning genezisi va umumiy tuzilishini birgalikda o'rganish zaruratidan kelib chiqdi. Gnosemik tadqiqotlar, Kassirerning fikricha, bilim shakllarini tahlil qilishdan emas, balki aql kategoriyalariga asoslanmagan holda, dunyo haqidagi insoniy g'oyalarning kelib chiqishining birlamchi, tarixdan oldingi shakllarini izlashdan boshlanishi kerak. Uning fikricha, tilda fikrlashning mantiqiy va mifologik shakllari ifodalanadi. U o'zi juda keng tushungan metaforada dunyo haqidagi mifologik g'oyalarning aksini tahlil qildi. Kassirer bu tushunchaga metonimiya va sinekdoxani ham kiritdi⁵¹.

“Freymlar nazariyasi” muallifi M.Minski ham o'z tadqiqot mavzusi doirasida metaforaga asoslangan analogiyalarni ham o'rganadi. U shunday deb yozadi: “Bunday o'xshatishlar ba'zan bizga obyekt yoki g'oyani xuddi boshqa obyekt yoki g'oya “nurida” ko'rish imkoniyatini beradi, bu esa bir sohada olingan bilim va tajribani boshqa sohadagi muammolarni hal qilishda qo'llash imkonini beradi. Metafora, Minskiyning so'zlariga ko'ra, katta evristik kuchga ega bo'lgan oldindan aytib bo'lmaydigan ramkalararo aloqalarni shakllantirishga yordam beradi. Fikrni uzatish vositasi sifatida metaforaning asosiy roli, ilmiy matn muallifining gipotezasiga ko'ra, “obyektlar”ga o'xshatilgan belgilarni so'zlashuvda majoziy analogiya orqali uzatilgan subyektiv taxminning ma'nosini aniqlashtirishdir”.

⁵¹ 6 Cassirer E. Die Philosophie der Symbolischen Formen. Bd. 1–3. Berlin, 1923-1929.

Unga ko‘ra, taqqoslash tamoyilini amalga oshirish usuliga qarab, metaforaning uch turini ajratish mumkin:

1) tasvirlangan obyekt to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa obyekt bilan taqqoslanadi - taqqoslash metaforasi (“o‘rmon ustunlari”);

2) tasvirlangan obyekt boshqa obyekt bilan almashtiriladi - metaforik topishmoqlar (“boshida ming o‘y tashvishi bor”);

3) tasvirlangan obyektga boshqa obyektning xususiyatlari beriladi (“tili zahar”, “umidi chilparchin bo‘lgan”)⁵².

Metafora amaliy va ilmiy nutqning ko‘plab parametrlariga mos kelmaydi. Biroq u kundalik hayotda ham, fanda ham qo‘llaniladi. Metafora amaliy nutqning ekspressiv-emotsional funksiyasiga mos keladi. Aslida uning boshqa manbasi muhimroqdir: metafora odamning juda xilma-xil shaxslar va obyektlar sinflari o‘rtasidagi o‘xshashlikni qo‘lga kiritish va yaratish qobiliyatiga mos keladi. Bu qobiliyat amaliy va nazariy fikrlashda juda katta rol o‘ynaydi. “Tafakkur va til uchun, – deb yozgan edi V.O.Kvayn, – bizning o‘xshashliklarni aniqlashimiz va o‘rinli qo‘llay olishimizdan ko‘ra muhimroq narsa yo‘q”⁵³, – deb ta’kidlaydi. Uning nazdida epistik kirish asosiy maqsadga yo‘nalish, fikr uchun ochqich vazifasini bajaradi.

Nutq jarayonida metaforalardan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi. Metafora narsa, belgi, harakat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlikka asoslanadi:

⁵² Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного. – В сб.: Новое в зарубежной лингвистике, вып. XXIII, с. 291–292.

⁵³ Quine W. O. Natural kinds. – In: Naming, necessity, and natural kinds. Ithaca – London, 1977, p. 157.

1	narsa	<i>to'nning yoqasi (o'z ma'nosi)</i> <i>daryoning yoqasi (ko'chma ma'no)</i> <i>ko'ylakning etagi (o'z ma'nosi)</i> <i>tog'ning etagi (ko'chma ma'no)</i>
2	belgi	<i>qattiq yong'oq (o'z ma'nosi)</i> <i>qattiq sovuq (ko'chma ma'no)</i> <i>qattiq uyqu (ko'chma ma'no)</i> <i>yumshoq non (o'z ma'nosi)</i> <i>yumshoq ovoz (ko'chma ma'no)</i> <i>Uyi supurilgan, toza. (o'z ma'nosi)</i> <i>Do'stimning qalbi pok, toza. (ko'chma ma'no)</i>
3	harakat	<i>Mungli kuy yurakni <u>tirnar edi.</u></i> <i>Yo'l ochmoq.</i> <i>Otam yetimlarni <u>boshini siladi.</u></i> <i>Bola onasining oldiga tushib <u>pildirab ketdi.</u></i> <i>Do'stlarim bilan <u>qalinlashib ketdim.</u></i>

Metaforaning kognitiv nazariyasining asosiy tezisi quyidagi g'oyaga to'g'ri keladi: metaforizatsiya jarayonlari bilim tuzilmalarini - ramkalar va ssenariylarni qayta ishlash protseduralariga asoslanadi. Kadrlar va ssenariylarda amalga oshiriladigan bilimlar insonning tashqi dunyo bilan ham obyektlar dunyosi, ham jamiyat bilan o'zaro ta'sirining umumlashtirilgan tajribasidir. Til darajasida, xususan, ontologik metafora shaklida aks ettirilgan moddiy dunyo bilan bevosita o'zaro ta'sir qilish tajribasi alohida rol o'ynaydi. Lakoff ta'biricha: "Metaforizatsiya bilimning ikki strukturasi – "manba"ning kognitiv strukturasi (manba sohasi) va "maqsad" (maqsad sohasi) ning kognitiv strukturasi o'zaro ta'siriga asoslanadi. Metaforizatsiya jarayonida maqsadning ba'zi sohalari manba qolipiga ko'ra tuziladi, boshqacha aytganda, "metaforik proyeksiya" (metaforik xaritalash) yoki "kognitiv xaritalash" sodir bo'ladi. Maqsad tuzilishidagi manba tuzilishining

qisman takrorlanishi haqidagi faraz “invariantlik gipotezasi” (Invariance Hypothesis) deb ataladi.

Metaforizatsiya jarayonlarining asosini bilim tuzilmalarini qayta ishlash protseduralari tashkil etganligi sababli metafora, birinchi navbatda, inson tafakkuriga ta'sir qiluvchi kognitiv hodisa bo'lib hisoblanadi. J. Lakoff va M. Jonson o'z kitoblarida yozganidek, “metaforalar mohiyatiga ko'ra tushunishni ta'minlaydigan hodisalardir”⁵⁴.

Metafora qaror qabul qilishning har qanday bosqichiga ta'sir qilishi mumkin, ammo bu muammoli vaziyatni hal qilish uchun ko'plab alternativlarni shakllantirishda muhimdir. Biroz qo'polroq eshitilsa-da, aytishimiz mumkinki, odam faqat ushbu metafora bilan mos keladigan va kommunikativ o'zaro ta'sir sharoitida u ifodalaydigan alternativlarni ko'radi: *tulki, ilon, tog'day g'urur, oyday go'zal, cholday qaqragan va h.k.*

Metaforalar adabiyot, san'at, poeziyada keng ko'lamda o'rganilgan va ularning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarab kelingan. Keyinchalik esa metaforalarning lingvistik tabiatini aniqlashga doir tadqiqotlar ham paydo bo'ldi. Endilikda metaforalarning turli kontekstlarda qo'llanilishi va buning asosiy omillari masalasini oydinlashtirish zarurati pragmalingvistik tadqiqotlarda ham metaforaning roli alohida ekanligini ko'rsatmoqda.

Aytish joizki, metaforalarning nutqda qo'llanilishigacha jarayonda sotsial, etnik, madaniy omillar bunga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Metaforada ma'no ko'chishi turlicha yo'llarda amalga

⁵⁴ Lakoff G. The Invariance Hypothesis: Is Abstract Reason Based on Image – Schemas? // Cognitive Linguistics. 1990. Mb 1. P. 58.

oshadi. Inson a`zolarining nomi boshqa narsalarga ko`chadi. Yer yuzi, kitobning beti, shishaning og`zi, choynakning burni, dutorning qulog`i. Masalan: bosh, yuz so`zlari ko`chma ma`noda qo`llanilishi mumkin. Otam yetimlarning boshini siladi (A. Qahhor). Ushbu gapda bosh so`zi majoziy ma`noda ya`ni boshini silamoq unga yordam bermoq, g`amxo`rlik qilmoq ma`nosida ko`chim turini hosil qilyapti. Ko`chaning boshidan kimdir ko`rinardi. Ushbu misolda esa, bosh so`zi qayerda joylashganligiga ko`ra ko`chma ma`noda qo`llanilyapti. Chunki odamning boshi ham tananing eng yuqori qismida joylashadi, ko`chaning ham eng yuqori qismi uni boshi hisoblanadi.

Inson kiyimlari qismlarining nomi boshqa narsalarga ko`chadi. Tog`ning etagi, daryoning yoqasi, eshikning tugmasi. Masalan: Yo`lchining so`zlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi. (Oybek). Ushbu gapda chol yoqasi bu yerda inson kiyimini yoqasi nazarda tutilganligi uchun o`z ma`nosida qo`llanilyapti. Daryo yoqasidan qo`shin bostirib kelayotgani aniq edi. Ushbu gapda daryo yoqasi ko`chim turini hosil qilyapti. Qush va hayvon a`zolarining nomi boshqa narsalarga ko`chadi. Masalan: Bizning futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar. Varrakning dumi osmonda chiroyli tebranardi. Ushbu gaplarda qanot va dum so`zlari ko`chim turini hosil qilmoqda.

1. Insonlarga qo`yilgan ismlar ham metafora asosida qo`yiladi: Yo`lbars, Bo`riboy, Qoplonbek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Oyxon, Arslon, Bobur, Gilosxon, Charos, Ozoda.

2. Kecha-kunduzga xos narsa-belgi nomlari metafora asosida ko‘chadi: Yorug‘lik, qorong‘u.

3. Fasl nomlari va fazo jismlari: bahor, qish, quyosh, yulduz

4. Hayvon, parranda, hasharot yoki ularning a`zolari: tulki, lochin, dum, qanot

5. O‘simlik yoki uning biror qismining nomi va navi: kampirchopon (qovunnavi), itog‘iz (gul turi), karnaygul (gul turi)

6. Qurol yoki boshqa predmet nomlari: kamon, o‘q, tosh, latta

7. Harorat bildiruvchi so‘zlar: sovuq, issiq, o‘t

8. Tabiat hodisalari: to‘fon, to‘lqin

9. Gullarga, qushlarga va hashoratlarga qo‘yiladigan nomlar ham metafora asosida qo‘yiladi. Masalan: obinovvot (mazasi o‘xshaydi), kampirchopon (tashqi ko‘rinishio‘xshaydi), umriboqiy (uzoq vaqt saqlanishi o‘xshaydi), bo‘rikalla (vazni o‘xshaydi).

10. Belgi bildiruvchi so‘zlar: achchiq, shirin, asal, zahar

11. Qimmatbaho jism nomlari: oltin, kumush

12. Afsonaviy-diniy tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar ham ko‘chirilganda metafora hosil bo‘ladi. azroil, jannat, do‘zax

13. Odamga xos xususiyatlar, harakat-holatlar jonli va jonsiz narsaga ko‘chirilganda ham metafora hosil bo‘ladi: Bulutlar orasidan quyosh kulib qaradi.

14. Jonli va jonsiz narsalarga xos xususiyatlar, harakat va holatlar: Bolalar yopishavergach xaltani ochishga majbur bo‘ldi-da, labini burib vaysay boshladi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, metaforalarning nutqda voqelanish omillarini yagona chegaraga solib bo‘lmaydi. Bunga

birinchidan, nutqiy vaziyatga bog‘liqlik tas‘ir etsa, ikkinchi tarafdin turli etnik qatlamlarga mansublik ham alohida ta‘sir ko‘rsatadi. Biz ushbu ta‘sir faktorlari sirasida voqelanish o‘rniga alohida diqqat qaratmoqchimiz. Voqelik o‘rni nisbiy tushuncha bo‘lib, yuqorida ta‘kidlangan makon tushunchasidan farq qiladi. Bunda biz ta‘kidlagan voqelik o‘rni metaforaning umumiy holatda kontekstda qanday ifodalanishidir.

Dramatik diskursda metaforalar denotativ va konnotativ funktsiya bajarishga xoslanadi. Ushbu funktsiya metaforalarning tor funktsiyasi. Bundan tashqari kommunikativ maqsadni ifodalash, nutqiy vaziyatni jonlantirish, emotsional ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladi. Dramatik diskursda metaforalar tasvirlash obyektini to‘g‘ridan to‘g‘ri (direktiv yo‘nalishda) yoki bilvosita (implikatsion tarzda) ifodalashi mumkin.

1) to‘g‘ridan to‘g‘ri: *ayyor – tulki, eshakday qaysar, do‘zax hayot*. Bu misollarda so‘z-parametr va so‘z-taxmin bir vaqtda sinonimiya va qiyoslash munosabatida (*ayyor – tulki, eshakday qaysar, do‘zax hayot*) ifodalanadi.

2) bilvosita: sharhlovchi qidiruv yo‘nalishini belgilovchi tematik sohani ko‘rsatib: *Qudangiz – tulki* (odamlar orasida kimnidir o‘z xatti-harakati bilan tulkiga qiyoslash).

1-turdagi metaforalarni V.P.Moskvina metafora – taqqoslash, 2-turni metafora-topishmoq deb ataydi⁵⁵. Murakkab metaforik tuzilmalar (sirli metaforalar, taqqoslash yoki taqqoslashga bilvosita ishora

⁵⁵ Москвин В.П. Русская метафора: Семантическая, структурная, функциональная классификация: Учеб. пос. к спец курсу по стилистике. – Волгоград, гос. пед. ун-т, Науч. -исслед. лаб. «Язык и культура». – Волгоград: Перемена, 1997. -91с

qiluvchi ikkilamchi metafora) chuqur tahlil mavzusi bo‘lishi kerak, shu jumladan, sharhlovchi qidiruvning asosi sifatida “joylashtirish tartibi” ham mavjud bo‘lishi lozim. Shunday qilib, V.P.Moskvin, “bozor akulasi” metaforasini tahlil qilar ekan, ushbu “ikkilamchi metafora” ni tahlil qilganda, joylashtirish obyekti so‘z-parametr, ya’ni “akulalar”ni tashkil qiladi.

“Shpionlik shtati”, metaforik komponentida shpion-argument ya’ni asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan rakurs sanaladi. Aynan shu metaforadagi taqqoslash nima ekanligini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, “shpionlik” solishtirma so‘zida ko‘zda tutilgan metaforik fokusning yo‘nalishini tushunmasdan turib, metaforaning asosiy mavzusi – oilada sir-asrorlarni boshqaga yetkazuvchi, hammaning suhbatini poylab yuruvchi “lavozim” mavjud ekanligini anglash qiyin. Lekin haqiqiy metaforik ma’no – “shpionlik shtati” “poyloqchilik yo sir yetkazuvchilik” – metaforaning asosiy va yordamchi subyektlarining motivatsion tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda har tomonlama tahlil qilish orqali aniqlanadi. Demak, majoziy ma’no ham parametr so‘z mazmunidan, ham o‘zaro qiyoslovchi so‘z mazmunidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, ularning rematematik birligi haqida gapirish kerak, uning o‘rnatilishi metaforik nomlarning motivatsion tahlili bo‘lishi mumkin.

V.P.Moskvin konsepsiyasida “taqqoslash jihati” (mavzu, metafora subyektlarining o‘xshashlik sohasini belgilaydigan “zamin”) va ularning “umumiy xususiyati” – “solishtirish” ni aniqlash va

tavsiflashga alohida e'tibor beriladi"⁵⁶. Ayni shu nazariyaga tayangan holda dramatikl diskursda voqelangan metaforalarni quyidagi jadval misolida o'xshatish va o'xshatilmish asoslarini izohlash imkoniyati mavjud.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi jadvalda yana bir ustun paydo bo'lishi mumkin. "Umumiy xususiyat" aslida dominant motivatsion metaforik xususiyatdir hamrohlik qiluvchi motivatsion xususiyatlarning majoziy-semantik to'plamining markazi / yadrosi – metaforik konkretlashtiruvchilar. Ularni tanlash va tavsiflash, yuqorida aytib o'tilganidek, biroz qiyinchilik tug'diradi. Ammo ularning xarakterlovchi kuchi metaforaga o'sha qiymat, badiiy, semantik va lingvomadaniy ma'noni beradi, buning uchun metaforalash harakati amalga oshiriladi. Shunday qilib, yuqoridagi jadval quyidagi shaklga ega bo'lishi mumkin:

Argument (asosiy o'xshatilmish)	O'xsha mish	O'xsha tish asosi	Taqqos lash asosi	Majoziy-semantik / metaforik konkretlashtiruvchi lar
“tulki”	odam	ayyor	xarakter	izlarni yashirish / supurish, tashqi jozibadorlik
“lochin”	odam	o'tkir ko'z	qobiliyat	sergaklik, hamma narsani ilg'ash, ziyraklik

⁵⁶ Москвин В.П. Русская метафора: Семантическая, структурная, функциональная классификация: Учеб. пос. к спец курсу по стилистике / Волгоград, гос. пед. ун-т. Науч.-исслед. лаб. «Язык и культура». – Волгоград: Перемена, 1997. – 91с.

“eshak”	odam	qaysar	xarakter	o‘z aytganidan qolmaydigan, so‘zini o‘tkazadigan
“it”	odam	mijoz (xarakter)	xarakter, sifat	sotqinlik, xoinlik, yaltoqlanish
“qo‘y”	Odam	yuvosh	xarakter	halim, yuvosh

Shunday qilib, metaforizatsiya – bu o‘ziga xos, individuallikka intilish, undagi umumiylikni topish, ochiq, topilgan narsalarni "o‘zlashtirish". Majoziy tushunish, metaforalash - bu dunyoni ifodalovchi lingvomadaniy makonda dunyo va insonning yaxlitligi, birligi uchun kurashda ishtirok etadi.

Dramatik diskursda metaforalarning qo‘llanilish shakli, uslubi: Dramatik diskursda qo‘llangan metaforik komponentlarning konseptual va kontekstual semalari o‘rtasida muayyan tafovut mavjud bo‘ladi. Ingliz dramalaridan farqli o‘laroq o‘zbek dramalarida metaforalarning qo‘llanilish chastotasi yuqori. Bu esa fikrni ifodalashdagi yana bir madaniy belgilardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ba’zi hollarda remarkalarda, aksariyat hollarda esa qahramonlar nutqida faol ishtirok etadi:

Weep I can not, / But my heart bleeds (Makbet) – O‘zi aytmasayam qalbi yig‘laydi dadamning (Kuyov).

For no man well of such a salve can speak, / That heals the wound, and cures not the disgrace, / Nor can thy shame give physic to my grief – Farmon (yelkasiga g‘ildirak tashlab maykachan turgan

Nigorani ko'rsatib). Shu sharmanda bilan til topishamanmi? Ahvolini qara!

Majoziy paradigmalarni, metaforik qatorlarni aniqlash har bir metafora ortida o'ziga xos semantik va lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo'lgan holda turkumning boshqa a'zolari bilan ham bog'langanligini va ularni birlashtiruvchi bu o'zgarmas o'zak metaforik ma'no shakllanishi uchun ma'lum bir yo'nalish belgilashini ko'rish imkonini beradi va uning lingvomadaniy ahamiyatini belgilaydi. Metaforizatsiya yashirin, xavfsiz tarzda yoki og'zaki bayon qilish qiyin bo'lgan mavzularni to'g'ridan-to'g'ri hal qilishga urinishda muzokaralar maydonini yaratadi. Birgalikda metafora ma'no yaratish orqali ma'no izlashdan (Bruner, 1990) fikrning ramziy va mavhum tabiatigacha: konkretan xayolga mavhumlanish jarayoniga qadar inson tafakkurining asosiy jihatlarini ochib berishi mumkin. Metaforani kognitiv, nutqiy fikrlash jarayoni sifatida ko'rib chiqish unda lingvomadaniy integrator roli, kontseptual qisqarish vositasi, mos kelmaydigan lingvomadaniy makonni birlashtirish vositasi sifatida ko'rishga imkon beradi.

2.2-§. Ingliz va o'zbek dramatik diskursidagi metaforalarda gender xosligi

Zamonaviy tilshunoslikda 1950-yillarda sotsiologiyaga kiritilgan "gender" atamasi keng tarqaldi. Jon Money, "jinsiy" atamasidan farqli o'laroq jins - bu odamlarning anatomik va fiziologik xususiyatlari, ular asosida inson erkak va ayol sifatida belgilanadi, gender erkaklar va ayollar o'rtasida biologik farqlarning madaniy, ijtimoiy, xulq-atvor belgisidir. Gender me'yorlari bolalikdan ijtimoiy institutlar (oil,

maktab), ommaviy axborot vositalari va boshqalar orqali o‘zlashtirilib, muayyan xatti-harakatlar modellarini, muloqot taktikasini, faoliyatni talab qiladi, har bir jinsga xos bo‘lgan xarakter xususiyatlarini shakllantirishga ta’sir qiladi. Genderni sotsial-madaniy hodisa sifatida talqin qilish muqarrar ravishda tadqiqotchilarni uni tilda belgilash masalalariga aylantiradi. Hozirgi vaqtda ushbu ma’nolar tizimi erkak va ayol nutqining turli modellarida o‘z aksini topganligi aniqlandi, ular til tizimlarining funksional variantlarini shakllantirishni, maxsus grammatik, leksik va derivativ vositalarning paydo bo‘lishini belgilaydi. Gender ijtimoiy va madaniy me’yorlar majmuyi sifatida ko‘plab tadqiqotchilarning e’tiborini tortadi. Gender tilshunosligi bo‘yicha faoliyat olib brogan tilshunoslar jinsni turli jihatlariga ko‘ra tadqiq etishgan. Jinslarning nutqiy xulq-atvor xususiyatlari, erkak va ayolning og‘zaki va yozma nutqida aks etishi J.Kouts, R.Lakoff, D.Tannen, A.V.Anishchenko, E.A.Zemskaya, A.V.Kirilina, M.V.Kitaygorodskaya, R.K.Potapova, N.N.Rozanova, S.K.Taburova tadqiqotlarida, shuningdek, gender ma’nolari va stereotiplarining leksika, sintaksis, grammatikada aks etishi esa O.A.Vaskova, A.A.Grigoryan, I.V.Zykova, V.N.Teliya, V.P.Pylaykina, A.M.Shaxmaykin, M.A.Krongauz asarlarida o‘z aksini topgan. Gender farqlanishlar va stereotiplarning eng yorqin leksik ifodasi leksik metaforik nominatsiyalarda namoyon bo‘ladi. Z.I. Kirilina turli konseptual hodisalarni o‘zlashtirish asosida “odatda ayollik” va “odatda erkaklik” fazilatlarini belgilash vositasi bo‘lgan erkaklar va ayollarning metaforik nomlanishi” deb ta’riflaydi⁵⁷.

⁵⁷ Кирилина А.В. Гендерные исследования в лингвистических дисциплинах // Гендер и язык. – М., 2005. –

Zamonaviy kognitiv lingvistikada metafora va baholash o'rtasidagi yaqin aloqani o'rganishga katta e'tibor beriladi. Metafora voqelikni talqin qilishning kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi va baholash, o'z navbatida, inson kognitiv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilanadi. Tilshunoslarning ko'plab asarlari metafora taxminiy ifodalashning universal mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi. Shaxsning baholash faoliyati butun olamni qamrab oladi: inson dunyoni tanib, tilda har qanday hodisa va predmetlarning mavjudligini aks ettiribgina qolmay, balki ularga munosabatini ifodlaydi. Shunday qilib, dunyoning til modeli tavsiflovchi va baholovchi komponentlarni o'z ichiga oladi. Dunyoni o'z-o'zidan "o'tib" inson baholash faoliyatining markazida bo'ladi. Shundan kelib chiqib, metafora yo'li bilan ko'chirishning quyidagi ko'rinishlarini ajratadi:

1. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi: og'iz- (odamning og'zi) – og'iz- (shishaning og'zi), qo'ltiq-(odamning qo'ltig'i) - qo'ltiq- (dengizdagi qo'ltiq), tish-(odamning tishi) – tish-(arraning tishi), etak- (kiyimning etagi) – etak- (tog'ning etagi) kabi. Bunday ko'chirish natijasida ba'zan zid ma'no ham tug'ilishi mumkin. Masalan, boshleksemasining birinchi ma'nosidan metafora yo'li bilan ko'chirish asosida "ibtido", "muqaddima" ma'nosi hosil bo'lgan: maqolaning boshi kabi. Bundan tashqari, "oxir", "xotima" ma'nosi ham o'sib chiqqan: boshi berk ko'cha kabi. Bir leksemaning bunday

zid ma'nolarni anglatishi hodisasi enantiosemiya deyiladi (yunoncha en- "yaqin", anti- "qarshi"). Yana qiyoslang: Koridorning u boshidan bu boshigacha stullar qo'yilgan. Bu jumlada bosh leksemasi umuman tomon ma'nosiga ega bo'lib qoladi.

2. Bir predmetga (ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chiriladi: achchiq- (achchiq qalampir-) – achchiq- (achchiq gap), to'g'ri- (to'g'ri chiziq) – to'g'ri- (to'g'ri gap), jonli- (jonli tabiat) – jonli- (jonli suhbat), tez- (tez yur) – tez- (tez odam) kabi. Bir predmet nomini boshqa bir predmetga belgi sifatida ko'chirish ham mavjud: tosh- (qattiq jism) – tosh nok- ("qattiq"), oltin- (qimmatbaho ma'danning nomi) – oltin yaproqlar (sap-sariq) kabi. Bunda narsaning nomi belgini anglatib keladi. Yuqoridagi misollarda esa belgining nomi bir predmetdan boshqasiga ko'chiriladi.

3. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chiriladi: savala- (nimani) - savala- (kimni), cho'k- (cho'kkala-) - cho'k (imoratning cho'kishi) - cho'k (odamning qariganda cho'kishi), o'l (jonlilarda hayotning tugashi) - o'l (o'simlik palagining so'lishi, qurishi) kabi. Shu sababali bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko'chirish desa bo'ladi. O'zbek tilshunosligida komponent-semantik tahlilga e'tibor rivojlanaboshlagach, metafora tabiatini o'rganishga ana shu tahlil usullarini tatbiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shuningdek, metafora va o'xshatish orasidagi farqni uslubda, shakldagina ko'radi. Ilmiy adabiyotda metaforani asosan til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko'rsatadilar. Nutq hodisasi bo'lgan metafora, shubhasiz, nazariy tilshunoslik uchun tekshirish obyekti bo'lmaydi. Til hodisasi bo'lgan metafora esa

Yevropa tillariga oid ba'zi adabiyotlarda, yuzaga keltirgan o'xshatish belgisiga ko'ra, bir necha turlarga ajratib beriladi.

Baholash obyekt, vaziyat, hodisa, jarayon va hokazolarning ijobiy yoki salbiy ahamiyatini bildiruvchi qiymat tushunchasiga asoslanadi. Bunda muayyan shaxs, ijtimoiy guruh yoki millat uchunligi inobatga olinadi. Qadriyatlar tizimi me'yor (qadriyatlar) va undan og'ishlar (anti-qadriyatlar) haqidagi g'oyalarni qamrab oladi. Baholash, o'z navbatida, har doim obyektning normaga munosabatini o'rnatish yoki normadan ijobiy yoki salbiy tomonga og'ishdir. Odatda, me'yorlar tilning funksiyalari sifatida baholashdan mustaqil deb hisoblanadi, ammo A.A.Ivin normalar hisob-kitoblarning alohida ko'rinishidir deb baholaydi⁵⁸. Gendershunoslik sohalaridan birida, feministik tilshunoslikda tilning androsentrikligi muammosi ko'tarildi. Patriarxal stereotiplar tilda dominant hodisa sifatida isbotlangan, matriarxal stereotiplar esa ikkinchi darajali vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Ideallashtirilgan kognitiv modellar til vositalari tizimida, shu jumladan, konseptual metaforalar tizimida – gender metaforalarida ko'p o'lchovli va bir chiziqli bo'lmagan ifodani topadi, bu gender tilshunosligida nafaqat jismoniy, balki ma'naviy fazilatlarining butun majmuyini uzatishni anglatadi. Ushbu atamani tushunish bilan taqqoslash asosi (metaforik nominatsiyaning sferasi-manbasi), lug'at mualliflari ta'kidlaganidek, haqiqiy erkaklar va ayollarga taalluqlidir, metafora majoziyliги uni o'ziga nisbatan ishlatishga imkon beradi. Jinsga bevosita bog'liq bo'lmagan har xil turdagi obyektlar (metaforik nominatsiyaning maqsadi), ayollik va erkaklik xususiyatlari taqqoslash

⁵⁸ Ивин А.А. Оценки в процессах коммуникации. URL: <http://iphras.ru/uplfile/root/biblio/ps/ps17/14.pdf> (дата обращения: 18.08.2016).

uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, metaforaning talqin qilish salohiyati metaforik ma’no strukturasi har bir elementining nisbiy mustaqilligi sharoitida metafora nominatsiyasining uchta asosiy elementining dinamik o‘zaro ta’siridan shakllanadi, deb hisoblaymiz. To‘g‘ridan to‘g‘ri nominativ va natijaviy, metaforik, ma’nolar ma’no elementlarini bir-biriga nisbatan aktuallashtiradi. Metaforik o‘xshatish asoslari (manba sohasi, metafora asosi, dastlabki turtki beruvchi ma’nolar) maqsadli sohaning ma’lum xususiyatlarini yoritib beruvchi o‘ziga xos prizma vazifasini bajaradi, ularning ahamiyatini maxsus lingvistik shaklda belgilaydi. Biroq, metaforaning talqin qilish salohiyati metaforik ma’no strukturasi har bir elementining nisbiy mustaqilligi sharoitida metafora nominatsiyasining uchta asosiy elementining dinamik o‘zaro ta’siridan shakllanadi, deb hisoblaymiz. To‘g‘ridan to‘g‘ri nominativ va natijaviy, metaforik, ma’nolar ma’no elementlarini bir-biriga nisbatan aktuallashtiradi. Metaforik o‘xshatish asoslari (manba sohasi, metafora asosi, dastlabki turtki beruvchi ma’nolar) maqsadli sohaning ma’lum xususiyatlarini yoritib beruvchi o‘ziga xos prizma vazifasini bajaradi, ularning ahamiyatini maxsus lingvistik shaklda belgilaydi. Metafora azaldan tilshunos olimlar uchun tadqiqot mavzusi bo‘lib kelgan. Metaforalarni gender jihatdan tadqiq qilish masalasi ham zamonaviy tilshunoslik oldida turgan mavzular sirasiga kiradi. Gender metaforalarini quyidagi mezonlarga javob beradigan metafora sifatida aniqlash mumkin:

1) **diskursiv mezon** – ular nutqda og‘zaki, noverbal yoki multimodal realizatsiyaga ega;

2) **kognitiv mezon** – manbadan maqsadli sohaga prognoz qilingan konseptual xarita(lar) erkaklar yoki ayollarga nisbatan qandaydir kamsitishlarni yaratishi yoki aks ettirishi mumkin;

3) **pragmatik mezon** – ular ko‘pincha yashirincha aytiladigan implikatsion talqinlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbek va ingliz tillarining gender metaforalarini tahlil qilishda ikki madaniyat olamining qadriyat tasvirining metaforik ma‘nolari va farqlanishlari qiyoslanadi. L.G.Yefanova dunyoning me‘yoriy manzarasini qiymat manzarasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ajratib ko‘rsatadi. L.G.Yefanovanning ta‘kidlashicha, dunyoning me‘yoriy manzarasi “turli darajadagi til birliklarining semantikasida aks ettirilgan, ijtimoiy shartlangan va ma‘lum bir til vositasida muntazam ravishda ifodalanadigan inson, jamiyat va butun dunyo haqidagi fikrlar tizimidir. Ijtimoiy subyekt tomoni ijobiy baho olishi va unga norozi munosabatni keltirib chiqarmasligi uchun uning atrofida bo‘lishi kerak”⁵⁹. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning barcha majoziy metaforik nomlari jinsga bog‘liq va jinsga bog‘liq bo‘lmagan metaforalar guruhiga ajratiladi:

1.Gender xoslanmagan metaforalar. Ushbu tipdagi metaforalar umumiy turga taalluqli bo‘lib, nutqda turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladi.

2.Gender xoslangan metaforalar.

⁵⁹ Ефанова Л.Г. Субъект нормативной оценки, выражаемой семантикой языковых единиц, как носитель национальной языковой картины мира // Сибирский филологический журнал. 2013. № 1. С. 101–106.

Ingliz dramatik diskursida maskulin xos metaforalar

O‘xshatilish asosi	Metafora
hero, brave	<p>snow leopard – a man who does not know fear, a real hero;</p> <p>leopard – a brave, courageous man; tiger – brave, fearless,</p> <p>courageous; gun – a brave man; old eagle – a warrior with a dead hand, strong character;</p> <p>– pugnacious, belligerent – looking man;</p> <p>eagle – a fea, tireless man; falcon – an energetic rlessiron guy; white falcon – a respected citizen, warrior, good – natured man</p>
2. powerful, assertive, energetic	lion – brave, bold, courageous; wolf – unrestrained, majestic;
Dumb	donkey – a dumb man
4. wimpy, spineless	sheep – a worthless man
5. meek	ox – sluggish, of huge build but slow – thinking
6. simpleton	a naive, simple – minded, simple – hearted, benevolent man
strong, unwavering	lion cub – a strong person, someone who can lead
leader, head	bull – a man who is able to lead

dear, respected	thoroughbred camel- ‘the best of the man.
authoritative, weighty, respected by all	goat – herder – a leader, a respected person among the people, an honorable citizen
who has not attained a high office, rank	one – year – old male goat – unremarkable, ignorant, ignorant, one of many
Caring	collar – a loving, caring elderly man

2.2.2-jadval

Ingliz dramatik diskursida feminin metaforalar

unkind, cruel	swollen udder of cattle – cruel, heartless, indifferent woman
	devil – a woman who sows discord between people,
Chad-loving	inbreeding type of one-humped camel – a mother of her children who will stand to the death
rascal, scoundrel	bitch – an abusive word that denigrates a woman’s honor
Meek	bluebird – a flexible girl
greedy, insatiable	baba yaga – an insatiable, greedy, gluttonous woman
Dear	sapphire – a noble, beneficent

	woman; diamond – the most precious, desirable woman
Dummy	a rope to tie a horse to – the name of a girl who was given to the enemy’s side without a tribute or other conditions as a sign of reconciliation to avoid a major loss
beauty and attractiveness	angel – a woman with unearthly features and a kind soul; aqtorta ide – a bright woman with a beautiful appearance; roe – a beautiful, slender woman who is graceful and pleasing to the eye; fairy – enchanting, attractive

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tahlil qilinayotgan metaforalar tarkibida jinsga oid belgilanmagan metaforalar ustunlik qiladi – 203 leksema, bu umumiy metafora tarkibining 81% ni tashkil etadi.

Denotatsion aloqadorlik nuqtayi nazaridan, gender belgisi qo‘yilgan metafora gender belgilariga qaraganda ko‘proq mavzuli guruhlar bilan ifodalanadi. Atributlarning beshta asosiy guruhi umuman inson qiyofasini metaforik modellashtirish markaziga asoslanadi, jinsga qarab farqlangan holda quyidagi metaforalar qo‘llaniladi:

- 1) shaxsning xarakteri va xatti-harakati;
- 2) shaxsning ijtimoiy roli va qiymati;
- 3) shaxsning qobiliyati;
- 4) shaxsning yoshi;
- 5) odamning tashqi ko‘rinishi.

Miqdoriy jihatdan eng ko‘p ifodalangani – bu shaxsning xarakteri va xatti-harakatlarini nomlovchi xususiyatlar guruhidir. Tahlilga tortilgan o‘zbek dramalarida o‘rganilgan metaforalar umumiy sonining 54,7% ni tashkil qiladi.

Metaforik tafakkur boshqa fikrlash usullaridan ustun turadi, chunki u bilish obyektining o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi, shunda yaxlit tushunish mumkin. Biz metaforik obyektning xususiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratishimiz kerak, chunki metafora obyektlari tafakkur bilan bevosita bog‘liq.

Gender metaforalarda xususiy baholashlar quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- 1) hissiy-ta’im yoki gedonistik (yoqimli – yoqimsiz);
- 2) psixologik, ular
 - a) intellektual (qisqa fikrli, savodsiz) b) hissiy (quvonchli, jo‘shqin, yoqimli);
- 3) estetik (chiroyli – xunuk,);
- 4) axloqiy (axloqiy – axloqsiz, yaxshi – yovuz, shafqatsiz);
- 5) manfaatli(foydali – zararli);
- 6) me’yoriy (sog‘lom – kasal);
- 7) teleologik (tegishli - nomaqbul) baholar⁶⁰.

⁶⁰ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. 896 с.

Ikki til madaniyatida insonni baholash stereotiplarini tahlil qilish orqali ijobiy va salbiy baholarni aniqlaydigan metaforik nominatsiyalardan boshlab, biz to'g'ridan to'g'ri qadriyatlarni aniqlashimiz mumkin. Metafora ham umumiy, ham alohida baholarni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, umumiy bahoni (yaxshi yoki yomon) ifodalovchi metaforalar guruhi, agar baholash motivi muhim bo'lmasa, oz sonli birliklar bilan ifodalanadi, masalan, sajda qilish obyekt sifatida baholanib ayolga nisbatan ma'buda, farishta singari suyuqli ayol haqida metaforizatsiya yuzaga kelishi mumkin. Muayyan baholovchi ma'noga ega bo'lgan metaforalar ularning soni bilan ham, baholash asoslarining xilma-xilligi (ya'ni, me'yorlar, stereotiplar, ideallar) bilan ajralib turadi. Demak, metaforalar guruhida gender tafovutlarga ega xoslangan metaforalar mavjud. Ularni umumiy termin ostida feminin va maskulin metaforalar guruhiga ajratish va tahlil tamoyillarini ishlab chiqish lozim.

§.2.3. Ingliz va o'zbek dramalaridagi metaforalarning ijtimoiy xoslanishi

Antik davrlarda metaforani olamni anglashning alohida usuli va vositasi sifatida ko'rsatish Aristotel (shuningdek, Sitseron)ga taalluqli g'oyadir. Bu davrda ma'no ko'chimlarini tasnif etishdagi ilk qadamlar qo'yildi: metaforaning ismlar (umuman so'zlar) qatoridagi o'rnini aniqlash, metaforaning "noodatiy" fenomen tabiatini tekshirish singari masalalar shular qatoridandir. Demetriy Falerskiy Sitseron, Kvintiliandan ko'chma ma'no orqali, ilk marta metafora orqali buyumlar to'g'risidagi ma'lumotni aniq va ravshan yetkazish

mumkinligini payqaldi. Metaforaning vazifaviy mezonlari o'rnida metaforaning qo'llanish maqsadlarini ko'rgan Kvintilian, "Ism yoki fe'l o'z o'rnidan u yetishmayotgan yoxud undan afzal bo'lmagan nomlar o'rniga ko'chiriladi" deb hisoblaydi. Kvintilianga ko'ra, metafora quyidagi hollarda ishga tushiriladi:

1) o'z nomiga ega bo'lmagan predmetni nomlash (zaruratidan) uchun (zamonaviy tasnifga ko'ra nominativ metafora – qattiq odam;

2) obyektga nisbatan munosabatni ifodalash, baholash uchun (nutqni jozibador qilishga ta'sir ko'rsatadi) – baholovchi metafora– g'azabi olovlandi;

3) nutqni bezash uchun (nutqni go'zallashtirish uchun) – dekorativ ma'noli metafora – shirin so'z⁶¹.

Tilshunoslikda metaforalarni tasniflash masalasining an'anaviy tarzda ko'plab talqinlari ajralib turadi. Bu savol metafora nazariyasida eng muhim savoldir. Ushbu muammoga ko'plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlar bag'ishlangan. Metaforaning u yoki bu til darajasiga tegishliligi uni tasniflash parametrlarini belgilaydi. Miller tasnifida metafora timsolida tushuncha ifodasi ustunlik qiladi. Uning fikricha, metaforalar nominal, predikat jummalarga bo'linadi.⁶² V.G.Gak tipologiyasida to'liq majoziy ko'chirish – ikki tomonlama metafora, bir tomonlama semasiologik metafora, bir tomonlama onomasiologik metafora, qisman metaforik o'tkazish singari guruhlarga bo'linadi⁶³. Ushbu bo'linish metaforalarni yaratuvchi universal kategoriyalarga

⁶¹ Прокопчук О.Г. Развитие представлений о метафоре в античной риторической традиции. (Аристотель и Квинтилиан). Веснік Беларускага дзяржаўнага універсітэта. Серыя 4, Філалогія. Журналістыка. Педагогіка. - 2009.

⁶² Valerie Duff, "Mapping Kei Miller's Zion", The Critical Flame, Issue 34, January – February 2015.

⁶³ Gak V. G. Yazykovye preobrazovaniya [Language conversion] / V.G.Gak. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1998. – 768 p.

asoslanadi. Ular “metaforizatsiyaning uchta universal turini: antropomorfizm, konkretan mavhumga o‘tish va sinesteziya”ni qayd etadi.

Ayrim tadqiqotchilar badiiy nutqqa nisbatan metaforani individual-muallif metafora va metafora-simvolga ajratadilar: “Til va nutq o‘rtasidagi farqqa ko‘ra individual-muallif metaforasini nutq elementiga ko‘proq kiritish mumkin”⁶⁴. J.Lakoff va M. Jonson metaforaning kognitiv nazariyasi doirasida “ko‘proq global darajadagi izchil konseptual tuzilmalarni – “kognitiv modellarni” shakllantirishi mumkin bo‘lgan konseptual metafora haqida tadqiqotlarni amalga oshiradi. Bunga misol sifatida ular “Time is money” komponentli metaforik birlikni keltiradi. Shuningdek, ular tasnifida madaniy belgilarga oidlik hisobga olingan holda metaforalarning quyidagi guruhlari ajratiladi:

- 1) Oriyentatsion metaforalar;
- 2) Ontologik metaforalar.

Xuddi shunday tasnif F. Uilrayt tomonidan tasvirlangan bo‘lib, u muqarrar metaforik arxetiplar yoki arxetipik belgilar haqida gapiradi, ular ham “orientatsion – ontologik” tipologiyaga ko‘ra tasniflanishi mumkin: “samoviy ota va yerdagi ona”, “yorug‘lik”, “qon”, “yuqoriga-pastga”, “g‘ildirak o‘qi” va boshqalar makon va vaqt jihatidan shunchalik uzoq bo‘lgan madaniyatlarda qayta-qayta paydo bo‘ladiki, ular o‘rtasida har qanday tarixiy ta’sir yoki tendensial aloqa mavjud⁶⁵. Agar biz metaforaning alohida holati sifatida personifikatsiya haqida

⁶⁴ Shan Xiangping. A Socio-cognitive Approach to Gender Metaphors in Advertising, Soochow University, 2012.01.

⁶⁵ Ф. Уилрайт. МЕТАФОРА И РЕАЛЬНОСТЬ. (Теория метафоры. – М., 1990. – С. 82–119.

gapiradigan bo'lsak, Lakoff va Jonson bu haqda personifikatsiya atamasida gapiradilar: "Ehtimol, eng aniq ontologik metaforalarga moddiy obyekt shaxs sifatida talqin qilinadigan holatlar kiradi. Gap shundaki, shaxslashtirish umumiy toifadir, har biri shaxsning o'ziga xos xususiyatiga yoki uni idrok etish usuliga asoslangan keng ko'lamli metaforalarni qamrab oladi⁶⁶.

Zamonaviy tilshunoslarning fikriga ko'ra, metaforalarning eng to'liq tasnifi filologiya fanlari doktori, bir yuz yetmishdan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik ishlar muallifi V.P. Moskvina tomonidan taqdim etilgan bo'lib, u metaforalarning tasniflash parametrlari tizimini ishlab chiqdi, bu yerda u funksional xususiyatlariga ko'ra semantik, tarkibiy (yoki rasmiy) va funksional singari turlarga bo'linadi. Har bir tasnifda biz kuzatishga harakat qiladigan muhim bo'linish mavjud.

Metaforalarning semantik tasnifi. Bu yerda, asosan, tadqiqotchining e'tiborini metaforaning semantik ikkilik – asosiy va yordamchi subyektlarga bo'linishi kabi xususiyatlari inobatga olinadi.

Metaforalarni tasniflar ekan, tadqiqotchi A.Xo'jamqulov uning quyidagi turlarini farqlaydi:

1. Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi.

2. Zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a'zolari nomini ifodalagan leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi

⁶⁶ Lakoff, Johnson 1980 – G. Lakoff, M. Johnson. *Metaphors we live by*. Chicago; London, 1980.

bo‘lib, bu turga bo‘ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot kabi leksemalarning metaforik ma’no hosil qilishi kiradi.

3. Fitomorfik metafora. Bu daraxt va o‘simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma’nosining ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan metafora bo‘lib, g‘uncha, gul, chinor, chaqirtikanak, danak kabi leksemalarning metaforik ma’noda qo‘llanishi bunga misol bo‘ladi.

4. Kosmomorfik metafora. Osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metafora. Bunday metafora oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur, shu’la kabi leksemalar ma’nosini metaforik usul bilan ko‘chirish natijasida hosil bo‘ladi.

5. Abiomorfik metafora. Metaforaning bu turiga yuqorida sanab o‘tilgan turlariga kirmaydigan, tabiatdagi jonsiz narsalarni ifodalovchi leksemalar ma’nosining metaforik ko‘chishidan hosil bo‘lgan metaforalar (temir, tosh, kishan) kiradi”.

Ko‘rinadiki, tadqiqotchi metaforalar asosida antrpomorfik metaforani ko‘radi. Olimning ta’kidlashicha, bunday tasnif tilda mavjud metaforalarni nisbatan to‘liq qamrab oladi.

O‘zbek tilshunosligida metaforaning ichki mexanizmi haqida ham ma’lum bir fikrlar bayon etilgan. Keyingi vaqtlarda semasiologiya sohasida jiddiy tadqiqotlarni amalga oshirgan tilshunos M.Mirtojiyev o‘zbek tilidagi metaforalar ko‘chma ma’no hosil etgan obyektlarning o‘xshatilish holatiga ko‘ra oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi turlarini ajratadi⁶⁷. Metaforaning bo‘yoqdor/bo‘yoqdor

⁶⁷ M.Миртожиев. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1973. 4-сон. – Б. 34–37.

emasliliga, lisoniy/nolisoniyligiga ko‘ra turlarini ajratish ham olimning filologik qarashlarida uchraydi.

Tilshunoslikda metaforalarning sotsial xoslanishi masalasiga deyarli e‘tibor qaratilmagan. Aslida ham metaforalar sotsial xoslanish mumkinmi va u qanday amalga oshadi degan o‘rinli savol tug‘ilishi tabiiy. Biz yuqorida metaforalarning olimlar tomonidan ajratilgan bir nechta tasniflarini keltirib o‘tdik. Metaforalarning muayyan darajada xoslanish omillarini hisobga olgan holda ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Gender xoslangan	Sotsial xoslangan	Etnik xoslangan
<ul style="list-style-type: none"> • Femininlik va maskulinlik xususiyatiga ega bo‘lgan metaforalar • Masalan: <i>sheryurak</i> – erkaklarga nisbatan • <i>ohuko‘z</i> – ayollarga jisbatan 	<ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga doir, ular nutqida qo‘llaniluvchi yoki ularga nisbatan ishlatiluvchi metaforalar • <i>qassob</i> – jarrohlarga nisbatan 	<ul style="list-style-type: none"> • Muayyan etnik qatlam, millat – elat madaniy qatlamga oid bo‘lgan ayni shu millat mentalitetini o‘zida aks ettiruvchi metaforalar • <i>qora xalq</i> – mahalliy aholi • <i>bolajon xalq</i>

2-rasm. Metaforalarning xoslangan guruhlari

Metaforalarning sotsial tabiati masalasi esa gender xoslanishdan kenroq mohiyat kasb etadi. Jamiyat rivojlanib borishi bilan tilda ham muayyan o‘zgarishlar yuzaga keladi. Millatning o‘y-fikrlari, dunyoqarashi, orzu-umidlari doirasida turli metaforalarga badiiy tasvir vositalari paydo bo‘ladi. Til va jamiyatning o‘zaro munosabati

murakkab va serqirra bo‘lib, uni tadqiq qilishda alohida yondashuv zarur bo‘ladi.

Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalariga bolinadi. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi”⁶⁸. Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Prof. M.Mirtojiyevning qayd qilishicha, buni differensial-semantik metod bo‘yicha tahlil etib ko‘rilganda yaqqol tasavvur etish mumkin. Masalan, ulamoq fe’li “uchlarini biriktirib bog‘lamoq” leksik ma’nosi – sememasiga ega. U yana “uchiga qo‘shib uzaytirmoq” hosila ma’no – sememani orttirgan. Ular bildirgan harakat o‘rtasida o‘xshashlik bor. Ya’ni hosila ma’no yuzaga kelishi metafora hisoblanadi. Biroq biz metaforik va metonimik birliklarning kognitiv funksiyalariga urg‘u berish bilan bir qatorda, uning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlariga ham to‘xtalmoqchimiz. Sababi metaforani aynan bir kontekstda o‘rganish uning yuzaga chiqishiga asosiy omillarni chegaralab qo‘yadi. Agarda bunday ma’no ko‘chishidagi so‘zlarni asosiy kontekstdan tashqariga chiqargan holda ham tahlil etadigan, boshqa nutqiy vaziyatlar, o‘zga tillar bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, tabiiy ravishda yuzaga keladigan metaforik va metonimik konseptualizatsiyaning sof ko‘rinishda tasvirini yaratishimiz, tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi. Yanada aniqroq

⁶⁸ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т., 1976, 13 б.; Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадиий нуткида кулги кўзгатувчи лисоний воситалар. НД. – Т., 1997, 105 б.

aytdigan bo‘lsak, metaforaning diskursda, jonli muloqot shakli – dramatik diskursda voqelanishiga ahamiyat bermoqchimiz. Bunday birliklar nafaqat kognitiv, balki sotsiolingvistik, pragmalingvistik, psixolingvistik, mentalingvistik va lingvokulturologik funksiyalarga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Dramatik diskursda metafora va metonimiya		Izohlash
<p>“Where is now Salomon, in wisdom so excellent? Where is now Samson, in battle so strong? . . .</p> <p>. . . How short a feast is this worldly joying?</p> <p>Even <u>as a shadow it passeth away</u> . . .</p> <p>. . . <u>As a leaf in a stormy weather,</u></p> <p>So is man’s life blowen clean away”.</p>	<p>Ramziy ma’noda va shaxsni tasvirlash uchun. Tashqi xususiyatiga ko‘ra</p>	<p>Tinglovchiga hissiy-emotsional ta’sir ko‘rsatish</p>
<p>“Neither Daphne in the spring. Nor glistering Thetis in her orient robe. Nor shame-fast morning girt in silver clouds, Are half so lovely as this earthly saint”.</p>	<p>Mazmuniy xususiyatga ko‘ra</p>	<p>Shaxsning xarakter qirralarini tasvirlash, satirik va yumoristik</p>

		mazmunda begʻamlilik maʻnosini ifodalash
Ahimaas. “O would our eyes were conduits to our hearts, And that our hearts were seas of liquid blood, To pour in streams upon this holy mount. For witness we would die for David's woes. Jonathan. Then should this Mount of Olives seem a plain. Drowned with a sea, that with our sighs should roar”	Shakliy va mazmuniy mohiyatiga koʻra	Nutqiy vaziyatni boʻrttirib koʻrsatish

Koʻrinadiki, ingliz tilida dramatik diskursda metafora, metonimiya va sinekdoxa shakliy va mazmuniy jihatiga koʻra namoyon boʻladi. Shakliy jihati tashqi oʻxshashlik, umumiylik, butun va qism munosabatlarini ifoda etsa, mazmuniy jihati qahramonlarning ruhiy-fiziologik holati, kechinmalari, tasavvur va oʻylari bilan bogʻliq.

Dramatik diskursda ham shaklan, ham mazmunan muallif aytmoqchi boʻlgan fikr faqat soʻz orqaligina emas, harakat, ritm va tasvir vositasi uygʻunligida namoyon boʻladi. Yuqoridagi jadval dramatik diskursda koʻchmlarning ayrim turlari va ularning voqelanish shakllari, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsadning qanday tasvir

orqali ifodalanishini ko'rsatishga va umumlashtirishga yordam beradi. O'zbek tilida esa ifoda shakli biroz o'zgaradi. Bunga bevosita mental, sotsial, lingvokulturologik omillar ta'sir o'tkazadi.

Dramatik diskursda metafora va metonimiya	Sotsial xususiyati	Izohlash
<p>Nigora: <i>Gorkomga boraman. Arz qilaman. Toshkentdek shahri azimda bir <u>feodal oila</u> bor, tekshirib ko'ringlar deyman. (Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni)</i></p>	<p>Oilaviy muhit</p>	<p>Oilaviy muhitni tasvirlash, qiyoslash uchun</p>
<p><i>Ana shu odamning yonida <u>issiq-sovug'idan</u> xabar olib turadigan, orqasini qashlab qo'yadigan bir tanmahram bo'lsa, eh-he , bu chol tushmagur, nima ishlar qivormaydi, deysiz (Sh.Boshbekov. Temir xotin)</i></p>	<p>Kundalik turmush</p>	<p>Oilaviy ahvoli, yeyish-ichish, yashash tarzi, sog' va kasal holatlarini ifodalash uchun.</p>
<p><i>Nazmi: Boyagi ro'yxatni menga beringlar. Poliklinikadan hammasini</i></p>	<p>Mazmuniy jihatdan, holatini</p>	<p>Iroda kuchi, jismoniy fiziologik holatini ifodalash uchun</p>

<p><i>delosini olib, o'qib chiqaman. O'ladiganini o'ladigan qilib ajrataman. Ana shunday qilib joni gattig'ini tanlab olamiz.</i></p> <p>(Said Ahmad. Kuyov)</p>	<p>ifodalash uchun</p>	
<p>Ho', yigit! Chiqavering, ko'rganlar «xotindan qochdi» demasin! Belida belbog'i bor ham (metonimiya) anqoning urug'i bo'p ketyaptimi, nima balo! Qani, bo'ling!</p>	<p>Shakliy va mazmuniy jihatiga ko'ra</p>	<p>Ramziy ma'noda kuchlilik, or-nomuslilik</p>

Dramatik diskursda, asosan, harakat va nutq muqobilligini ta'minlash, qahramonlar xarakterida drammatizmi ko'rsatish va kuchaytirish maqsadida metafora va metonimiylardan foydalaniladi. Odatda, nasriy, she'riy asarlarda voqelikni obrazli tasvirlash yetakchi o'rinda turadi. Dramatik diskursda satirik, yumoristik kayfiyatni ifodalash, yoki qahramonlar harakati, psixologiyasida drammatizmni ko'rsata olish, tasavvurning aynan jonlanishi, sahnada esa aktyorga aynan yo'riqnoma bo'lishida bunday birliklar asosiy o'rin tutadi. Shu boisdan dramatik diskursda metafora va metonimiya, sinekdoxa, kinoyaning roli ancha muhim. Yuqoridagi tahlillardan ko'rish mumkinki, metafora, metonimiya, sinekdoxa yoki kinoyaning qo'llanilish funksiyasida har ikki tildagi dramalarda ayrim umumiyliklar bor.

Birinchi dan, qahramonlarning xarakter qirralarini ko'rsatishda: *yovuzlik, ayyorlik, mehribonlik, soddalik, yovuzlik, beg'amlik* (1-jadvalga qarang). Ikkinchi dan, voqelikni bo'rttirib ko'rsatishda (asosan, metonimiya va sinekdoxaning qo'llanilishida ko'rinadi): *bir o'zi 90 ni ko'tardi, "lead foot"*. Uchinchi dan, ramziy ma'noda qo'llash: *oltin bitiklar, "written words"*.

Shuningdek, metafora tarkibida kinoya ham ayniqsa satirik mazmundagi asarlarda asosiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qilgan deyish mumkin. Har ikkala tildagi dramatik diskurslarda ironik mazmun yetakchilik qiladi. Ironiya dramatism, qahramon psixikasi, etikasi, mantiqiy fikrlashi bilan bog'liq xaos muhitida namoyon bo'ladi. E'tiborlisi, muallif uni qasddan, rejaga muvofiq asar syujetiga kiritmaydi, tasvir obyektlari va vositalarining o'zaro uyg'unlashuvi ironiyani yuzaga keltiradi.

Dramatik diskurs muloqot usuli sifatida dunyoning tasvirini sahnada jonli ko'rsatuvchi vositadir. Yana bir e'tiborli jihati, dramatik diskurs mazmunan muloqotning triada shaklini namoyon qiladi. Fikrimizni quyidagicha izohlashimiz mumkin. Dramada muallif nutqi, qahramon nutqi va uni ijro etuvchi aktyor nutqi bosqichma-bosqich namoyon bo'ladi. Shu boisdan tasvir vositalarining qo'llanilishi, nutqning pragmatik va sotsiopragmatik xoslanishi boshqa adabiy janrlardan farq qiladi.

O'zbek mentalitetida metaforalarning quyidagi sotsial ko'rinishlari faol uchraydi:

✓ oilaviy muhitga talluqli metaforalar: oila, er-xotin, qaynona kelin munosabatlari;

✓ kasbga doir metaforalar;

✓ unvon, lavozimga doir metaforalar.

Birinchi tasnifga kiruvchi metaforalar, asosan, oilaviy muhitga nisbat beriluvchi, oilaning turmush-tarzi oila a'zolari, er-xotin, qaynona-kelin, opa-singil, aka-uka munosabatlariga asoslanadi.

III BOB. DRAMATIK DISKURSDA METAFORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI

§3.1. O‘zbek va ingliz tillaridagi metaforalarining lingvomadaniy uyg‘unligi

Til, madaniyat va tafakkurning o‘zaro munosabati zamonaviy tilshunoslikda V. fon Gumboldt davridan boshlab tadqiqot obyekti sifatida o‘rganila boshlangan bo‘lib, u “Til insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq va har bir bosqichda unga hamroh bo‘ladi uning mahalliy taraqqiyoti yoki madaniyatning har bir bosqichini o‘zida aks ettiruvchi jarayondir”⁶⁹, – deb ta’kidlaydi. Olimning aniq tadqiqotlari o‘zining keyingi rivojlanishini lingvokulturologiya sohasidagi ishlarida o‘z ifodasini topdi, bu “ma’lum bir lingvomadaniy jamoaning makonini til va nutq prizmasi va kommunikativ makonning madaniy foni orqali tavsiflash” muammosini hal qiladi.

Lingvokulturologiyada tadqiqot predmetining kengayishi va til haqidagi yangi bilim sohalarining, masalan, kognitiv lingvistikaning paydo bo‘lishi til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlar muammosi hozirgi kunga qadar to‘liq tadqiq etilgan emas.

Bizning fikrimizcha, empirik yo‘naltirilgan tadqiqotlar uchun mavjud bo‘lgan til, madaniyat va tafakkur kesishish nuqtalaridan biri metafora va metaforik nutqlarni tahlil qilishdir. Shunday qilib, zamonaviy kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, metafora - bu konseptual tuzilmalar bo‘yicha ma’lum bir aqliy operatsiya bo‘lib, u

⁶⁹ Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984; Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1984.

bilimlarni bir konseptual sohadan boshqasiga proyeksiya qilishdan iborat.

Darhaqiqat, metafora dunyoni bilish, turkumlash, konseptsiyalash, baholash va tushuntirish usullaridan biridir. Konseptual metafora nazariyasi mualliflari ta'kidlaganidek, metafora ong hodisasi sifatida nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatda ham namoyon bo'ladi, chunki bizning kundalik konseptual tizimimiz mohiyatan metaforadir. Bu shunisi bilan izohlanadiki, odam ma'lum bo'lgan narsa orqali noma'lum tushunchani idrok etishga intiladi va metafora bu borada eng qulay kognitiv mexanizmdir ⁷⁰.

Metafora nafaqat til hodisasi, balki madaniy hodisa bo'lib, insonning aqliy tafakkuri va madaniy faoliyati metafora bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Metafora tadqiqi qadimgi yunon davriga borib taqaladi. Aristotel kabi faylasuflar metafora tabiati va funksiyasini ritorik nuqtayi nazardan tizimli nazariy jihatdan tadqiq qilishgan. 20-asrda G'arb falsafasida yuz bergan "madaniy burilish" (jumladan, "lingvistik burilish", "ekzistensial burilish", "germenevtik burilish", "postmodern burilish", "madaniy tanqidiy burilish") tufayli metafora falsafiy tadqiqotlarning dolzarb mavzusiga aylandi. Buning natijasi o'laroq "semiotik burilish", "axloqiy burilish", "siyosiy burilish", "teologik burilish" va boshqa falsafiy oqimlar yuzaga keldi. Falsafiy tadqiqot obyekti doimo fikr va haqiqat o'rtasidagi uyg'unlik, "haqiqat"ni o'rganish masalasi bo'lib kelgan. Nitsshening fikriga ko'ra, "haqiqat" - bu metafora, metonimiya yoki antropomorfizmning she'riy va ritorik mustahkamlash orqali ishlab chiqilgan oltin qoidadan boshqa

⁷⁰ Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем // Теория метафоры. – М., 1990.

narsa emas. Xeydeggerning metaforik qarashi esa haqiqat va falsafaga nisbatan uning ekzistensialistik qarashini aniq ifodalaydi. Xaydeggerning ekzistensial nazariyasiga ko'ra metafora inson borlig'ining madaniy o'lchovida ham muhim o'rin tutadi va she'riy ma'no taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.

Metafora obyektiv dunyoda mavjud bo'lmagan lekin inson tasavvurining yaratilishi bo'lgan mantiqiy makonni, tilni moslashtirishga imkon beradi. Metaforaning mavjudligi lingvistik sohada ko'proq ochiqlikni ta'minlaydi va metafora mavjudligi so'zlardan foydalanishni o'zgartirish orqali e'tiqodlarni o'zgartirishga, tushunchalarni, qoidalarni va e'tiqodlarni o'zgartirishga imkon beradi. Kassirerning haqidagi qarashlari madaniy falsafaning puxta tizimi doirasida taqdim etilgan. U insonning asl tili sifatida metafora orqali o'rnatilgan inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar birlamchi bir xillikka ega ekanligini ta'kidlaydi. Richards ta'kidlaganidek metafora hamma joyda mavjud bo'lgan insoniylik tamoyilidir. U metaforaviy o'zaro ta'sir g'oyasini kiritdi va metaforani til falsafasi nuqtayi nazaridan o'rganishga kirishdi. Viko "Yangi ilm" asarida turli milliy madaniyatlarning qonuniyatlari odamlarda shakllangan majoziy tafakkurga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi, bu fikrni u insonning "poetik zakovati" deb hisoblaydi. Metafora tadqiqotlarining fanlararo tabiati miyalar, tanalar, tillar va madaniyatning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan murakkab usullarni ko'proq tan olishga imkon beradi. Xabermasning so'zlariga ko'ra, falsafa kundalik amaliyotlar va hayot dunyosi bilan to'qnash kelishi kerak, shuning uchun insoniyatni madaniy o'lchovda o'z-o'zini anglashni chuqurlashtirishga undaydi.

Milliy tilni o‘zlashtirish sohasida madaniy metaforalarni tushunish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan, ammo chet tilini o‘zlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar talab darajasida emas. Akerman tomonidan ilgari surilayotgan psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metaforik bayonotlar ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan tom ma’nodagi kabi osonlik bilan qayta ishlanishi mumkin, ammo o‘zga til vakillari uchun ona tilida so‘zlashuvchilarning kundalik turmushda qo‘llaydigan metaforaning o‘ziga xos madaniy ma’nosini tushunish birmuncha qiyinchilik tug‘diradi.

Barcha tabiiy tillarning tarkibiy xususiyatlaridan biri nomni bir obyektдан ikkinchisiga o‘tkazish imkoniyatidir, bu ifodali vositalar tizimida metafora kabi stilistik vosita mavjudligida namoyon bo‘ladi. V.G. Gak: “Metafora zarur bo‘lgani uchun emas, balki usiz fikrlarni obrazli tarzda ifodalashning iloji bo‘lmagani uchun paydo bo‘ladi, u inson tafakkuriga va tiliga xosdir”⁷¹.

Metafora - bu dunyoni aniq-hissiy shaklda bilishga yordam beradigan fikrlash vositasi. Murakkab konseptual sohalarni bilish uchun allaqachon o‘zlashtirilgan va aqlga oson singishi mumkin bo‘lgan obyektlar va tushunchalardan boshlash kerak. J. Ortega i Gasset: “Metafora intellektning “qo‘li”ni uzaytiradi, uning mantiqdagi rolini qarmoq yoki miltiq bilan taqqoslash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, u tasavvur qilinadigan chegaralarni chetlab o‘tadi. U faqat o‘zining uzoq chegaralarida ko‘rinadigan narsalarga kirish imkonini beradi”⁷². Zamonaviy tilshunoslik til hodisalarini kommunikativ-


⁷¹ Гак В.Г. Метафора: универсальное и специфическое // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988. – С. 11 – 26.

⁷² Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 68 – 81.

pragmatik aspektda o'rganish bilan tavsiflanadi, bu tadqiqotchiga til tizimidagi til birliklarining strukturaviy-semantik xususiyatlarinigina ochibgina qolmay, balki ularning ekstralingvistik xususiyatlarini, til o'rtasidagi funksional munosabatni aniqlash imkonini beradi.

So'nggi paytlarda lingvokulturologik tadqiqotlarga, til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganishga, milliy lingvomadaniy makon xususiyatlarini talqin qilishga qiziqish ortib borayotgani lingvokulturologiyaning alohida lingvistik fan sifatida ajratilishi haqida gapirish imkonini beradi. Ikki nufuzli lingvokulturologlarning paydo bo'lish sanalarini turlicha ifodalashi fanning bu sohasi hali shakllanish bosqichida ekanligiga bir dalildir. V.V.Vorobyov lingvokulturologiya 1960-yillarning oxiri – 1970-yillarning boshlarida rivojlanganligini yozsa, V.A.Maslova esa uning alohida fan sohasi sifatida paydo bo'lishini 1990-yillar bilan bog'laydi. Boshqa nuqtayi nazarlar ham lingvokulturologiyani mustaqil ilmiy fan sifatida tan olmaslik, hatto inkor etish ham mumkin.

Metafora tilda xalq hayotining in'ikosi o'laroq voqelanadi. Demak, unda xalqning etnik xosligini ifodalovchi muayyan belgilar mavjud bo'ladi. Qiyoslanayotgan tillarda umumiy va individual metaforik komponentlarni kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda biz metaforalarni lingvomadaniy aspektga muvofiq ikki yirik guruhga ajratishni joiz topdik:



3-rasm. Dramatik diskursda metaforalarning lingvomadaniy tasnifi

Xususan, dramatik diskursda voqelangan ikki tilda ham mavjud bo'lgan umumiy metaforalar sirasiga quyidagilarni kiritish o'rinli:

He who deserves to drink from the ocean of life deserves to fill his cup from your little stream (Look back anger) – Bu hayot ummonida so'qqabosh bo'lib suzib o'tolmaydi-ku axir (Kuyov).

Hayotni cheksiz ummonga, dengiz to'lqinlariga qiyoslash har ikki tilda uchraydi. Hayot ummoni- the ocean of life metaforalari hayotning cheksizligi, undagi sir-sionatlarni anglashga inson fitrati ojizlik qilishiga ishora qiladi. Shu ma'noda ushbu metaforalar har ikki tilda ham uchraydi va bunday tipdagi metaforalarni umumetnik metaforalar sifatida ajratish mumkin.

Drama janrining murakkab jihatlaridan biri qahramon portretini yaratish masalasi bo'lib, asarda muallif nutqining yo'qligi sababli ba'zi sahna asarlarining boshida har bir obrazga ta'rif berilsa, ba'zan bir qahramonning surati va siyrati haqida boshqa bir qahramon nutqi orqali bilib olish mumkin.

Xususan, Sharof Boshbekovning ushbu asarida Qo'chqor obrazi o'sha davr insonlarining tipiklashtirilgan timsoli bo'lib, uning tashqi ko'rinishi, ruhiy hamda ma'naviy olami to'g'risida Olimjon, Alomat, Qumri nutqi orqali kitobxon tanishish imkoniga ega bo'ladi. Umuman olganda har bir badiiy asar kishilarning yashash sharoiti, xarakterlar, qahramonlarning psixologiyasi va ularning to'xtovsiz o'zgarib turishiga, rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy detallar yig'indisidan iboratdir. Ayniqsa, dramaturgiyada detallar muhim o'rin egallaydi. Chunki haqqoniy keltirilgan detallar vositasida tomoshabin-kitobxon davr ruhini, qahramonlarga xos xususiyatlarni aniq ko'z oldiga keltira oladi. Asardagi hayotiy retoallikni voqealar, tuyg'ular asosida emas, xarakterlar to'qnashuvi tutib turadi. Qo'chqor va Qumri, Qo'chqor va Olimjon, Qo'chqor va Alomat o'rtasidagi dialoglarda zamonruhiyatini, millat miqyosidagi muammolari ochib beriladi. Komediyaning kulminatsiyasi o'ziga xosdir, dramaturg Qo'chqor va Alomatning o'zaro suhbat jarayonida gipnoz holatini qahramon ruhiyatining qirralarini, Qo'chor tan olishni istamagan haqiqatlar Alomat tilidan aytiladi.

Alomat: Hammagapshunda-da—nolimaysiz. Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan—og'riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku qo'lingizdan kelmas, hech qursa ingrab qo'yishga ham qodir

emasmisiz, Qo‘chqor aka? Hayot deganlari shunaqa bo‘lar ekan deb umringizni o‘tkazyapsiz. Qalbingizning unut bo‘lib ketgan, o‘zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo‘rqasiz, uyalasiz, uni sezmaslikka olasiz! To‘g‘ri, qadr-qimmatingiz oshkora haqoratlanganida o‘sha miltillayotgan cho‘g‘alanga olgandaybo‘ladi va siz uni aroq bilan o‘chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko‘zlar bilan qarab taskin topasiz, bir qadar yupanasiz ham. Lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi! Shunda o‘zingizni qo‘yarga joy topolmaysiz, hadsiz-hududsiz olamda mushtdekkina jussangizni qo‘ygani joy yo‘q! So‘ng yig‘lamoqdan o‘zga chorangiz qolmaydi va o‘ksib-o‘ksib yig‘laysiz...

Alomatning yaralar toshga aylangan so‘zlari orqali inson hayotidagi ogriqli nuqtalariga ishora qiladi.

Drumme: She was an iceberg!... He had reckoned, poor wretch, that in the early days of marriage she would thaw. But. . . the thaw never set in! I believe she kept a thermometer in her stays and always registered ten degrees below zero –Arthur Wing Pinero, The Second Mrs. Tanqueray, Act Miss Cooper.

QO‘CHQOR: Ha-a... Shishaning bir turi-da, a? Ja sovuq odam bo‘larkan lekin. Bilasizmi, ko‘nglingizga olmang-u, Qumri bilan-chi, jim o‘tirib ham gaplashaverardik. Ichimiz-da-da... Nima deyatganini ko‘zidan bilardim. Uyam shundoq qarardi-yu, ichimdagini topardi, qurg‘ur.

An iceberg va sovuq odam komponentlari inson sovuqqonligi, xarakter qirralarini ifodalash uchun qoʻllaniladi. Har ikki metaforada ham birlashtirib turuvchi komponent sovuqlik semasi sanaladi.

Talbot: O!too much follyisit,.. / To hazard all our lives in one small family government (William Shakespeare, The First Partof Henry the Sixth, Act 4, scene 6, line 32).

Oilani kichik bir hukumatga oʻxshatish ingliz dramalari bilan bir qatorda oʻzbek dramalarida ham uchraydi:

F a r m o n: Bu uy ham bir hukumat. Ha, bir mamlakat. Oʻz poshshosi, oʻz qonuni bor.

Lutfi (Sottini koʻrsatib): Oʻz shpioni ham bor (Said Ahmad Kelinlar qoʻzgʻoloni. Birinchi parda).

Aytish joizki, til etnik xoslik jihatidan bir-biridan ancha farq qiluvchi ikki madaniy qatlamda umumiy metaforalarning qoʻllanilishi umumbashariy qadriyatlar, umumbashariy tushunchalar bilan bogʻliq. Shu boisdan umumetnik metaforalar tarjima jarayonida ham tarjimonga qiyinchilik tugʻdirmaydi. Biroq muayyan millatning xulq-atvori, shakllangan sterotiplari, madaniyatigagina oid boʻlgan individual metaforalarning aynan maʼnosini ifodalovchi tajimasini berishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tahlil davomida individual metaforlarga xos quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

- a) millatga xos boʻlgan xarakter qirralarini ifodalaydi;
- b) millat turmush-tarzi, kundalik yumushlarini ifodalaydi;
- c) oʻsha millat boshqaruv tarzi, siyosatini ifodalaydi;
- d) millat qahramonlari, tarixiy shaxslarini ifodalaydi.

Xususan, biz Shekspir dramaturgiyasi tahlili davomida quyidagi individual etnik metaforalarni aniqladik:

Juliet: O serpent heart, hid with a flow'ring face! Did ever dragon keep so fair a cave?(William Shakespeare, Romeo and Juliet, Act 3, scene 2, line 73).

O‘zbek mentalitetida salbiy mazmunda yuragi tosh, bag‘ri tosh, yuragi muz singari metaforik komponentlar qo‘llaniladi. Masalan:

Olimjon: Ekspluatatsiya! Ertalabdan kechgacha tinmadi-ya! Bir minut dam olgani yo‘q, bechora, bir minut! Yuv, tozala, tik, yama, supur! Bir chaqirim naridan suv olib kelib, kir yuvadi! Manavi tezak yoqiladigan la’nati o‘chog‘ingizda ovqat qiladi! Yeb to‘ymaydigan ochofat mollaringiz bor: ertalabdan kechgacha o‘t ber, yem ber, suv ber! Xamir qoradi, sigir sog‘adi, kuvi pishadi! E, bu uyingizning ishi tugaydimi o‘zi, yo‘qmi?! Bundan tashqari, dalaga chiqadi! Ming chanoqqa ming egilib paxta teradi! Qirq-ellik kilo narsani ko‘tarib, xirmonga olib boradi! Axir, bu do‘zax azoblariga qanday dosh bersin, qandoq chidasin?! (Mehr bilan.) Axir, u temir-ku, Qo‘chqor aka, temir!... Uni avaylash kerak, ehtiyot qilish kerak!.. U o‘zini o‘ylamaydi, qiynalib ketdim, deydigan tili yo‘q. Indamas ekan, deb eshakday ishlataverish kerakmi, axir?! “Paq” etib joni chiqib ketguncha ezaverish kerakmi?! Yo‘-o‘q, siz yuragi tosh odamsiz, Qo‘chqor aka! (Sh.Boshbekov Temir xotin).

Biroq aynan yukning o‘zini ilonga qiyoslash kuzatilmaydi. Ushbu misolda individuallikni ko‘rsatuvchi yana bir jihat “Cave’s of dragon” dir. Ma’lumki, ajdar afsonaviy hayvonlar sirasiga kiradi va ingliz ertak, roman, mistik qissalarida faol ishtirok etadi. Shu boisdan qahramon

nutqida aynan ajdaho bilan bog‘liq o‘xshatishning qo‘llanilishi mutlaqo tabiiy hol.

Every man meets his Waterloo at last – William Shakespeare. Ushbu misolda implikatsiyani kuzatish mumkin. Tarixdan ma’lumki, Vaterlo jangi Napoleonning mag‘lubiyatli yurishlarini ifodalaydi. Ushbu frazaviy metafora ingliz tilidagi asarlarda uchraydi. Har bir erkak nihoyat o‘z Vaterlosini uchratadi, yetib keladi mazmunidagi ushbu metafora hayotida bir ayolga taslim bo‘lish, unga ko‘ngil qo‘yish mazmunini anglatadi.

Gaunt: the world's ransom, blessed Mary's son. (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Second, Act 2, scene 1, line 56).

Ushbu metaforik komponentda xristianlik dini payg‘ambari Iso alayhissalomga ishora qilinadi. Aytish kerakki, diniy aqidalar bilan bog‘liq metaforalarda Iso, Maryam, Muso alayhissalom obrazlari bilan bog‘liq metaforik komponentlar ingliz asarlarida faol uchraydi. Bu ham diniy e’tiqod bilan bog‘liq bo‘lib, madaniy xoslik qirrasini ko‘rsatuvchi jihatlardan biridir. Quyidagi misolda ham ayni shu holatni kuzatish mumkin:

*Gaunt refers to Jesus, son of Mary, as the redeemer of the world
Malcolm: Let's make us med'cines of our great revenge, / To cure this
deadly grief*

(William Shakespeare, Macbeth, Act 4, scene 3, line 25).

Demak ingliz dramatik diskursida individual etnik xoslangan metaforalar millatning tarixi, e’tiqodi turmush-tarzi bilan bevosita bog‘langan. O‘zbek dramatik diskursida voqelangan metaforalarga xos

bo‘lgan asosiy jihat sifatida subyektiv bahoning ustunligini ta’kidlash lozim. Umuman olganda, so‘zlovchining obyektiv borliqqa yoki o‘z nutqiga o‘zi tomonidan belgilanadigan salbiy yoki ijobiy munosabati grammatikada modallik kategoriyasi termini bilan yuritiladi⁷³. Subyektiv baho formalari o‘zbek tilshunosligida turli xil terminlar bilan yuritilmoqda. A.N.Kononov, Z.Ma’rufov, A.M.Shcherbak, M.Shamsiyeva, K.Sharafiddinova, R.Hadyatullayevlar bu hodisaga nisbatan “subyektiv baho formalari” terminidan foydalanadilar⁷⁴. U.T.Tursunov, A.M.Muxtorov to‘g‘ridan to‘g‘ri “baho formalari”, sifatlarga kelganda esa “subyektiv baho formalari” terminini qo‘llaydilar. Ikkinchi guruh olimlari o‘z ishlarida subyektiv baho formalariga nisbatan “kichraytish-erkalash” affikslari, “kichraytish-erkalash qo‘shimchalari”, “kichraytish-erkalash formalari” terminlarini ishlatadilar. S.Usmonov, R.Ikromova o‘z tadqiqotlarida subyektiv baho formalarini “modal formalar” termini bilan ataganlar.

Alomat (nozli): Unaqa qaramang odamga... Biram nigohingiz o‘tkirki.

Qo‘chqor: To‘g‘ri-yu, lekin... (Alomatga qarab qo‘yib.) Eshitmaydi-a? Shu, desang, uy ishlarini-ku qilaveradi, gap undamas. Ishdan charchab kelganingdan keyin mundaq yostiqlarga yonboshlab, dunyoning past-balandidan suhbat qursang, a? Haligidaqa ikki og‘iz shirin so‘z bilan choy uzatsa, a? Charchog‘lar yozilib, dildagi

⁷³ Ўзбек тили грамматикаси. 1. – Тошкент, 1975, 585-бет.

⁷⁴ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.–Л., 1960, с. 125; Маъруфов З. Ўзбек адабий тилида от ясовчи суффикслар, «СССР Фанлар академияси Ўзбекистон филиалининг асарлари». II серия. Филология. 2-китоб. – Тошкент, 1941, 117-бет; Маъруфов З. Сўз состави, от ва сифат. Тошкент, 1956, 42-бет.

g‘uborlar forig‘ bo‘larmidi-i, degan gap-da bizniki. Vey, yaxshi gapning gadosimiz, Olimtoy.

Metaforik turkumning har bir a‘zosi o‘ziga xos semantik va lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo‘ladi, lekin u shu qatorning boshqa a‘zolari bilan ham bog‘lanadi va ularni birlashtiruvchi bu o‘zgarmas o‘zak metaforik ma‘no shakllanishi uchun ma‘lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Metaforada, bizningcha, voqelik, obraz va ongning “ajralmas uyg‘unlashuvi” mavjud. Taqqoslash belgisi va semantik invariantning majoziy paradigma, metaforik model sifatida qarama-qarshiligi mutlaqo to‘g‘ri emas. Metaforaning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishning kaliti metaforadagi murakkab, ba‘zan qarama-qarshi o‘zaro ta‘sirni, taqqoslash belgisi va unga hamroh bo‘lgan assotsiativ iz bilan bog‘liqligini va ushbu metaforik ma‘noning metaforadagi o‘rni bilan belgilanadigan narsalarni ochib berishdir.

Demak, har bir metaforada milliy madaniyatning muayyan izlari mavjud bo‘ladi va u muayyan pragmatic mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek dramatik diskursida metaforalar oilaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma‘noda oila, oila a‘zolarining xatti-harakati xulq atvori bilan bog‘liq metaforalar faol uchraydi:

***Farmon:** Men pulni hididan bilaman. Bilib qo‘y, pulni yutvorsang ham topaman. Ko‘zlarim rengen bo‘lib ketgan. Bor, ketaver. (Mahkam asta keta boshlaydi.) Sotti, 25 so‘mni ham yoz!*

“Ko‘zlarning rengen bo‘lib ketishi” – sinchkovlik, hamma narsani miridan-sirigacha bilishga ishora qiladi. Bu orqali o‘zbek onalari, qaynonalarining obrazi chiziladi.

Usta Boqi: “O‘tmish sarqiti bo‘lgan bu yaramas odat xanuzgacha baxtiyor oilalarimizga zahar solib keladi”.

“oilalarimizga zahar solib keladi”. Metafora komponenti asriy oilaviy qadriyatlarni buzuvchi, oilaviy baxt-saodatga daxl qiluvchi mazmunida qo‘llaniladi. Bunda ham oilaviy qadriyatlar yetakchi o‘rindaligini ko‘rish mumkin.

Yuqorida ingliz dramatik diskursida diniy e‘tiqod, afsonalar bilan bog‘liq metaforalar sirasida mistik obrazlar, xristianlik dini aqidalari tasvirlanishini misollar asosida ko‘rib o‘tdik. O‘zbek milliy madaniyatida esa ruh, jin, arvoh, do‘zax, shayton singari obrazlar metaforik komponentni tashkil etadi.

§3.2. Ingliz va o‘zbek dramalarida pragmatik xoslangan metaforalarning xususiyatlari

Dramatik asarlarning ilmiy-nazariy asoslari, janr xususiyatlari borasida so‘z yuritganda, shuni alohida qayd qilish kerakki, dramatik asarlarning poetikasiga oid qarashlar nisbatan qadimiyroq tarixga ega. Biz Aristotelning “Poetika”sini adabiyotshunoslik tarixidagi ilk manba sifatida e‘tirof etamiz. Biroq antik dunyo dramaturgiyasi bo‘yicha Aristotelga qadar muayyan ilmiy-nazariy fikrlar ma‘lum me‘yorga solingan, janr poetikasi bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan edi. Albatta, bu asarlarning ayrimlari haqida ma‘lumotlar uchrasa-da, bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Masalaning boshqa bir jihati ham borki, keyingi asrlarda yaratilgan va bugungi kunda yangilanishlar hamda o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirayotgan dramatik asarlarning barchasiga munosabat bildirishda Aristotelning “Poetika”sidan javob izlash unchalik ham to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Vaholanki, bugungi kunda dramaturgiyaning radio, kino, televideniye bilan chambarchas bog‘liq janrlari, shakllari yuzaga keldiki, bularning ilmiy-nazariy muammolarini o‘rganish uchun yangidan yangi tadqiqotlar olib borish zarurati sezilmoqda. O‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyot tendensiyalari, unda yetakchilik qilib kelayotgan g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar, undagi inson talqini muammolarini o‘rganishda yetuk nazariyotchi olimlar, dramashunoslarning qarashlariga tayanish ko‘zda tutiladi, maqsadni amalga oshirishda, muayyan xulosalarga kelishda qo‘l keladi. Shu tufayli mazkur bobda masalaning ayni jihatlariga ko‘proq e‘tibor qaratamiz.

Dramaturgiyada insonni qanday tasvirlash, qay tarzda talqin etish masalalari eng qadimgi dramaturglar bahs-munozaralarining bosh mavzusidir. Sofokl insonning qanday bo‘lishi kerakligini tasvirlash san‘atning birinchi vazifasi deb hisoblagan bo‘lsa, Yevripid inson qanday bo‘lsa, shundayligicha tasvirlash kerak deya uqtiradi⁷⁵. Sofokl tragediyalarida hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat hamisha ham muvofiq kelavermaydi, biroq Yevripid asarlarida san‘at kundalik hayot haqiqatiga yaqinlashadi, tomoshabinlar boshdan kechirib kelgan voqea-hodisalarga o‘xshab ketadi⁷⁶.

Tilshunoslarning zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik paradigmasi doirasidagi metaforalarni ko‘rib chiqqan holda, boy empirik materiallar bilan qo‘llab-quvvatlangan holda, metafora nafaqat tilning tarkibiy qismlaridan biri, balki nutqning tarkibiy elementi hamdir, degan xulosaga kelishdi. Shunday qilib, metafora tufayli odamlar voqelikni qanday o‘ylashlari, tahlil qilishlari, u va uning

⁷⁵ Аристотель. Поэтика. – Тошкент, Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 123.

⁷⁶ Аникист А. Теория драмы от Аристотеля до Лессинга. – М., Наука, 1967. – С. 11.

obyektlari to'g'risida mulohazalar qurishlari va ifodalashlari, shuningdek, ma'lum bir til madaniyatining o'rtacha vakili ongida dunyoning qanday tasviri muhrlanganligi aniq bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan metaforaning ikki tomonlamaligi, bir tomondan, u xalqning lingvistik tajribasidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, til ijodkorligi uchun imkoniyat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Til o'yini, neologizmlar va tilning estetik tomonining takomillashuvini qayd eta oladi. Ikkala holatda ham metafora atrofimizdagi dunyo va undagi tajribamizning dirijyori ekanligi ayon bo'ladi. Metaforaning asosiy vazifasi lingvistik va madaniy jamiyat vakillariga tanish olamga boshqacha qarash imkoniyatini berish, shu bilan birga tanish obyektlarda tashqi obyektlar va yangi qirralarni kashf qilishdir. Tilshunoslar, tarjimonlar, faylasuflar, psixologlar, filologlar, kognitiv olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar metafora tilning rivojlanishi va uning imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, fikr va tajribani uzatishda ulkan rol o'ynashini isbotlaydi. O'tmish va hozirgi boy madaniy va tarixiy tajribani umumlashtirgan holda odamlar ko'p hollarda metaforalarni qo'llash orqali muloqotga kirishadilar, bu borada o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va tajribalarini oshkor qilish va tinglovchiga yetkazishga yordam beradi. Birinchidan, tarixiy tilshunoslik sohasida shakllangan qarashlarga ko'ra, so'z ma'nolarining rivojlanishi ko'p jihatdan metafora hodisasi bilan bog'liq, deb hisoblanadi.

Ma'lumki, hind-yevropa oilasining ko'plab tillari so'zlari o'zlarining ko'p ma'nosiga ega bo'lib, aniq jismoniy aniq obyektlar nomlarini mavhum tushunchalar doirasiga metaforik tarzda o'tkazishga

bog‘liq. Shunday qilib, davom etayotgan semantik o‘zgarishlar – asl ma’noning torayishi va kengayishi, birinchi navbatda, uni keyingi tushunish obyektini dastlabki vizual idrok etish bilan bog‘liqligi muhim sanaladi va bu ikki jarayonning tutashgan joyida so‘z ma’nosi yangi semantik ma’nolarni o‘zlashtirishi yoki ularni yo‘qotishi mumkin. Kognitiv lingvistika va lingvopragmatika o‘rtasidagi bog‘liqlik metaforani o‘rganishning antropotsentrik yo‘nalishidir. Majoziy so‘zni o‘rganishga kognitiv-pragmatik yondashuvning asosi sifatida nafaqat lingvistik shakllar va moddalarning munosabati va birligi, balki trixotom birlik ham taxmin qilinadi: til - og‘zaki aloqa - shaxs. Asosiy e’tibor lingvistik vaziyatlarga qaratiladi, bunda shaxs jonli nutqning subyekti, nutqiy tafakkur obyektini, badiiy asardagi personaj sifatida ishtirok etadi⁷⁷. Tilning faol talqini kognitiv-pragmatik tadqiqotning asosiy g‘oyasidir, chunki til ontologik jihatdan inson faoliyati mahsuli hisoblanadi.

Metaforani o‘rganishga kognitiv-pragmatik yondashuv doirasida asosiy e’tibor muallif va qabul qiluvchi faoliyatining shaxsiy va ijtimoiy jihatlariga qaratilgan. Shu munosabat bilan badiiy adabiyotda metafora tasvirlanganda kommunikativ jarayonning shaxsiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari hisobga olinadi. Bu uchta asosiy komponentni o‘z ichiga olgan ikkilamchi nominatsiya belgilarini o‘rganish zarurligini anglatadi: kognitiv, lingvo-pragmatik, lingvokulturologik. Metaforada aks ettirilgan eng muhim jarayonlar hayotiy tajribani kontseptuallashtirish, ya’ni bilimlarning minimal

⁷⁷ Алефиренко Н.Ф. Когнитивно-прагматическая субпарадигма науки о языке / Н.Ф.Алефиренко // Когнитивно-прагматические векторы современного языкознания: сб. науч. тр. – М.: Флинта: Наука, 2011. – С. 16–28.

tuzilmalarini taqsimlash va turkumlashtirish, ya'ni ularni kategoriyalarga birlashtirishdir⁷⁸. Bu lingvokognitiv jarayonlar konsepsiyalarning paydo bo'lishi va shakllanishida ishtirok etadi va metaforani lingvopragmatik jihatdan o'rganish imkoniyatini belgilab beradi.

O'zbek va ingliz dramatik diskursida tahlil uchun tanlangan matnlarda metafora pragmatik ma'nosining uchta asosiy jihatiga diqqat qaratish lozim:⁷⁹

- 1) ma'lumot beruvchi, tavsiflovchi;
- 2) nazorat qilish (harakatlarni boshqarish, boshqalarning fikriga ta'sir qilish);
- 3) ekspressiv.

Ushbu hissiy muloqot misolida vijdon o'rniga metaforik shakllanishning guvohi bo'lishimiz mumkin, bildirilgan har bir fikr emotsional semantikaga ega. Bu hissiy muloqotning o'ziga xos parametrlari, birinchidan, sabab – qahramonning hayajonlanish holati, his-tuyg'ular bosimi, ikkinchidan, obyekt, hissiy rag'batlantirish, ya'ni bu metaforik shakllanishni yuzaga keltiradigan xarakterdir.

Shunday qilib, taqdim etilgan metaforadan foydalanishning maqsadi ma'ruzachining boshqa xarakterga bo'lgan hissiy munosabatini va ushbu ma'lumotni qabul qiluvchiga hissiy ta'sirini tushuntirishdir. Metafora nutqda lisoniy birlik sifatida qo'llaniladi va o'ziga xos lingvistik yukni tashishga xizmat qiladi. Shuning uchun metaforaning tildagi rolini aniqlash uchun uni ajratib ko'rsatish

⁷⁸ Алефиренко Н. Ф. Фразеология в свете современных лингвистических парадигм / Н.Ф.Алефиренко – М.: Эллипс, 2008. – 271 с.

⁷⁹ Демьянков, В.З. О формализации прагматических свойств языка / В.З.Демьянков // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики. – М.: ИНИОН АН СССР, 1984. – С. 197–222.

maqsadga muvofiqdir. Rus tilshunosi V.K.Xarchenko metaforaning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi:

Nominativ funksiya. Metaforalarning nominativ funksiyasi kontesktida yaqqol namoyon bo'ladi. Nominativ funksiyaning voqelanishi ham an'anaviy tasvir vositalari, etnik xoslik elementlari bilan bevosita bog'liq. Masalan, tahlilga tortilgan dramalarda quyidagi nominativ funksiya bajargan metaforalar aniqlandi:

Usta Boqi: Mamlakatimizning territoriyasi xuddi shu yerga kelganda tugaydi. U yog'i boshqa mamlakat. Mana shu parda chegara. U yog'i xotin poshshoning yurti. Bu poshsholikning o'z qonuni, o'z urf-odatlar bor (Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni. 1-parda).

To'xta. Yig'lamang. Ammo-lekin bilasizmi, oyimning unvonlari qanaqa?

Nigora. Bilaman, shaharda u kishini General kampir deb atashar ekan.

Axborot funksiyasi. Axborotning birinchi xususiyati metafora orqali uzatilgan tasvirning butunligi, panoramasining yorqinligini namoyon etishdan iborat. U panoramali tasvirning vizual tabiatiga tayanadi va ma'lum bir leksikaning gnostik mohiyatiga yangicha qarashga majbur qiladi. Har qanday metafora uchun asos, ya'ni xomashyo sifatida, metaforik ma'nolarni yuzaga kelshida asos bo'lgan aniq so'zlar majmui olinadi. Metaforaning shakllanishi, paydo bo'lishi uchun inson keng lug'at boyligiga ega bo'lishi kerak.

Mnemonik funksiya. Metafora ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. U ilmiy-ommabop adabiyotlarda tushuntirish funksiyasini bajarish bilan bir qatorda xalq topishmoqlari, maqollari,

adabiy aforizmlaridagi janr yaratish va falsafiy tushunchalar, ilmiy nazariyalar va gipotezalardagi evristik vazifalarni ham yoritishga xizmat qiladi.

Farmon. Hukumatnikini joni qattiq. Yubormaysanmi? Otaginang shundoq Azim sher bo'lib bir gapimni ikki qilgan emas.

Matn hosil qilish funksiyasi. Metaforaning matn yasovchi xususiyatlari uning turtki berish, kengaytirish, ya'ni tushuntirish va davom ettirish qobiliyati deb ataladi. Matn hosil qilish effekti tasvir panoramasi, metafora kabi axborot xususiyatlarining natijasidir, uning tuzilishidagi obrazli aks ettirishning plyuralizmi yangi ma'nolar hosil bo'lishi natijasida shakllanadi.

Janr hosil qiluvchi funksiyasi. Metaforaning ushbu funksiyasi muayyan janrni yaratishda ishtirok etuvchi va hosil qiluvchi vazifasi sifatidagi xususiyatlari tushuniladi. Polyak tadqiqotchisi S.Gayda janr va uslub o'rtasida bevosita bog'liqlik bor deb hisoblaydi. Darhaqiqat, topishmoq va maqollar, hikoya va madrigallar, lirik she'rlar va aforistik miniatyuralar uchun metafora zarurdir.

Hissiy-baholovchi funksiya. Metafora nutqni qabul qiluvchiga ta'sir qilishning zaruriy vositasidir. Matndagi yangi metafora nutqning emotsional va baholovchi reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Konspirator funksiya. Bu metafora natijasida yuzaga kelgan ko'chma ma'noni yashirish uchun ishlatiladigan funksiya sanaladi.

Diskurs va uning tahlili bo'yicha qator izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar Sh.Safarov, A.V.Zelenshikov, N.Mahmudov, Z.Pardayevlar diskurs nazariyasining muhim tushunchalari va ularning

talqini bo'yicha o'z mulohozalarini ilgari surishgan⁸⁰. Metaforani muhokama qilish ko'pincha metafora o'z subyektlarini "ramka"ga solishini kuzatish bilan boshlanadi, bu esa tinglovchilarni ularni har qanday muayyan taklif mazmunidan tashqariga chiqadigan ma'lum bir "nur"da "ko'rishga" olib keladi. Ushbu ramka effektlari metaforalarni murakkab, ochiq, intuitiv, hissiy va xayoliy jihatdan uyg'otuvchi kognitiv holatlarni uzatish uchun kuchli vositaga aylantiradi. Bunda salbiy yoki ijobiy mazmunga ega assotsiatsiyalar paydo bo'ladi:

Ijobiy mazmunga ega:

Ma'mur. Kampir erib ketdilar, yuz gramm choy tutinglar.

Xakim. Oyim shunaqalar, bir pov etib yonadilaru darrov o'chadilar

Salbiy mazmunga ega:

Farmon (To'xtaga). Ermisan, nimasan? Xotining akalaring oldida yalangoch yursa ham eting jimirlamaydi-ya. Aslida sen o'zingni xudo urgan. Opkir uyga. Etagi uzunroq ko'ylak kiydir. Ko'kragi o'lg'urga ham bir nima yopib qo'y.

Bir qator nazariyotchilarning ta'kidlashicha, bunday majoziy haqoratlar hatto inkor etuvchi tinglovchilarda ham o'ziga xos "sheriklik" ni keltirib chiqaradi, bu esa inkor etish samaradorligini pasaytiradi. Ted Koen sheriklik tushunchasini kiritib, metaforalarni shaxslar o'rtasidagi yaqinlikni rivojlantiruvchi vositalar sifatida tavsiflaydi.

Farmon. Tag'in qanaqa shum xabar topib kelding? Tinchlikmi?

⁸⁰ Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 320–119; Зеленшиков А.Б. Пропозиция и модальность. Изд-во С.-Петербург. ун-та, 1997. – С. 208–209; Н.Махмудов. Пресуппозитсия ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – Б.29.; Пардаев. А.Б. Дискурс хақида айрим мулоҳазалар, 1-бет; З.Пардаев. Прагматик Лингвистика. – Самарқанд, 2013. – Б. 104. 37;

Usta Boqi. Endi shunaqa bo‘p qolibdi. Xafa bo‘lmaysiz-da.

Farmon. Nima bo‘ldi?

Usta Boqi. Gazetada jinday turtib o‘tdi.

Farmon. Nima bo‘ldi?

Usta Boqi. Sizni.

Farmon. Meni? O‘qi, o‘qichi!

Usta Boqi. (o‘qiydi). “Keyingi vaqtlarda qaynonalar bilan kelinlar tezda jiddiy konfliktlar sodir bo‘lmoqda...”

Yuqorida ta’kidlanganidek, metafora keying voqelikka ishora qiluvchi signal sifatida voqelanadi va keyingi tafsilotlar mundarijasini belgilaydi.

Farmon. Sekinroq o‘qisang-chi. Kar emasman, eshitaman.

Yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda badiiy matnda diskursni shakllantiradigan salbiy yoki ijobiy mazmunga ega assotsiatsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish lozim:

Propozitsiya – qator gaplarning paradigmatic qayta o‘zgarishlar bilan aloqador, fikrlarning tasdiq, buyruq, so‘roq kabi turli kommunikativ vazifalari bilan o‘zaro bog‘liq invariant ma’nolaridir. U nutqiy vaziyatni ifodalab, tildagi lisoniy hodisalar vositasida tavsiflash, so‘zlovchi yoki yozuvchini fikr ifodalashda asosli dalillar bilan qurollantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. N.Mahmudov: “Gap semantikasi obyektiv va subyektiv ma’nolar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik” degan qarashga moyillik bildiradi. Gapning obyektiv mazmuni deganda, gap orqali ifodalangan va inson ongida aks etgan obyektiv voqelikni tushunadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo‘nalishida propozitsiya atamasi bilan

nomlanadi. Propozitsiya ma'lum gap semantikasida o'z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa hisoblanadi"⁸¹. Umuman olganda, propozitsiya bilish jarayoni bilan bog'liq baholash xarakteridagi tushuncha bo'lib, semantik jihatdan ifodalanayotgan fikrning voqelik faktlariga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi.

A.V.Zelenshikov propozitsiyaning "haqiqiy ma'noni, gapning mazmuni bo'la oladigan mavhum mohiyatni, so'zlovchining intensional (mental) holatini ifodalovchi sifatida qarab, shunday xulosaga keladiki, propozitsiya har qanday holatda ham tilning funksional tabiatini aks ettiradi va gapda deskriptiv yoki propozitsional konsept modusi sifatida ifodalanadi. Fikrning haqiqiy ma'nosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan propozitsiyaning namoyon bo'lish usulini belgilashda so'zning voqelikka mos kelish yoki kelmasligiga bog'liq holda rost yoki yolg'on sifatida qaralishi, amalga oshish yoki oshmasligiga e'tibor beriladi"⁸².

Propozitsiyaga qarama-qarshi ravishda presuppozitsiya hodisasi pragmatikada asosiy o'rin tutadi. Presuppozitsiyaning o'rganilishida har bir muallifning o'ziga xos yondashuvini ko'rish mumkin. Bunday yondashuvni presuppozitsiya hodisasiga bergan ta'riflarda, tasniflarda va uning tabiatini belgilashda ko'rishimiz mumkin. Ularning barchasida gapning to'g'ri qo'llanilishi va to'g'ri anglanishi uchun zarur bo'lgan va oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyatni o'z ichiga olish xususiyatidan kelib chiqilgan holda tadqiq etiladi. Bunday har xillikni, bizningcha, shu hodisaning o'zidan

⁸¹ Нурмонов А. Шакл ва мазмун муносабати – лингвистик тадқиқотлар асоси. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010 №4, – Б.29.

⁸² Зеленщиков А.В. Пропозиция и модальность. СПб.: Изд-во С.-Петербург. ун-та, 1997. – С. 208–209.

qidirish kerak bo‘ladi. Presuppozitsiya hodisasi nihoyatda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u har qanday gapda u yoki bu tarzda mavjud bo‘ladigan murakkab hodisadir. “Presuppozitsiya gapning to‘g‘ri qo‘llanilishi va to‘g‘ri anglanishi uchun zarur bo‘lgan va so‘zlovchi haqida tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyat kabi murakkab elementlarni o‘z ichiga olganligi bilan ham keng ko‘lamda o‘rganilishi kerak bo‘lgan hodisa hisoblanadi.”⁸³

Presuppozitsiyani asosiy mantiqiy xulosa, mazkur fikrning rostligi a) semantik jihatdan anomal bo‘lmasligi (semantik presuppozitsiya); b) mazkur kontekstda o‘rinli bo‘lishi (pragmatik presuppozitsiya) uchun shart bo‘lgan ma’noviy qism sifatida talqin qilish mumkin. M.L.Makarovning fikricha, “presuppozitsiya – fikrning kognitiv sodir bo‘lishi, uning tabiati, presuppozitsiyaning tahlil qilinishiga imkon beradigan atribut”⁸⁴. Matn tahlili uchun fikrning o‘rinli va muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlovchi pragmatik presuppozitsiya muhim hisoblanadi. Uning asosida – *aloqachilarning umumiy kognitiv zahirasi* (kontekst propozitsiyalarining umumiy to‘plami – muloqot vaziyat qatnashchilarining birgalikdagi faoliyati qiyin kechadigan yoki imkonsiz bo‘lgan umumiy presuppozitsiyalar zahirasi) yotadi.

A.K.Mixalskaya fikricha: “Pragmatik presuppozitsiya – so‘zlovchining ma’lum adresat uchun ma’qul keladigan fikrlarni

⁸³Раҳимов У. Пресуппозицияни ўрганишнинг назарий асослари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. – Андижон, 2012. 259-бет.

⁸⁴ Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – М., 2003. – С.135.

ifodalash vaziyatida qo‘llaydigan gaplaridir”⁸⁵. Bunday yondashuvda propozitsiya va presuppozitsiya orasida dialektik bog‘liqlik borligini P.S.Stolneyker “Propozitsiya agar so‘zlovchi kontekstning boshqa ishtirokchilari ham shunday deb hisoblashiga asoslanib, uning rostligini tabiiy deb hisoblasa, “pragmatik ma’noda presuppozitsiya hisoblanishini, unga nutqiy muomalada namoyon bo‘luvchi murakkab qiziqish, moyillik” sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lishi”ni qayd etadi⁸⁶. Demak, presuppozitsiya so‘zlovchi tasdiqlari, savollari, buyruqlari kabi nutqiy harakatlari asosida belgilanadi. Matnda presuppozitsiya hodisasi ham alohida o‘rin egallaydi. Presuppozitsiya mantiqdan kelib chiqqan va tilshunoslikda juda mashhur bo‘lgan tushunchadir. Presuppozitsiyalar 1892-yilda nemis matematigi, mantiqi va faylasufi G.Frege (“Ma’no va denotatsiya”) tomonidan qo‘llangan. Keyin Oksford maktabi vakili P.F.Strouson ushbu hodisani o‘rganib chiqdi va ushbu atamani kiritdi. 1960-yillarning oxiri E.V.Paducheva “presupposition boom” deb ataydi, chunki hozirgi vaqtda G‘arbda ushbu muammoga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Ma’lumki, presuppozitsiya pragmatik hodisa sifatida til belgisining nutq bilan bog‘liq jihatlarini namoyish qiladi. Ayrim mualliflarning fikricha, presuppozitsiyaga pragmatik hodisa sifatida qaralishi shu ma’nodaki, u so‘zlovchining gapda xabar berilayotgan yoki so‘ralayotgan voqelikka nisbatan muayyan nuqtayi nazarini aks ettiradi va “hukmning tabiiy asosi” “so‘zlovchilarning umumiy bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi” sifatida talqin etiladi. Ilmiy

⁸⁵ Михальская А.К. Педагогическая риторика: история и теория. – М., 1998. – С.32.

⁸⁶ Столнейкер Р.С. Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. -Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – С. 419 – 438.

manbalarda presuppozitsiya bu tarzda turlicha nomlangan bo'lsa-da, til birligining ishorasi asosida gapda yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholandi.

Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo'lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko'rinishini anglatadi. Bunday tashqi ishora tilda moddiy ifodachisiga ega bo'lganda, presuppozitsiya lingvistik xususiyat kasb etadi. Bu jihatdan, lingvistik presuppozitsiyaning gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli.

Ma'lumki, shu kunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, prezumpsiya, tagbilim, ichki ma'no, monema, pragmatik ma'no, sigmatik ma'no terminlari qo'llandi. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapda muayyan til birligining ishorasi asosida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So'zlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda, presuppozitsiyaga yo'l ochiladi. Presuppozitsiyaning gapda ifodalanishi muayyan nutqiy vaziyatni, nutq egalarining til ko'nikmalarini taqozo etadi. Presuppozitsiya nutqda turli sintaktik qurilmalar orqali yuzaga chiqadi. Bunday sintaktik qurilmalar bevosita propozitsiyani ham aks ettiradi.

Ma'lumki, lingvistik presuppozitsiyani o'rganishda tilshunoslarning asosiy e'tibori unga ishora qiluvchi til vositalariga qaratildi. Negaki presuppozitsiyaga ishora qiluvchi til birliklarining lisoniy tadqiqi gap mazmuniy tuzilishidagi o'ziga xos o'zgarishlarni aniqlashda alohida o'rin tutadi. Har bir tilning lingvistik

presuppozitsiyaga ishora qiluvchi o‘z tashqi signallari mavjud. U.Rahimov lingvistik presuppozitsiyaning o‘zbek tilidagi tashqi signallarini quyidagicha tasniflaydi: a) leksik vositalar; b) morfologik vositalar; c) sintaktik vositalar.

Presuppozitsiyalar nutqning oldingi va keyingi qismlarini bog‘lab turuvchi vosita deyish mumkin. Demak, bu ma‘nodagi presuppozitsiya gapning lingvistik shakli bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning mazmunini aniq ifodalaydi. Y.V. Paduchevaning ta‘kidlashicha, “Presuppozitsiyalar ma‘lum bir tilning so‘zlari va konstruksiyalari ma‘nosining an‘anaviy tarkibiy qismlaridir (asosan, ma‘lum bir so‘zning ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan taxmini boshqa tilda o‘z ekvivalentiga ega bo‘lmasligi mumkin) va muloqotning umumiy qonunlari sababli paydo bo‘lgan emas”⁸⁷. Presuppozitsiya mohiyatan implikatsiyaga yaqin turadi. Aksar hollarda presuppozitsiya va implikatsiyaning gapdagi o‘rnini farqlash qiyin tuyuladi. Yuqorida keltirilgan misolda ham presuppozitsiya, ham implikatsiya, nutqiy subyektiv baho bilan birga ishtirok etadi. Implikatsiyani gapning umumiy mohiyati orqali farqlash mumkin bo‘lsa, presuppozitsiyani aniqlashda muayyan so‘z, so‘z birikmasi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Qazisan qartasan naslingga tortasan. Tomiringdan uzilib qayoqqa ham borarding? (Said Ahmad. Kuyov).

Qahramon nutqidagi implikatsiyani ichki mazmuni bilan birga yoyiq ifodalaganda quyidagicha hosil bo‘ladi: *Sening naslingda buyuk insonlar yo‘q, demak sen ham buyuk bo‘lolsan.*

⁸⁷ Арутюнова Н.Д. Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1985. – Вып. 16. – С. 8-42.

Implikatsiya aytiladigan fikrni to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalamasdan yashirsh, ishora qilish orqali tushuntiradi. Sharq xalqlari madaniyatida tag ma’no, qochirimlar, istehzo orqali fikrni bayon etish uslubi mavjud. Shu boisdan sharq xalqlari badiiy asarlarida implikatsiyaning qo‘llanilishi faol va bu tabiiy hodisa sifatida qaraladi. Nutqning keyingi bosqichida esa presuppozitsiya ishtirok etadi:

Yana o‘zini buyuklikka daxldor his qilyabdimi? Yana so‘zini qo‘llash orqali qahramon oldingi voqelikka ishora qiladi. Yana bir xarakterli jihati, implikatsiyaning ironiya mazmuni bilan ifodalanishini ko‘rish mumkin. Presuppozitsiyani mantiqiy termindagi mohiyatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, matndagi birliklarning o‘zaro bog‘liqligini, matn tarkibidagi gaplar o‘zidan oldingi gap bilan mazmunan va grammatik bog‘lanish hosil qilishini ifodalaydi.

Tilshunoslikdagi presuppozitsiyalarning turlari tilshunoslar tomonidan ko‘rib chiqish jihati bo‘yicha farqlanadi – kognitiv-pragmatik, madaniy-lingvistik, mantiqiy, ammo ba’zi tasniflarda tasniflash uchun yaxlit yondashuv qo‘llaniladi. V.Z.Demyankov xorijiy mualliflarning tadqiqotlariga asoslanib, quyidagi presuppozitsiya tipologiyasini taklif qildi: mantiqiy presuppozitsiyalar, pragmatik presuppozitsiyalar, semantik presuppozitsiyalar⁸⁸. Kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan, presuppozitsiyalarni situatsion va lingvistik kabi turlarga bo‘lish mumkin:

Keng (umumiy) presuppozitsiya – odamlarning atrofdagi dunyo haqidagi umumiy bilimlari. Matnda etishmayotgan ma’lumotlar hammaga ma’lum bo‘lgan barqaror mavzu munosabatlari asosida

⁸⁸Демьянков В.З. Общая теория интерпретации и её приложение к критическому анализу метаязыка американской лингвистики 1970-80-х гг.: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – М., 1985. – 32 с.

osongina tiklanadi. Masalan, “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” jumlasini hech qanday zararsiz “Bahorni sog‘ingandirsan?” bilan almashtirish mumkin, chunki bahorni hamma birday sog‘inishini deyarli hamma biladi.

Tor (xususiy) taxmin – ma’ruzachilar ega bo‘lgan ushbu muayyan vaziyat bilan bog‘liq bilim.lingvistik presuppozitsiya - tilning o‘zida mavjud bo‘lgan bilim. Xuddi shu tarzda V.V.Krasnix quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

1) mikropresuppozitsiya (individual kognitiv makonga mos keladi);

2) ijtimoiy, doimiy presuppozitsiya (kollektiv kognitiv makonga to‘g‘ri keladi);

3) makropresuppozitsiya (kognitiv asosga to‘g‘ri keladi).

Y.V.Paducheva esa pragmatik va semantik presuppozitsiyalarni ta’kidlab, ularni faktik,kategorik va ekzistensial kabi guruhlariga bo‘lib tasniflashni taklif qiladi. Presuppozitsiya bayonotni asoslashga yo‘naltirilishi mumkin. Bunday holda qo‘shimcha ma’no argumentativ vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Kategorik presuppozitsiyalar sirasiga semantik muvofiqlikka cheklovlar, predikatning qo‘llanilishi sohasidagi aktantning joylashishiga oid predloglarni kiritish mumkin. Masalan, “lekin faqat qalin teraklar haqiqatni bilardi” jumlasida “bilmoq” fe’lining predmeti jonliligining presuppozitsiyasi buzilgan⁸⁹. Kategorik presuppozitsiyalar ko‘chma ma’noli birikmalar tarkibida uchraydi.

⁸⁹ Лингвистический энциклопедический словарь, статья «Пресуппозиция». – М., 1978. – С. 26.

Asqar. Bu bir taktika. Oyim arslonga o‘xshab ish tutadilar. Bir qadam orqaga chekinib turib, sakrab hamla qiladilar.

Komil. E, qo‘ysalaring-chi. Yoshlaring bir joyga borib qoldi. Shuncha ichdilaring, shoxlaring chiqdimi?

Ma‘mur. Obbo siz-ey. Doim shunaqa suv qo‘shilmagan gaplarni topasiz.

Kategorik presuppozitsiyada ko‘chma ma‘no orqali haqiqatga ishora qilinadi. Yuqoridagi misolda “*arslonga o‘xshab ish tutish*” – avval bildirmay so‘ngra birdan o‘z muddaosini bajarish, “*suv qo‘shilmagan gaplar*” – o‘ziga xos, hali biror joyda ishlatilmagan mazmunida. Gomer va Tolstoylarning “bozor narxi” emas, qadr-qimmatiga ishora qilinadi.

Ekzistensial presuppozitsiyani biroz tushuntirish mavhum. Bunda ishora obyektning mavjudligi va o‘ziga xosligiga oidlikni anglatadi:

Farmon (shubhalanib). Bu xotinning ichida bir dardi bor. Bashorat kelinim aytganday: “Bir balosi bo‘lmasa shudgorda quyruq na qilur”. (Xotinga.) Ishqilib o‘g‘lingiz tinch-omon yuribdimi? Bunda subyektning mavjudligi aniq bo‘lsa (u dunyoga kelgan), bir vaziyat, muammo borligiga ishora qiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, har xil turdagi presuppozitsiyalarning tabiati va ularning tasnifi bo‘yicha ham bir qator nazariyalar va qarashlar mavjud. Dramatik diskursda presuppozitsiyaning ifodalanishi muallifning kommunikativ maqsadini namoyon qilish, nutqiy akti belgilash funksiyalari bilan yuzaga chiqadi.

§.3.3. Ingliz dramalarida lingvapragsmatik xoslangan metaforalarning diskursiv talqini.

Tilning ifoda vositasi sifatida metafora antik davrdan boshlab e'tiborni tortdi. Metafora hodisasining eng ko'zga ko'ringan mutafakkirlari Aristoteldan (qadimgi filologiya) tortib Ruyakiygacha (qadimgi hind filologiyasi), J.J. Russo, Gegel, E.Kassirer va boshqalar tadqiq qildilar. Vaqt o'tishi bilan metaforik konstruksiyalarga munosabat sezilarli darajada o'zgardi. Antik va o'rta asr falsafasida metaforaning til va matndagi o'rni, uni to'liq inkor etish, nutqning tinglovchiga hissiy ta'sirini kuchaytiruvchi yordamchi, ikkilamchi vositalar roli haqida turlicha qarashlar mavjud edi. Metafora ob'ektlarning bir sinfiga xos belgilarni boshqa ob'ektlar sinfiga yoki ulardan biriga – metaforaning asosiy sub'ektiga mutanosiblikda tanlaydi. Metaforik ma'no uch komponentni bilishdan kelib chiqadi: denotatlarning ikki kategoriyasi va metaforizatsiya jarayonida tilga olingan denotat xarakteristikasi. Metaforada ishtirok etgan denotatlar kategoriyasining xarakteristikasi turli tillarda o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Odatda, metafora til egalarining ushbu ob'ektlar kategoriyasi haqidagi umumiy, xususan, mifologik, madaniy, emotsional baholi konnotatsiyalarini o'z ichiga olgan tasavvurlari zaxirasiga oid bo'ladi. Aristotel e'tiborining asosiy obykti ham muammoning amaliy tomoni metaforaning nutqda qo'llashdan maqsad va hosil qilish usullaridir. Uning asarlarida metaforaning funksional jihatini tahlil qilish, tildagi metafora faoliyatining quyidagi vazifalariga e'tibor qaratadi:

Metaforaning estetik vazifasi. Aristotelning fikricha, metafora estetik hodisa sifatida o'quvchida ijobiy his-tuyg'ular uyg'otish uchun

mo'ljallangan. Metafora nutqni badiiy tarzda ifodalaydi, yangilik va ajablanish tuyg'usini uyg'otadi. Antik davrda go'zallik estetik jihatdan ifodali ko'rinadigan va san'at tushunchasining sinonimi bo'lib xizmat qiladigan barcha narsalarni qamrab oladi deb tushunilgan.

Metaforaning psixologik vazifasi. Aristotelning fikricha, metafora insonning idrok etish jarayonini jadallashtiradi, dunyoni psixologik barqarorlik muhitiga aylantiradi. U tez-tez ishlatiladigan so'zlarga asoslanadi va uzatiladigan ma'lumotni tasvirlar shaklida vizual tarzda taqdim etishga yordam beradi. Metafora jonsiz narsalarni jonli tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Metaforaning kognitiv vazifasi. Bu vazifa, birinchi navbatda, uning tub ma'nosini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Metafora mazmuniy bo'rttirishlardan xoli va ularni ixcham ifodalashga yordam beradi. Metafora nutqni yorqin va ravshan ifodalashga intiladi va konsepsiya aloqasini o'rnatadi. Tarjimashunoslikda kognitiv va psixolingvistik yo'nalishning taraqqiyoti natijasida tarjimaning adekvatligi, asl nusxaga mosligi, avvalambor, til o'rtasidagi farqlarni tushunishga emas, balki muallif matni mazmun-mohiyatini tushunish, asliyat va tarjimaning konseptual mazmunidagi farqlar darajasi, kognitiv strukturasi mutanosib emasligi bilan belgilanadigan kommunikantlar ongi, ya'ni milliy o'ziga xos komponentlarning tarjima tiliga mos kelish-kelmasligini anglash bilan izohlanadi. Tarjima nazariyasida metaforalar tarjimasi mashaqqat talab etuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalaga bag'ishlangan ishlar har doim dolzarblik kasb etadi, zotan, badiiy asar tarjimoni ko'pincha metaforalarni tarjimada aynan berish borasida qiyinchilikka duch

keladi. Sifatli tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon nafaqat o‘z ona tilining kuchli bilimdoni, balki tarjima nazariyasi bo‘yicha kerakli bilimga, amaliy tarjima qilish ko‘nikmalariga hamda tarjima qilinayotgan asar xalqi madaniyati haqida ham chuqur ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Metafora ko‘p qirrali hodisadir. Metafora troplarning o‘ziga xos turi sifatida poetikada, so‘zlarning yangi ma’nolari manbayi sifatida leksikologiyada, nutq qo‘llanilishining maxsus turi sifatida tilda o‘rganiladi. Shunday qilib, G‘arb tilshunosligida metaforaning o‘rnini bosuvchi, qiyosiy, interaksionistik va kognitiv nazariyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Stilistik figura sifatida metafora ko‘plab funksiyalarga ega, ular orasida asosiylari ajralib turadi:

- ikki o‘xshash bo‘lmagan narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash va yangi ma’no hosil qilish;

- tilning lug‘at boyligini oshirishda uslubiy bo‘yoqdorlikni kuchaytirish, unga ekspressivlik berish (so‘z yasalishi va stilistik funksiyalari);

- “obyektga (tushunchaga, hodisaga) qandaydir xususiyatni yoki unga boshqacha tarzda bog‘lash mumkin bo‘lmagan xususiyatlar to‘plamini “nisbatlash”;

- tirik mavjudot va narsalarni rang-barang tasvirlash, (tasvirlangan) personajlarning axloqiy portreti va ruhiy holatini chizish, ijtimoiy hayot faktlarini tushuntirish, san’at, falsafa, ijtimoiy hayotga oid g‘oyalarni ishonchli tarzda taqdim etish va hokazo. Metaforalar keng ko‘lamli maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan vositalar sifatida tavsiflangan, jumladan, tushuntirish, umumlashtirish,

nuqtayi nazarni qo‘llab-quvvatlash, tasvirlash, tushuntirish yoki ishontirish kabilarni o‘z ichiga oladi⁹⁰. Adabiyotda metaforik birliklarning ikkita vazifasi eng muhim yoki umumiy funksiya sifatida tahlil qilingan, ya’ni tushuntirish va ishontirish. Biroq, bu ikki funksiya ko‘pincha bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan ikkita maqsad sifatida alohida ko‘rib chiqiladi.

Metaforalardan unumli foydalanish muloqot va ritorikaning muhim jihatlaridan biridir, chunki metafora har bir kontekstni aniq va tushunarli holda tavsiflaydi. Metaforalar muloqotning ishonarliligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Metaforik iboralar hissiy funksiyaga ega deb hisoblanadi, chunki ular his-tuyg‘ularni va shaxslararo yaqinlikni uyg‘otish uchun ishlatilishi mumkin⁹¹. Ishontirish effektlari kognitiv nuqtayi nazardan ham batafsil ifodalanadi. Metaforik iboralar, odatda, tahlil qilish qiyinroq deb hisoblangan (Searle 1979), shuning uchun metaforaning kognitiv funksiyasida yangi ma’no hosil qilishning turli yo‘llari orqali so‘zning asl ma’nosi o‘zgarishga yuz buradi va insonga estetik ta’sir kuchi ortadi⁹².

Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda kognitiv yondashuv yetakchi o‘rinni egallaydi, chunki u murakkab va zamonaviy tilshunoslikda mavjud bo‘lgan metaforani o‘rganishning barcha yondashuvlarining afzalliklarini o‘zida mujassam etadi.

⁹⁰ Semino, E., Demjén, Z., & Demmen, J. (2016). An integrated approach to metaphor and framing in cognition, discourse, and practice, with an application to metaphors for cancer. *Applied Linguistics*, 39(5), 625 – 645. <https://doi.org/10.1093/applin/amw028>.

⁹¹ Bowes, A., & Katz, A. (2015). Metaphor creates intimacy and temporarily enhances theory of mind. *Memory and Cognition*, 43(6), 953 – 963. <https://doi.org/10.3758/s13421-015-0508-4>.

⁹² Carston, R. (2002). Metaphor, ad hoc concepts and word meaning - more questions than answers. *UCL Working Papers in Linguistics*, 14(2002), 83–105.

Metaforalarning uchta sinfi mavjud bo‘lib, ularda ma’noning u yoki bu pragmatik komponenti ustunlik qiladi. Birinchi guruhga intensiyali metaforalar kiradi. Ushbu tipdagi metafora ma’noning pragmatik komponentini ifodalaydi. Bunda obyektning xususiyatlari metaforik mazmunda aniq ifodalanadi. Boshqacha aytganda, bu guruhga mansub metafora so‘zning bevosita nominativ ma’nosiga asoslanadi.

Bunda metaforalar bevosita muallifning kommunikativ maqsadini ifoda etish maqsadida ifodalanadi: *France: She is herself a dowry.* (William Shakespeare, King Lear Act1, scene1).

Leard Kordeliyani meros qilib olganida, uning ko‘pchilik da’vogarlari da’volarini qaytarib olishadi, lekin Fransiya qiroli Kordeliyaning o‘zi har qanday mahrdan qimmatroq ekanini tushuntiradi. Shu mazmunda ushbu metaforik komponent qo‘llaniladi.

Duncan: *in his commendations I am fed: / It is a banquet to me.* (William Shakespeare, Macbeth Act1, scene 4, line 5). Bunda Dunkanning kommunikativ maqsadi “maqtov eshitish” ga asoslanadi. Shu mazmunda “*in his commendations I am fed*” metaforasini qo‘llaydi.

Hermione: *one good deed, dying tongueless; g / Slaughters a thousand waiting upon.* (William Shakespeare, The Winter’s Tale Act1, scene 2, line 91). Germiona Leonteni maqtashini xohlaydi. “Venetsiya savdogari” asarida Portia tong sahada o‘z bog‘iga yorug‘lik sochayotgan sham haqida shunday o‘ylaydi: “Bu kichkina sham o‘z nurlarini qanchalik uzoqqa yo‘naltiradi! Shunday qilib, yaramas dunyoda ezgulik nuri porlaydi”. *Troilus: She is a theme of*

honor and renown, /A spur to valiant and magnanimous deeds.
(William Shakespeare, Troilus and Cressida Act 2, scene 2, line 6).

Ikkinchi guruhga implikativ pragmatik komponentli metaforalar kiradi. Bunday hollarda metafora ma'nosi ko'p jihatdan ba'zi umumiy qabul qilingan, an'anaviy ravishda ma'lum bir tushuncha yoki obyekt bilan bog'liq stereotipli uyushmalarga bog'liq. Ushbu turdagi metaforani muvaffaqiyatli dekodlash uchun ma'lum bir mamlakatning madaniyati, tarixi, an'analari va urf-odatlarini haqida ba'zi qo'shimcha ma'lumotlarni bilish kerak. Bu guruhga sport, tibbiy, texnik, harbiy (harbiy), diniy va boshqa turdagi metaforalar kiradi.

Troilus: Why, she is a pearl / Whose price hath launch'd above a thousand ships, / And turn'd crown'd kings to merchants. (William Shakespeare, Troilus and Cressida Act 2, scene 2, line 81).

“Tilshunoslikda implikatsiya (implicāre dan “o‘zaro bog‘lash, chalkashtirish”) deganda gapda yashirin (yo‘q) og‘zaki iboralarning qo‘llanilishi, shu jumladan atributiv zanjirdagi bir yoki bir nechta otning tushib qolishi ko‘rinishidagi kamaytirilishi tushuniladi”⁹³. Demak, implikatsiyada yashirin ishora qilish mazmuni ifodalanadi. Xususan, yuqorida keltirilgan misolda ham implikatsiya mavjudligini kuzatish mumkin. “Thousand ship” komponenti Marloning “Doktor Faust” asarida ana shunday tasvir bor. Misolda ham ana shu voqelikka ishora qilinadi.

Ulysses: The seeded pride/That hath to this maturity blown up / In rank Achilles must or now becropp'd / Or, shedding, breed a

⁹³ Барабанов О. О. Импликация / Труды XI международных Колмогоровских чтений: сборник статей. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2013. – С. 49-53.

nursery of like evil / Toover bulk us all. (William Shakespeare, Troilus and Cressida Act 1 scene 3, line 316).

Axillesning magʻrurligi juda katta daraxt oʻsib chiqqanidan keyin kesilishi kerak boʻlgan urugʻga qiyoslanadi. Ushbu holatda ham obrazning oʻta magʻrurligiga urgʻu beriladi. Ushbu magʻrurlik chegaradan chiqib kibrga aylanib ketmasligiga ishora qilinadi. Tasvirning oʻziga xosligi shundaki, bunda qadimgi yunon afsonalari qahramonlariga murojaat qilish orqali implikatsion mazmunga ega metafora voqelangan.

Northumberland: If then we shall shake off our slavish yoke, / Imp out our drooping country's broken wing, / Redeem from broking pawn the blemish'd crown, And make high majesty look like itself. (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Second Act 2, scene 1).

Mamlakatning tobora tanazzulga yuz tutayotganligi, alohida oʻzgarish qilish lozimligi ifodalanadi. Implikatsion mazmun esa qirol siyosatidan norozilik va uni taxtdan agʻdarishga ishora qilinadi. Qatorda uchta metafora mavjud. Birinchisida lordlar qirolning yirtqich hayvonlari sifatida tasvirlangan, ikkinchisida – lochin otishdan olingan surat – Angliya qanoti tuzatilishi kerak boʻlgan yarador qirgʻiy sifatida tasvirlangan, uchinchi esa qirol tojining oʻzini oʻzi oʻrab olganligini koʻrsatadi.

Suffolk: we'll weed them all at last, / And you yourself shal steer the happy helm. (William Shakespeare, The Second Part of Henry the Sixth, Act 1, scene 3, line 102). Suffolk bogʻdorchilik va dengizchilik metaforasini birlashtirib, malikani barcha dushmanlaridan xalos

bo‘lishiga ishontiradi. “*steer the happy helm*” orqali boshqaruvni o‘z qo‘liga olishiga ishora qiladi: *Gardener: Give some supportance to the bending twigs/... Cut off the heads of too fast growing sprays.* (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Second, Act 3, scene 4, line 30).

Bog‘bon o‘z vazifasini bajarish davomida begona o‘tlardan bog‘ni tozalar ekan, yuqoridagi metaforani qo‘llaydi. Ramzan adolatli jamiyat qurish, adolatsiz qilganlarni esa ayamay yo‘qotish, qirish lozimligiga ishora qiladi.

Uchinchi guruhga esa ma‘noning emotsional va baholovchi pragmatik komponentini o‘z ichiga olgan metaforalar kiradi. Ushbu turdagi so‘zlar yoki iboralar aniq hissiy rang, baho va ekspressivlik bilan ajralib turadi. Ular nafaqat o‘zaro o‘xshashlik hosil qiladilar, balki muallif yoki so‘zlovchining his-tuyg‘ularini obyektlar va tushunchalar orqali ifodalashga xizmat qiladi, uning muayyan obyekt yoki hodisaga subyektiv munosabatini ifodalaydi.

Tahlillar davomida quyidagi subyektiv munosabat va emotsional-ekspressiv bahoning ustunligini ko‘rish mumkin:

1) Afsus-nadomat

Lear: When she was dear to us, we did hold her so; But now her price is fall’n. (William Shakespeare, King Lear, Act 1, scene 1, line 199)

2) G‘azab va nafrat

Edgar: my name is lost, / By treason’s tooth bare-gnawn and canker-bit. (William Shakespeare, King Lear, Act 5, scene 3, line 122).
Othello: what’s the matter, / That you unlace your reputation thus.

(William Shakespeare, Othello, Act 2, scene 3, line 184). *King Philip: our hands... / they were besmear'd and over stain'd /With slaughter's pencil, where revenge did paint / The fearful difference of incensed kings.* (William Shakespeare, The Life and Death of King John, Act 3, scene1, line 23).

3) Maqtov yoki xushomad

Iago: Good name in man and woman's dear, my lord; / Is the immediate jewel of our souls. (William Shakespeare, Othello, Act 3, scene 3, line 159).

4) Mag'rurlanish

Mowbray: A jewel in a ten-times-barr'd up chest/ Is a bold spirit in a loyal breast. (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Second, Act1, scene1, line180).

5) Pand-nasihah

